



SANOATDA

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR

Volume 4
№3
September, 2026

ILMIY-TEKNIK JURNAL

E-mail:
info@srt-journal.uz
Web-adress:
www.srt-journal.uz



**ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ
В ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

научно-технический журнал

ISSN (ISSN-L): 3030-3214

**DIGITAL TECHNOLOGIES
IN INDUSTRY**

scientific and technical journal

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

SANOATDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR
Ilmiy-texnik jurnali

**ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В
ПРОМЫШЛЕННОСТИ**
Научно-технический журнал

DIGITAL TECHNOLOGIES IN INDUSTRY
Scientific and technical journal

№4(3) / 2026

QARSHI – 2026

Ilmiy-texnik jurnal O'zbekiston
Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligining 26.07.2023-yildagi
106679-son guvohnomasi.

Ta'sischilar

Qarshi davlat texnika universiteti,
"Olmaliq kon-metallurgiya kombinati"
AJ

CHIEF EDITOR

Sherzod Nematov

Rektor, Qarshi davlat texnika
universiteti

E-mail: rektor@kstu.uz

Bosh muharrir o'rinbosari

Abdurashid Khasanov

T.f.d. prof. Olmaliq kon-metallurgiya
kombinati

E-mail: abdurashidsoli@mail.ru

Mas'ul kotib

Abbas Shadieyev

T.f.d., Qarshi davlat texnika universiteti

E-mail: a.shodiyev@srt-journal.uz

Editorial address

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik shoh
ko'chasi, 225-uy, Qarshi davlat texnika
universiteti

Tel: (+998) 90 673 64 33

E-mail: info@srt-journal.uz

Veb sayt: www.srt-journal.uz

Texnik muharrirlar

Najmiddin Boymurodov

Ilhom Togaev

Tahlil quruhi

Oybek Qayumov,

Uchqun Eshonqulov,

Dizayn

Farusxon Olimov

Jurnalning elektron versiyasini nashr

etish va yangilash uchun mas'ul

Abbos Shodiev

Chop etilgan

Terishga topshirilgan sana:

15.09.2026 y.

Nashr qilingan sana: 28.09.2026 y.

Format: 60×84 1/8. Times shriftida.

Shartli bosma taboq: 21,125. Bosma
taboq: 21,125. Adadi: 48 nusxa.

Buyurtma №: 036. Qarshi davlat texnika
universitetining "INTELLEKT" MIU
nashriyotida chop etildi.

Manzil: Qarshi, Mustaqillik ko'chasi,
225.

© Sanoatda raqamli texnologiyalar

(E)ISSN: 3030-3214

DOI: [10.70769/3030-3214.SRT.4.3.2026](https://doi.org/10.70769/3030-3214.SRT.4.3.2026)

TAHRIRIYAT HAY'ATI

Sherzod Nematov, Rektor. Qarshi davlat texnika universiteti, O'zbekiston
Abdulla Xursanov, t.f.d., Olmaliq kon-metallurgiya kombinati, O'zbekiston
G'ulom Uzoqov, t.f.d., prof. Qarshi davlat texnika universiteti, O'zbekiston
Abdirashid Hasanov, t.f.d. prof. Olmaliq kon-metallurgiya kombinati,
O'zbekiston

Xayit Turayev, k.f.d., prof., Termiz davlat universiteti kimyo fakulteti dekani,
O'zbekiston

Eshmurat Pirmatov, t.f.d., prof. Yevroosiyo fanlar akademiyasi akademigi,
Qozog'iston

Bum Sung Kim, t.f.d., prof., Koreya nodir metallar instituti, Janubiy Koreya
Irina Shadrinova, t.f.d., prof. Rossiya fanlar akademiyasi M.V.Melnikov
nomidagi Mineral resurslardan kompleks foydalanish instituti, Rossiya

Gabor Mucsi, PhD, DSc, prof. Mishkols universiteti, Vengriya

Marcin Lutynski, PhD, DSc, prof. Sileziya texnologiya universiteti, Polsha

Márton Benke, Prof. Dr., professor, Mishkols universiteti, Vengriya

Tünde Kovács, t.f.d., prof. Óbuda universiteti, Vengriya

Anatoliy Gets, t.f.d., prof., Belarussiya milliy texnika univesiteti, Belarussiya

Pyotr Tsibulenko, t.f.d., prof., Belarussiya milliy texnika univesiteti,
Belarussiya

Shohrux Jo'rayev, t.f.d., dots., Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar
universiteti, O'zbekiston

Nodir Doniyarov, t.f.d., prof., Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar
universiteti, O'zbekiston

Behzod Tolibov, t.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish
agentligi, O'zbekiston

Abbos Shodiyev, t.f.d., prof. Qarshi davlat texnika universiteti, O'zbekiston

Baxriddin Voxidov, t.f.d., dots., Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar
universiteti, O'zbekiston

O'tkir Nosirov, t.f.d., prof., Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti MISiS
ning Olmaliq filiali, O'zbekiston

Gafur Nutfulloyev, t.f.d., dots., Milliy tadqiqotlar universiteti "MISIS" ning
Olmaliq shahridagi filiali, O'zbekiston

Utkir Xalikulov, t.f.d., prof., Olmaliq davlat texnika istituti, O'zbekiston

Shahboz Turdiyev, t.f.d., dots., Qarshi davlat texnika universiteti, O'zbekiston

Sarvar Parmonov, t.f.d., dotsent, Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq
filiali, O'zbekiston

Ulug'bek Hasanov, t.f.f.d., Olmaliq kon-metallurgiya kombinati, O'zbekiston

Jamoliddin Todjiyev, k.f.d., prof., O'zbekiston Milliy universiteti,
O'zbekiston

Asqar Parmonov, k.f.d., prof., O'zbekiston Milliy universiteti, O'zbekiston

Aktam Saidaxmedov, t.f.d., dots., Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar
universiteti, Navoiy, O'zbekiston

Shaxriddin Turobov, t.f.f.d., dots., Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar
universiteti, O'zbekiston

Rustam Nomdorov, t.f.f.d., Qarshi davlat texnika universiteti, O'zbekiston

Uchqun Eshonqulov, t.f.f.d., dots., Qarshi davlat texnika universiteti,
O'zbekiston

Oybek Qayumov, t.f.f.d., dots., Qarshi davlat texnika universiteti, O'zbekiston

Najmiddin Boymurodov, t.f.f.d., PhD., Qarshi davlat texnika universiteti,
O'zbekiston

*"Sanoatda raqamli texnologiyalar" (e-ISSN:3030-3214) ilmiy-texmik jurnali
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Oliy attestatsiya komissiyasining 30-iyul 2024 yildagi №358-sonli qaroriga
asosan quyidagi ixtisosliklar bo'yicha texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya
ishlari yuzasidan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya
etilgan:*

- 05.00.00 - Texnika fanlari
- 04.00.00 - Geologiya-mineralogiya fanlari
- 02.00.00 - Kimyo fanlari

MUNDARIJA

KON-METALLURGIYA VA ISHLAB CHIQUARISH SANOATI

<i>Rahmonova Umida Toshpo'latovna, Xasanov Abdurashid Soliyevich, Saidaxmedov Aktam Abdisumiyovich.</i> Glitsinli eritmalarda oltinning erish kinetikasi va texnologik parametrlarini tadqiq qilish	13
<i>Jalolov Baxtiyorjon Adxamjon o'g'li, Mirzavaliyev Doston Boxodirovich, Qarshiyev Humoyun Komilovich, Kamalova Iroda Mamasaiid qizi.</i> Rux saqlovchi yoyli po'lat eritish pechi changining tavsifi va qayta ishlash imkoniyatlari tahlili	19
<i>Almatov Ilxomjon Mirzabek o'g'li, Xatamov G'ayrat Alimansurovich, Jabborov Ergash Yusuf o'g'li, Sodiqov Farrux Sobirjon o'g'li.</i> Yangi Angren va Angren issiqlik elektr stansiyalarining kul-shlak ag'darmalari hajmi va ulardan foydalanish istiqbollari o'rganish	30
<i>Almatov Ilxomjon Mirzabek o'g'li, Xatamov G'ayrat Alimansurovich, Botirov Mirmuxsin Sherali o'g'li, G'ulomov Ibroxim Inomjonovich.</i> Angren va Yangi Angren issiqlik elektr stansiyalari kul-shlak chiqindilaridan olingan texnologik namunalarning moddiy tarkibini tadqiq etish	37
<i>Istablavey Fevzi Feratovich, Ataqulov Lazizjon Nematovich, Jurayev Akbar Shavkatovich.</i> O'zbekiston tog'-kon sanoati korxonalari sharoitida karyer avtosamosvallari katta o'lchamli shinalarining temperatura rejimlarini tadqiq etish va ularning muddatidan oldin ishdan chiqish sabablari tahlil qilish	45
<i>Davlonov Xayrulla Allamuratovich, Uzboyev Maftun Dusiyarovich, Toshmamatov Bobir Mansurovich.</i> Biomassa piroliz suyuqligi va havo oqimining yonish kamerasidagi aerogidrodinamik holatini CFD modellash	55
<i>Eshonqulov Uchqun Xudoynazar o'g'li, Xasanov Abdirashid Saliyevich, Qarshiyev Humoyun Komilovich.</i> Kobalt tarkibli keklarni gidrometallurgik qayta ishlashning zamonaviy texnologiyalari	61
<i>Maxmarejabov Dilmurod Baxtiyarovich, Abdurasulova Zarina Xusniddinovna, Asilov Shodbay Nurullayevich, Jabborov Ergash Yusuf o'g'li.</i> Oksidlangan va aralash tipdagi mis rudalarini to'plovchi reagent yordamida flotatsiyalashni o'rganish	71
<i>Maxmarejabov Dilmurod Baxtiyarovich, Abdurasulova Zarina Xusniddinovna, Botirov Mirmuxsin Sherali o'g'li, Sodiqov Farrux Sobirjon o'g'li.</i> Oksidlanishga uchragan mis porfir ma'danlarni faollashtiruvchi reagent bilan flotatsiyalash mexanizmini o'rganish	76
<i>Botirov Shoxbos Soibjon o'g'li, Nomdorov Rustam Uralovich.</i> Radar interferometriyasi (InSAR) texnologiyasining nazariy asoslari va yer yuzasi deformatsiyalarini monitoring qilish imkoniyatlari	83
<i>Djurayev Rustam Umarxanovich, Turdiyev Sardorjon Abdumuminovich, Abdurakhmonov Otabek Usmon o'g'li, Jurayev Akbar Shavkatovich.</i> Karyer ekskavatori cho'mich tishlarining dinamik yuklanish sharoitida abraziv yemirilishini baholash	89
<i>Larionov Sergey Vladimirovich, Ergashev Mahmud Axbaraliyevich, Sidiqov Ravshan Mirzabekovich, Axmadaliyev Alisher Madaminovich.</i> Mis-porfir ma'danidan oltin va kumushni markazdan qochma konsentrator yordamida ajratib olishda G-omil va sikl vaqti ta'sirini faktorli tajriba asosida baholash	96
<i>Mustafoyev Azamat Botir o'g'li.</i> Ko'p o'zgaruvchili kriptografik tizimlar va ularning tahlili	105
<i>Karimov Yoqub Latipovich, Jumayev Ilhom Kudratovich, Olimov Farusxon Muzaffar o'g'li, Nomdorov Rustam Urolovich.</i> Kaliyli konlarda qazib olish chuqurligi ortishi bilan silvinit rudasini qazib olish tizimidagi parametrlarni geomekanik moslashtirish va nazariy asoslash	112
<i>Abdullayeva Samira Afgan qizi, Jabbarov Tohir Gaffar o'g'li.</i> Yuqori voltli o'chirgichlarning texnik holatini intellektual monitoring orqali ishonchliligini oshirish	126
<i>Rahmonova Umida Toshpo'latovna, Xasanov Abdurashid Soliyevich, Saidaxmedov Aktam Abdisamiyevich.</i> Marjonbuloq koni rudasidan oltinni JINCHAN reagenti yordamida tanlab eritishning texnologik samaradorligini natriy sianidi bilan qiyosiy baholash	134
<i>Shakarov Tulkun Ismatovich, Pulatov Xusanxon A'loxonovich.</i> Ko'pik hosil qiluvchilar konsentratsiyasi, aeratsiya jadalligi va suvli faza tarkibining flotatsiya tizimining gaz-dispers xususiyatlariga ta'siri	143
<i>Jumaniyozov Jumaniyoz Shavkat o'g'li, Jumaniyozov Maxsud Jabbiyevich.</i> Bitum emulsiyalarini ishlab chiqarishda qo'llaniladigan emulgator turlarining barqarorlikka ta'siri tahlili	150

<i>Sherbaev Javokhir Ravshan o'g'li, Abdumalikov Akmaljon Abduxoliq o'g'li.</i> K ₂ U-Node: uch fazali kuchlanishlar nosimmetrikligini monitoring qilish uchun ochiq kodli ikki avloddan iborat qurilmani loyihalash va validatsiya metodikasi	158
<i>Mislibayev Ilxom Tuychibayevich, Bo'riyev Feruz Mansur o'g'li, Nizomov To'liq Najimovich, Nurxonov Xusan Almirza o'g'li.</i> Yer osti kon lahimlarini ankerli mustahkamlashda mineral kompozitsiyali ikki komponentli ampulalarning samaradorligini baholash	169
<i>Qurbonov Oybek Muhammadqulovich.</i> Markazdan qochma nasos ishchi g'ildiragi kuraklarining yuza teksturasini qiyosiy tahlil qilish va sonli baholash metodologiyasi	174
<i>Askarov Agzam Muratovich, Larionov Sergey Vladimirovich.</i> Qalmoqqir konining oksidlangan balansdan tashqari rudalarini shakllantirish tarixi va qayta ishlash istiqbollari	182
<i>Toshtemirov Umarali Tulqin o'g'li, Qosimov Muhiddin Odilovich, Yormatov Ozodbek Shermuhammad o'g'li, Bo'riyev Feruz Mansur o'g'li.</i> Kon lahimlarining suvlanganligini aniqlash va uning turg'unligiga ta'sirini baholash	189
<i>Qayumov Oybek Azamat o'g'li, Uzoqov Shaxrizod Zafarjon o'g'li, Larionov Sergey Vladimirovich.</i> Klinkerdan kumush va misni ajratib olish texnologiyasini tadqiq qilish	195
<i>Askarov Agzam Muratovich, Mamaisakova Zebo Bahodir qizi.</i> Mis-porfir minerallarini kompleks qayta ishlash jarayonida qimmatbaho metallar yo'qotilishini kamaytirishning texnologik asoslari	201

GEOLOGIYA VA NEFT-GAZ SANOATI

<i>Norqulov Shohbozbek Samandar o'g'li.</i> Ko'kdumaloq konida tovar neftini rezervuarlarda saqlashda bug'lanish yo'qotishlarini kamaytirishning texnik-iqtisodiy samaradorligi	207
<i>Rahmatullayev Ilhom Farmonqul o'g'li, Ashirbekov Akabir Botirovich.</i> Bokali intruzivi petrografiya va ma'dandorligi (Shimoliy Bukantov)	214
<i>Islamova Nilufar Fayzullayevna.</i> Toshkent shahrining seysmik jadalligining chuqurlik bo'yicha o'zgarishini baholash ..	220
<i>Tangirov Jasurbek Mixli o'g'li, Xabibullayev Saidaziz Shoxsuvorovich, Amirqulov Nuriddin Sayfullayevich, Muradullayev Doston Muzaffar o'g'li.</i> Neft konlarida foydalaniladigan texnik suvni tozalashda sorbsion-flotatsion jarayonlar kinetikasi va texnologik parametrlarini optimallashtirishning ilmiy asoslari	226
<i>Tangirov Jasurbek Mixli o'g'li, Xabibullayev Saidaziz Shoxsuvorovich, Amirqulov Nuriddin Sayfullayevich, Muradullayev Doston Muzaffar o'g'li.</i> Neft va gaz korxonalarida texnik suvni tozalash va tayyorlash texnologiyasi samaradorligini oshirishning ilmiy asoslari	231
<i>Abdullayev G'aybulla Sayfullayevich, Yuldashev Nazarbek Narziyevich, Davronov Nodirbek Nuriddin o'g'li.</i> Beshkent egilmasidagi quyi-o'rta terrigen yura yotqiziqlarining neftgazlilik istiqbollarini baholash (Chunagar koni misolida)	237
<i>G'ayratova Malika Zokirovna.</i> Haqiqiy va sintetik egri chiziqlarni taqqoslash orqali Buxoro-Xiva mintaqasi uchun akustik karetajni tiklashning optimal usulini tanlash	243
<i>Niyozov Dalir Botir o'g'li, Ikromov O'tkir Olimovich.</i> Xo'jabarku-Malyangur paleovulqoni andezitlari va ularning tuflarining petrografik xususiyatlari	250

KIMYOVIY TEXNOLOGIYA VA QURILISH

<i>Husenov Abdurasul O'ktamovich, Xadjibayev Diyor Asadullayevich, Sabirov Baxtiyor To'xtayevich.</i> Sanoat oqova suvlarini tozalash uchun bentonit asosidagi sorbsion materiallarni olishda istiqbolli xom ashyo konlarini tanlash va baholash	256
<i>Husenov Abdurasul O'ktamovich, Xadjibayev Diyor Asadullayevich, Sabirov Baxtiyor To'xtayevich.</i> Navbahor koni bentonit gilining xlorid kislotada yordamida modifikatsiyalanishi va uning fizik-kimyoviy xossalari tadqiq etish	262
<i>Shodiev Asliddin Faxriddin o'g'li, Muhiddinov Bahodir Fahriddinovich, Jo'rayev Shoxruh To'liqinovich, Shokirov Ravshan Qahramonovich.</i> Sof, chiqindi, qayta ishlangan va plastifikatsiyalangan poliuretan namunalarining qiyosiy termogravimetrik tahlili	268
<i>Shodiev Asliddin Faxriddin o'g'li, Muhiddinov Bahodir Fahriddinovich, Jo'rayev Shoxruh To'liqinovich, Shokirov Ravshan Qahramonovich.</i> 4,4'-Metilendifenildiizosianat asosidagi poliuretanlarning qovushqoqlik xossalari va makromolekulyar tavsiflarini viskozimetrik usulda tadqiq etish	277

Tursunboyev Alisher Qurbonmurod o'g'li, Ochilov Abduraxim Abdurasulovich, Maxmudov Rafiq Amonovich. Mahalliy xomashyolar asosida selluloza nanokristallari sintezi va ular asosida yuqori samarali adgezion kompozitsiyalar yaratish istiqbollari 283

Tursunboyev Alisher Qurbonmurod o'g'li, Ochilov Abduraxim Abdurasulovich, Maxmudov Rafiq Amonovich. Sellyuloza nanokristallari va funksional akril monomerlari o'rtasidagi kimyoviy reaksiyani tadqiq etish hamda ularning fizik-kimyoviy xossalarini o'rganish 290

Urishev Boboraim, Quvatov Ulug'bek Jalolovich, Ochilov Obid Boymurod o'g'li, Qulmatov Sanjar Xolmumin o'g'li. Irrigatsiya kanallarida mikroGES energiya ishlab chiqarishini gidrologik statistika va optimallashtirish modeli asosida baholash 297

YENGIL SANOAT TARMOQLARI

Axmedov Xamidulla Abduxoshimovich, Xaydarova Marjona Xayotovna. Tola ajratgich kolosnigi almashinuvchi elementining ishchi yuzasini ultratovushli ishlov berish orqali qattiqligini oshirish tadqiqotlari 303

Xamzayev Dilshod Inomdjonovich. Dielektrik xossalarining o'zgarishi asosida paxta tolasi namligini real vaqt rejimida o'lchash 310

EKOLOGIYA, MEHNAT MUHOFAZASI VA TEXNIKA XAVFSIZLIGI

Madarova Surayyo Uralovna. Mahalliy Artemisia biomassasidan bioetanol ishlab chiqarish 318

Davronbekov Dilmurod Abduljalilovich, Pisetskiy Yuriy Valerevich. Xavfli gaz chiqishini aniqlash ehtimoli yo'qotilishini cheklagan holda veyvlet chegarasini sozlash 323

G'ayimnazarov Israil Xoliqovich, Toshmurodov Jomurod Jahongir o'g'li. Grunt o'zanli kanallarda oqiziqlar sarfini hisoblash usullarini takomillashtirish 330

ОГЛАВЛЕНИЕ

ГОРНОДОБЫВАЮЩАЯ МЕТАЛЛУРГИЯ И ОБРАБАТЫВАЮЩАЯ ПРОМЫШЛЕННОСТЬ

<i>Рахмонова Умида Тошпулатовна, Хасанов Абдурашид Солиевич, Саидахмедов Актам Абдисамиевич.</i> Исследование влияния реагентов цианида натрия и «Золотой Секи» на извлечение редких металлов из руды	13
<i>Жалолов Бахтиёржон Адхамжон угли, Мирзалиев Достон Бахадирович, Каршиев Хумоюн Комилович, Камалова Ирода Мамасайд кизи.</i> Характеристика и анализ возможностей переработки цинксодержащей пыли дуговой сталеплавильной печи	19
<i>Алматов Илхомжон Мирзабек угли, Хатамов Гайрат Алимансурович, Жабборов Эргаи Юсуф угли, Садыков Фаррух Собиржон угли.</i> Исследование объемов золошлаковых отвалов Ново-Ангренской и Ангренской тепловых электростанций и перспектив их использования	30
<i>Алматов Илхомжон Мирзабек угли, Хатамов Гайрат Алимансурович, Ботиров Мирмухсин Шерали угли, Гуломов Иброхим Иномжонович.</i> Исследование вещественного состава технологических проб, полученных из золошлаковых отходов Ангренской и Ново-Ангренской тепловых электростанций	37
<i>Истаблаев Февзи Фератович, Атакулов Лазизжон Нематович, Жураев Акбар Шавкатович.</i> Исследование температурных режимов крупногабаритных шин карьерных автосамосвалов и анализ причин их преждевременного отказа в условиях горнодобывающих предприятий Узбекистана	45
<i>Давлонов Хайрулла Алламуротович, Узбоев Мафтун Дусиярович, Тошмаматов Бобир Мансурович.</i> CFD моделирование аэрогидродинамического состояния пиролизной жидкости биомассы и воздушного потока в камере сгорания	55
<i>Эшонкулов Учкун Худойназар угли, Хасанов Абдирашид Салиевич, Каршиев Хумоюн Комилович.</i> Современные технологии гидрометаллургической переработки кобальтосодержащих кеков	61
<i>Махмарезжабов Дилмурод Бахтиярович, Абдурасулова Зарина Хусниддиновна, Асиров Шодбай Нуруллаевич, Жабборов Эргаи Юсуф угли.</i> Изучение флотации окисленных и смешанных медных руд с использованием собирательного реагента	71
<i>Махмарезжабов Дилмурод Бахтиярович, Абдурасулова Зарина Хусниддиновна, Ботиров Мирмухсин Шерали угли, Садилов Фаррух Собиржон угли.</i> Исследование механизма флотации подвергшихся окислению медно-порфировых руд с применением реагента-активатора	76
<i>Ботиров Шохбос Соибжон угли, Номдоров Рустам Уралович.</i> Теоретические основы технологии радиолокационной интерферометрии (InSAR) и возможности мониторинга деформаций земной поверхности	83
<i>Джуроев Рустам Умарханович, Турдиев Сардоржон Абдумуминович, Абдурахмонов Отабек Усмон угли, Жураев Акбар Шавкатович.</i> Оценка абразивного износа зубьев ковша карьерного экскаватора в условиях динамического нагружения	89
<i>Ларионов Сергей Владимирович, Еришегов Махмуд Ахбаралиевич, Сидиков Равшан Мирзабекович, Ахмадиев Алишер Мадаминович.</i> Оценка влияния G-фактора и времени цикла при извлечении золота и серебра из медно-порфировой руды с помощью центробежного концентратора на основе факторного эксперимента	96
<i>Мустафаев Азамат Ботир угли.</i> Многопеременные криптографические системы и их анализ	105
<i>Каримов Ёкуб Латипович, Жумаев Илхом Кудратович, Олимов Фарухон Музаффар угли, Номдоров Рустам Уролович.</i> Геомеханическая адаптация и теоретическое обоснование параметров системы разработки силвинитовых руд при увеличении глубины разработки калийных месторождений	112
<i>Абдуллаева Самира Афган кызы, Джаббаров Тахир Гаффар оглы.</i> Повышение надёжности высоковольтных выключателей через интеллектуальный мониторинг технического состояния	126
<i>Рахмонова Умида Тошпулатовна, Хасанов Абдурашид Солиевич, Саидахмедов Актам Абдисамиевич.</i> Сравнительная оценка технологической эффективности избирательного выщелачивания золота из руды месторождения Маржонбулок с помощью реагента JINCHAN и цианида натрия	134
<i>Шакаров Тулкин Исматович, Пулатов Хусанхон Аълохонович.</i> Влияние концентрации пенообразователей, интенсивности аэрации и состава водной фазы на газодисперсные характеристики флотационной системы	143
<i>Жуманиёзов Жуманиёз Шавкатович, Жуманиязов Махсуд Джаббиевич.</i> Обзор влияния типов эмульгаторов, применяемых при производстве битумных эмульсий, на их стабильность	150

<i>Шербаев Джавохир Равшан угли, Абдумаликов Акмалжон Абдухолик угли.</i> K ₂ U-Node: проектирование и методика валидации двухпоколенного устройства с открытым исходным кодом для мониторинга несимметрии трёхфазных напряжений	158
<i>Мислибаев Илхом Туйчибаевич, Буриев Феруз Мансур угли, Низомов Тулкин Нажимович, Нурхонов Хусан Алмирза угли.</i> Оценка эффективности двухкомпонентных ампул на основе минеральной композиции при анкерном креплении подземных горных выработок	169
<i>Курбонов Ойбек Мухаммадулович.</i> Методология сравнительного анализа и численной оценки текстуры поверхности лопаток рабочего колеса центробежного насоса	174
<i>Аскарлов Агзам Муратович, Ларионов Сергей Владимирович.</i> История формирования и перспективы переработки окисленных забалансовых руд месторождения Кальмакыр	182
<i>Тоштемуров Умарали Тулкинович, Косимов Мухиддин Одилович, Ярматов Озодбек Шермухаммат угли, Буриев Феруз Мансур угли.</i> Определение обводненности горных выработок и оценка её влияния на устойчивость	189
<i>Каюмов Ойбек Азамат угли, Узоков Шахризод Зафаржон угли, Ларионов Сергей Владимирович.</i> Исследование технологии извлечения серебра и меди из клинкера	195
<i>Аскарлов Агзам Муратович, Мамаисакова Зебо Баходир кизи.</i> Технологические основы снижения потерь благородных металлов при комплексной переработке медно-порфировых руд	201

ГЕОЛОГИЯ И НЕФТЕГАЗОВАЯ ПРОМЫШЛЕННОСТЬ

<i>Норкулов Шохбозбек Самандар угли.</i> Техничко-экономическая эффективность снижения потерь нефти от испарения при резервуарном хранении на месторождении Кокдумалак	207
<i>Рахматуллаев Илхом Фармонкул угли, Аширбеков Акабир Ботирович.</i> Петрография и рудоносность Бокалинского интрузива (Северный Букантау)	214
<i>Исламова Нилуфар Файзуллаевна.</i> Оценка изменения сейсмической интенсивности города Ташкента по глубине	220
<i>Тангиров Жасурбек Михли угли, Хабибуллаев Саидазиз Шохусурович, Амиркулов Нуриддин Сайфуллаевич, Мурадуллаев Достон Музаффар угли.</i> Научные основы кинетики сорбционно-флотационных процессов и оптимизации технологических параметров при очистке технической воды, используемой на нефтяных	226
<i>Тангиров Жасурбек Михли угли, Хабибуллаев Саидазиз Шохусурович, Амиркулов Нуриддин Сайфуллаевич, Мурадуллаев Достон Музаффар угли.</i> Научные основы повышения эффективности технологии очистки и подготовки технической воды на нефтегазовых предприятиях	231
<i>Абдуллаев Гайбулла Сайфуллаевич, Юлдашев Назарбек Нарзиевич, Давронов Нодирбек Нуриддин угли.</i> Оценка перспектив нефтегазоносности терригенных отложений нижней и средней юры Бешкентского прогиба (на примере месторождения Чунагар)	237
<i>Гайратова Малика Зокировна.</i> Выбор оптимального метода восстановления акустического каротажа для Бухара-Хивинского региона путем сравнения реальных и синтетических кривых	243
<i>Ниёзов Далир Ботир угли, Икромов Уткир Олимович.</i> Петрографические особенности андезитов палеовулкана Ходжабарку–Маянгур и их туфов	250

ХИМИЧЕСКАЯ ТЕХНОЛОГИЯ И СТРОИТЕЛЬСТВО

<i>Хусенов Абдурашул Уктамович, Хаджибаев Диёр Асадуллаевич, Сабиров Бахтиёр Тохтаевич.</i> Выбор и оценка перспективных месторождений бентонитового сырья для получения сорбционных материалов, предназначенных для очистки промышленных сточных вод	256
<i>Хусенов Абдурашул Уктамович, Хаджибаев Диёр Асадуллаевич, Сабиров Бахтиёр Тохтаевич.</i> Исследование модификации бентонитовой глины Навбахорского месторождения соляной кислотой и её физико-химических свойств	262
<i>Шодиев Аслиддин Фахриддин угли, Мухиддинов Баходир Фахриддинович, Жураев Шохрух Тулкинович, Шокиров Равшан Кахрамонович.</i> Сравнительный термогравиметрический анализ образцов чистого, отработанного, переработанного и пластифицированного полиуретана	268

<i>Шодиев Аслиддин Фахриддин угли, Мухиддинов Баходир Фахриддинович, Жураев Шохрух Тулкинович, Шокиров Равшан Кахрамонович.</i> Исследование вязкостных свойств и макромолекулярных характеристик полиуретанов на основе 4,4'-метиленидифенилдиизоцианата вискозиметрическим методом	277
<i>Турсунбоев Алишер Курбонмурод угли, Очилов Абдурахим Абдурасулович, Махмудов Рафик Амонович.</i> Перспективы синтеза нанокристаллов целлюлозы на основе местного сырья и создания на их основе высокоэффективных адгезионных композиций	283
<i>Турсунбоев Алишер Курбонмурод угли, Очилов Абдурахим Абдурасулович, Махмудов Рафик Амонович.</i> Исследование химической реакции между нанокристаллами целлюлозы и функциональными акриловыми мономерами, а также изучение их физико-химических свойств	290
<i>Уришев Бобораим, Куватов Улугбек Жалолович, Очилов Обид Боймурод угли, Кулматов Санжар Холмунин угли.</i> Оценка выработки электроэнергии микроГЭС в оросительных каналах на основе гидрологической статистики и модели оптимизации	297

ЛЕГКАЯ ПРОМЫШЛЕННОСТЬ

<i>Ахмедов Хамидулла Абдухошимович, Хайдарова Маржона Хаётовна.</i> Исследования повышения твёрдости рабочей поверхности сменного элемента колосника волокноотделителя путём ультразвуковой обработки	303
<i>Хамзаев Дилишод Иномджонович.</i> Измерение влажности хлопка в реальном времени на основе изменения диэлектрических свойств волокна	310

ЭКОЛОГИЯ, ОХРАНА ТРУДА И ТЕХНИЧЕСКАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ

<i>Мадарова Сурайё Ураловна.</i> Производство биоэтанола из местной биомассы Artemisia	318
<i>Давронбеков Дилмурод Абдужалилович, Писецкий Юрий Валерьевич.</i> Настройка вейвлетного порога с ограничением потери вероятности обнаружения опасного выброса газов	323
<i>Гайимназаров Израил Холикович, Тошмуродов Жомурод Жахонгир угли.</i> Совершенствование методов расчёта расхода наносов в каналах с грунтовым руслом	330

CONTENTS

MINING METALLURGY AND MANUFACTURING INDUSTRY

Rahmonova Umida Toshpulatovna, Khasanov Abdurashid Solievich, Saidakhmedov Aktam Abdisamievich. A study on the effect of sodium cyanide and Gold Cicada reagents on the extraction of precious metals from ore	13
Jalolov Bakhtiyorjon Adkhamjon ugli, Mirzavaliyev Doston Bokhodiroyevich, Karshiyev Khumoyun Komilovich, Kamalova Iroda Mamasaid kizi. Characteristics and analysis of processing options for zinc-bearing dust from electric arc furnaces ..	19
Almatov Ilkhomjon Mirzabek ugli, Khatamov Gayrat Alimansurovich, Jabborov Ergash Yusuf ugli, Sodiqov Farrukh Sobirjon ugli. Study of the volume of ash and slag dumps at the New Angren and Angren thermal power plants and prospects for their utilization	30
Almatov Ilkhomjon, Khatamov Gayrat, Botirov Mirmukhsin, Jabbarov Ergash. Study of the material composition of technological samples obtained from ash and slag wastes of the Angren and Novo-Angren thermal power plants	37
Istablaev Fevzi Feratovich, Ataqulov Lazizjon Nematovich, Zhuraev Akbar Shavkatovich. Investigation of temperature regimes of large-size tyres of mining dump trucks and analysis of the causes of their premature failure in the conditions of mining enterprises of Uzbekistan	45
Davlonov Khayrulla Allamuratovich, Uzboev Maftun Dusiyarovich, Toshmamatov Bobir Mansurovich. CFD modeling of the aerohydrodynamic behavior of biomass pyrolysis liquid and airflow in a combustion chamber	55
Eshonkulov Uchkun Khudoynazar ugli, Khasanov Abdurashid Solievich, Karshiev Khumoyun Komilovich. Modern hydrometallurgical technologies for the processing of cobalt-containing cakes	61
Maxmarejabov Dilmurod Bakhtiyarovich, Abdurasulova Zarina Xusniddinovna, Asilov Shodbay Nurullayevich, Jabborov Ergash Yusuf ugli. Investigation into the flotation of oxidized and mixed copper ores using a collector reagent	71
Maxmarejabov Dilmurod Bakhtiyarovich, Abdurasulova Zarina Xusniddinovna, Botirov Mirmukhsin Sherali ugli, Sodiqov Farrukh Sobirjon ugli. Study on the flotation mechanism of weathered copper porphyry ores with the application of an activator reagent	76
Botirov Shoxbos Soibjon ugli, Nomdorov Rustam Uralovich. Theoretical foundations of Interferometric Synthetic Aperture Radar (InSAR) technology for ground surface deformation monitoring	83
Djurayev Rustam Umarxanovich, Turdiyev Sardorjon Abdumuminovich, Abdurakhmonov Otabek Usmon ugli, Zhuraev Akbar Shavkatovich. Assessment of abrasive wear of open-pit excavator bucket teeth under dynamic loading conditions ..	89
Larionov Sergey Vladimirovich, Ershegeev Makhmud Akhbaraliyevich, Sidikov Ravshan Mirzabekovich, Akhmadiyev Alisher Madaminovich. Evaluation of the effect of G-factor and cycle time on gold and silver recovery from copper-porphyry ore using a centrifugal concentrator based on a factorial experiment	96
Mustafaev Azamat Botir ugli. Multivariate cryptographic systems and their analysis	105
Karimov Yokub Latipovich, Jumaev Ilhom Kudratovich, Olimov Faruskhon Muzaffar ugli, Nomdorov Rustam Urolovich. Geomechanical adaptation and theoretical justification of sylvinit ore mining system parameters with increasing mining depth in potash deposits	112
Abdullayeva Samira Afgan gyzy, Jabbarov Tahir Gafar oglu. Improving the reliability of high-voltage circuit breakers through intelligent condition monitoring	126
Rahmonova Umida Toshpulatovna, Khasanov Abdurashid Solievich, Saidakhmedov Aktam Abdisamievich. Comparative evaluation of the technological efficiency of selective gold leaching from Marjonbuloq ore using JINCHAN reagent and sodium cyanide	134
Shakarov Tulkin Ismatovich, Pulatov Khusankhon A'lokhonovich. Effect of foaming agent concentration, aeration intensity, and aqueous phase composition on the gas-dispersion characteristics of a flotation system	143
Jumaniyozov Jumaniyoz Shavkat ugli, Jumaniyazov Maxsud Jabbiyevich. Review of the influence of emulsifier types used in producing bitumen emulsions on emulsion stability	150
Sherbaev Javokhir, Abdumalikov Akmal. K ₂ U-Node: design and validation methodology of an open-source two-generation device for three-phase voltage-unbalance monitoring	158
Mislibayev Ilkhom Tuychibayevich, Boriyev Feruz Mansur ugli, Nizomov Tolqin Najimovich, Nurkhonov Khusan Almirza ugli. Evaluation of the effectiveness of two-component mineral-composite capsules for rock bolting in underground mine workings	169

Kurbonov Oybek Muhammadkulovich. Methodology for comparative analysis and numerical evaluation of the surface texture of centrifugal pump impeller blades	174
Askarov Agzam Muratovich, Larionov Sergey Vladimirovich. History of formation and prospects for processing oxidized off-balance ore of the Kalmakyr deposit	182
Toshtemirov Umarali Tulqin ogli, Kosimov Mukhiddin Odilovich, Yormatov Ozodbek Shermuhammat ugli, Boriyev Feruz Mansur ugli. Determination of water saturation of mine workings and assessment of its impact on stability	189
Kayumov Oybek Azamat ugli, Uzokov Shakhriyoz Zafarjon ugli, Larionov Sergey Vladimirovich. A study of technology for the extraction of silver and copper from clinker	195
Askarov Agzam Muratovich, Mamaisakova Zebo Bahodir kizi. Technological foundations of reducing losses of precious metals during comprehensive processing of copper-porphyry minerals	201

GEOLOGY AND OIL-GAS INDUSTRY

Norkulov Shokhbozbek Samandar ugli. Technical and economic efficiency of reducing evaporation losses during tank storage of crude oil at the Kokdumalak field	207
Rahmatullayev Ilhom Farmonqul ugli, Ashirbekov Akabir Botirovich. Petrography and ore potential of the Bokali intrusion (Northern Bukantau)	214
Islamova Nilufar Fayzullaevna. Assessment of the depth-dependent variation in seismic intensity of the city of Tashkent	220
Tangirov Jasurbek Mikhli ugli, Khabibullayev Saidaziz Shokhsuvorovich, Amirqulov Nuritdin Sayfullayevich, Muradullayev Doston Muzaffar ugli. Scientific foundations of the kinetics of sorption-flotation processes and optimization of technological parameters for the purification of technical water used in oil fields	226
Tangirov Jasurbek Mikhli ugli, Khabibullayev Saidaziz Shokhsuvorovich, Amirqulov Nuritdin Sayfullayevich, Muradullayev Doston Muzaffar ugli. Scientific basis for improving the efficiency of technical water purification and treatment technology at oil and gas enterprises	231
Abdullayev Gaybulla Sayfullayevich, Yuldashev Nazarbek Narziyevich, Davronov Nodirbek Nuriddin ugli. Evaluation of the hydrocarbon potential of the Lower–Middle Jurassic terrigenous sequences in the Beshkent Trough (using the Chunagar deposit as an example)	237
Gayratova Malika Zokirovna. Selection of the optimal acoustic logging restoration method for the Bukhara–Khiva region by comparing real and synthetic curves	243
Niyozov Dalir Botir ugli, Ikromov O'tkir Olimovich. Petrographic characteristics of the andesites and tuffs of the Khojabarku–Malyangur paleovolcano	250

CHEMICAL TECHNOLOGY AND CONSTRUCTION

Husenov Abdurasul Uktamovich, Xadjibayev Diyor Asadullayevich, Sabirov Baxtiyor Toxtayevich. Selection and evaluation of promising bentonite deposits for the production of sorption materials used in industrial wastewater treatment	256
Husenov Abdurasul Uktamovich, Xadjibayev Diyor Asadullayevich, Sabirov Baxtiyor Toxtayevich. Investigation of hydrochloric acid modification of Navbahor bentonite clay and its physicochemical properties	262
Shodiev Asliddin Fakhridin ugli, Muhiddinov Bahodir Fakhridinovich, Jurayev Shokhruh Tulkinovich, Shokirov Ravshan Kahramonovich. Comparative thermogravimetric analysis of virgin, waste, recycled, and plasticized polyurethane samples	268
Shodiev Asliddin Fakhridin ugli, Muhiddinov Bahodir Fakhridinovich, Jurayev Shokhruh Tulkinovich, Shokirov Ravshan Kahramonovich. Viscosity properties and macromolecular characteristics of polyurethanes based on 4,4'-methylenediphenyl diisocyanate studied by the viscometric method	277
Tursunboyev Alisher Kurbonmurod ugli, Ochilov Abdurakhim Abdurasulovich, Makhmudov Rafik Amonovich. Prospects for the synthesis of cellulose nanocrystals based on local raw materials and the creation of high-performance adhesive composites based on them	283

Tursunboyev Alisher Kurbonmurod ugli, Ochilov Abdurakhim Abdurasulovich, Makhmudov Rafik Amonovich. Investigation of the chemical reaction between cellulose nanocrystals and functional acrylic monomers, and study of their physicochemical properties 290

Urishev Boboraim, Quvatov Ulugbek Jalolovich, Ochilov Obid Boymurod ugli, Qulmatov Sanjar Xolmumin ugli. Assessing micro hydropower generation in irrigation canals based on hydrological statistics and an optimization model . 297

LIGHT INDUSTRIES

Akhmedov Khamidulla, Khaydarova Marjona. Studies on increasing the hardness of the working surface of the replaceable element of a fiber separator grid bar by ultrasonic treatment 303

Khamzaev Dilshod Inomdjonovich. Real-time measurement of cotton moisture based on changes in the dielectric properties of the fiber 310

ECOLOGY, LABOR PROTECTION AND TECHNICAL SAFETY

Madarova Surayyo Uralovna. Production of bioethanol from indigenous Artemisia biomass 318

Davronbekov Dilmurod Abdujalilovich, Pisetskiy Yuriy Valerevich. Wavelet-threshold tuning with a constraint on hazardous-emission gas detection-probability loss 323

Gaimnazarov Israil Kholikovich, Toshmurodov Jomurod Jahongir ugli. Improvement of methods for calculating sediment discharge in alluvial channels 330

KON-METALLURGIYA VA ISHLAB CHIQRISH SANOATI
ГОРНОДОБЫВАЮЩАЯ МЕТАЛЛУРГИЯ И ОБРАБАТЫВАЮЩАЯ
ПРОМЫШЛЕННОСТЬ
MINING METALLURGY AND MANUFACTURING INDUSTRY

UO'K: 669.5/.6

 10.70769/3030-3214.SRT.4.3.2026.2

© 2026 Authors. Licensed under CC BY 4.0

<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

GLITSINLI ERITMALARDA OLTINNING ERISH KINETIKASI VA
TEKNOLOGIK PARAMETRLARINI TADQIQ QILISH



**Rahmonova Umida
Toshpo'latovna**

Qarshi davlat texnika universiteti,
Mustaqil izlanuvchi, Qarshi,
O'zbekiston
Email:
Raxmanova4302@gmail.com
ORCID ID: 0009-0000-8279-0138
Science ID: MUZ-0426-0028



**Xasanov Abdurashid
Soliyevich**

Texnika fanlari doktori, professor,
"Olmaliq kon-metallurgiya
kombinati" AJ Innovatsion
texnologiyalarni rivojlantirish va
joriy etish markazi texnologiya
bo'yicha direktor o'rinbosari,
Olmaliq, O'zbekiston
E-mail: a.xasanov@srt-journal.uz
ORCID ID: 0009-0004-9162-7622
Science ID: DTV-1225-0005



**Saidaxmedov Aktam
Abdisamiyevich**

Navoiy davlat konchilik va
texnologiyalar universiteti, t.f.d.,
dotsent, Navoiy, O'zbekiston
E-mail: aktam.saidaxmedov@bk.ru
ORCID ID: 0000-0002-0482-3413
Science ID: DSN-1225-0001

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda Marjonbuloq koni boyitish chiqindilaridan oltinni glitsin yordamida ajratib olish jarayoni o'rganilgan. Tadqiqotda glitsin konsentratsiyasi, bo'tana tarkibidagi qattiq zarralar miqdori, Cu^{2+} ionlarining katalitik ta'siri hamda marganes oksidi ishtirokida dastlabki oksidlash jarayonining oltinni erish samaradorligiga ta'siri baholangan. Tajribalar natijasida nisbatan suyuq bo'tanada va dastlabki oksidlash sharoitida oltinni erish darajasi yuqori bo'lishi aniqlangan. Olingan natijalar glitsinli tanlab eritishning ekologik xavfsiz va istiqbolli texnologiya ekanligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: oltin, glitsin, tanlab eritish, boyitish chiqindilari, marganes oksidi, mis ionlari, oksidlash, gidrometallurgiya.

Received: 02.07.2026

Accepted: 21.07.2026

Issue publication: 28.09.2026

ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ РЕАГЕНТОВ ЦИАНИДА НАТРИЯ И
ЗОЛОТОЙ СЕКИ НА ИЗВЛЕЧЕНИЕ РЕДКИХ МЕТАЛЛОВ ИЗ РУДЫ

**Рахмонова Умида
Тошпулатовна**

Самостоятельный соискатель
Кариинского государственного
технического университета,
Кариин, Узбекистан

**Хасанов Абдурашид
Солиевич**

Доктор технических наук,
профессор, заместитель
директора по технологиям
Центра развития и внедрения
инновационных технологий АО
«Алмалыкский горно-
металлургический комбинат»,
Алмалык, Узбекистан

**Саидахмедов Актам
Абдисамиевич**

Доктор философии (PhD) по
техническим наукам, доцент,
Навоийский государственный
университет горного дела и
технологий, Навои, Узбекистан

Аннотация. В данном исследовании изучен процесс извлечения золота из хвостов обогащения месторождения Марджанбулак с использованием глицина. В ходе исследования была оценена эффективность выщелачивания золота в зависимости от концентрации глицина, содержания твёрдых частиц в пульпе, каталитического влияния ионов Cu^{2+} , а также предварительного окисления в присутствии оксида марганца. Эксперименты показали, что степень извлечения золота повышается в относительно разбавленной пульпе и при условии предварительного окисления. Полученные результаты свидетельствуют о том, что глициновое выщелачивание является экологически безопасной и перспективной технологией.

Ключевые слова: золото, глицин, селективное выщелачивание, хвосты обогащения, оксид марганца, ионы меди, окисление, гидрометаллургия.

A STUDY ON THE EFFECT OF SODIUM CYANIDE AND GOLD CICADA REAGENTS ON THE EXTRACTION OF PRECIOUS METALS FROM ORE

**Rahmonova Umida
Toshpulatovna**

Independent Researcher, Karshi
State Technical University, Karshi,
Uzbekistan

**Khasanov Abdurashid
Solievich**

Doctor of Technical Sciences,
Professor, Deputy Director for
Technology, Center for the
Development and Implementation of
Innovative Technologies, JSC
"Almalyk Mining and Metallurgical
Combine", Almalyk, Uzbekistan

**Saidakhmedov Aktam
Abdisamievich**

PhD in Technical Sciences,
Associate Professor, Navoi State
University of Mining and
Technologies, Navoi, Uzbekistan

Abstract. This study investigates the process of extracting gold from the enrichment tailings of the Marjonbuloq deposit using glycine. The research evaluated the effects of glycine concentration, the solid particle content in the pulp, the catalytic effect of Cu^{2+} ions, and a preliminary oxidation process in the presence of manganese oxide on the efficiency of gold dissolution. The experiments revealed that a higher degree of gold dissolution is achieved in a relatively dilute pulp and under preliminary oxidation conditions. The results obtained demonstrate that glycine leaching is an environmentally safe and promising technology.

Keywords: gold, glycine, selective leaching, beneficiation tailings, manganese oxide, copper ions, oxidation, hydrometallurgy.

Kirish. Oltinni ruda va texnogen chiqindilardan ajratib olishda gidrometallurgik usullar muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi vaqtda eng keng qo'llaniladigan texnologiyalardan biri natriy sianidi NaCN ishtirokidagi sianlash jarayoni hisoblanadi. Ushbu usul yuqori samaradorlikka ega bo'lsa-da, sianid birikmalarining yuqori zaharliliigi atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadi hamda texnologik xavfsizlik bilan bog'liq qator muammolarni keltirib chiqaradi. Shu sababli

keyingi yillarda ekologik jihatdan xavfsiz va selektiv reagentlar asosida oltinni ajratib olish texnologiyalarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Glitsin $\text{NH}_2\text{CH}_2\text{COOH}$ ishtirokidagi tanlab eritish jarayoni oltinni ajratib olishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Glitsin ishqoriy muhitda oltin bilan barqaror kompleks birikmalar hosil qilib, uni eritmaga o'tkazish xususiyatiga ega. Biroq glitsinli tizimlarda oltinning

erish tezligi sianlash jarayoniga nisbatan pastroq bo'lganligi sababli, jarayonni jadallashtirish maqsadida turli oksidlovchilardan foydalanish taklif etilgan. Ayniqsa, marganes oksidi va vodorod peroksidi ishtirokida oltinning eritmaga o'tish darajasi sezilarli ortishi aniqlangan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Cu^{2+} ionlari glitsinli muhitda katalitik faollikni oshirib, oltinning eritmaga o'tish tezligini jadallashtiradi. Bundan tashqari, bo'tana tarkibidagi qattiq zarrachalar miqdori ham jarayon samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Qattiq faza miqdori ortishi bilan eritmaning qovushqoqligi oshib, reagentlarning mineral yuzasiga ta'siri cheklanadi va natijada oltinning erish darajasi pasayadi.

Mazkur tadqiqotda Marjonbuloq koni boyitish chiqindilaridan oltinni glitsin asosida tanlab eritish jarayoni o'rganildi. Tadqiqotda glitsin konsentratsiyasi, Cu^{2+} ionlarining katalitik ta'siri, bo'tanadagi qattiq zarrachalar miqdori hamda marganes oksidi yordamida dastlabki oksidlashning oltinning eritmaga o'tish darajasiga ta'siri baholandi. Olingan natijalar ekologik xavfsiz glitsinli eritish texnologiyasining oltin saqlovchi texnogen chiqindilarni qayta ishlashdagi istiqbolli yo'nalishlardan biri ekanligini ko'rsatdi.

Adabiyotlar tahlili. Oltinni gidrometallurgik usulda ajratib olish texnologiyalari uzoq yillar davomida ilmiy tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib kelmoqda. An'anaviy sianlash usuli yuqori texnologik samaradorlikka ega bo'lsa-da, natriy sianidning yuqori toksikligi ekologik xavfsizlik bilan bog'liq muammolarni yuzaga keltiradi. Shu sababli keyingi yillarda ekologik xavfsiz reagentlardan foydalanishga asoslangan muqobil texnologiyalarni ishlab chiqish dolzarb masalalardan biriga aylangan.

Q.S. Sanaqulov va A.S. Xasanovlarning tadqiqotlarida konchilik chiqindilarini qayta ishlashda ekologik xavfsiz texnologiyalarni qo'llash zarurligi asoslab berilgan. Mualliflar texnogen chiqindilar tarkibidagi qimmatbaho komponentlarni qayta tiklashda gidrometallurgik usullarni qo'llash ekologik va iqtisodiy jihatdan samarali ekanligini ta'kidlaganlar. Ayniqsa, toksik reagentlarni kam zaharli moddalar bilan almashtirish istiqbolli yo'nalish sifatida ko'rsatib o'tilgan.

A.A. Mo'minov va X.Z. Yusupov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda oltin saqlovchi rudalarni

gidrometallurgik qayta ishlash texnologiyalari tahlil qilingan. Tadqiqotchilar sianlash jarayonining asosiy afzalliklari bilan bir qatorda uning ekologik kamchiliklarini ham ko'rsatib berganlar. Mualliflarning fikricha, alternativ erituvchilarni qo'llash oltin ajratib olish jarayonida ekologik xavfsizlikni oshirish bilan birga texnologik samaradorlikni ham yaxshilashi mumkin.

E.A. Oraby va J.J. Eksteen glitsin asosidagi eritish jarayonlarini tadqiq qilib, glitsin konsentratsiyasi va ishqoriy muhitning oltinning eritmaga o'tish darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini aniqlaganlar. Ularning tadqiqotlarida glitsin oltin bilan barqaror kompleks hosil qilishi va past toksikligi sababli ekologik xavfsiz reagent sifatida baholangan. Shu bilan birga, glitsinli tizimlarda eritish tezligi sianlash jarayoniga nisbatan sekinroq kechishi qayd etilgan.

E.A. Oraby hamda hammualliflari tomonidan olib borilgan keyingi tadqiqotlarda glitsinli eritish tizimida marganes oksididan oksidlovchi reagent sifatida foydalanish samaradorligi o'rganilgan. Mualliflar marganes oksidi ishtirokida oltinning eritmaga o'tish darajasi sezilarli oshishini aniqlaganlar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, MnO_4^{2-} ionlari oltin yuzasining oksidlanishini jadallashtirib, glitsin bilan kompleks hosil bo'lish jarayonini faollashtiradi.

M.G. Aylmore o'z ilmiy ishlarida sianidga alternativ erituvchilarni tahlil qilib, glitsinli eritish texnologiyasining istiqbolli jihatlarini ko'rsatib bergan. Tadqiqotlarda glitsinning ekologik xavfsizligi, reagent sarfining nisbatan pastligi va texnogen chiqindilarni qayta ishlashdagi samaradorligi alohida qayd etilgan. Shu bilan birga, muallif glitsinli eritish jarayonida oksidlovchi reagentlar va katalitik ionlardan foydalanish jarayon tezligini oshirishda muhim omil ekanligini ta'kidlagan.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, glitsin asosidagi tanlab eritish texnologiyasi oltin saqlovchi rudalar va boyitish chiqindilarini qayta ishlashda ekologik xavfsiz hamda istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, jarayon samaradorligini oshirish uchun oksidlovchilar, katalitik ionlar va optimal texnologik parametrlarni tanlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ishida Marjonbuloq koni boyitish fabrikasi chiqindilaridan

oltinni glitsin asosida tanlab eritish jarayonining texnologik parametrlari o'rganildi. Tajriba ishlari laboratoriya sharoitida amalga oshirilib, dastlabki namunalarning fizik-kimyoviy tarkibi tahlil qilindi. Olingan namunalar halqa va konus usulida aralashtirilib qisqartirildi hamda massasi 400 g bo'lgan alohida namunalarga ajratildi. Chiqindi saqlash omboridan olingan namunalar xalqa va konus usulida aralashtirilib, qisqartirildi va tanlab eritish jarayoni o'tkazish uchun massasi 400 grammdan bo'lgan 10 ta namunaga ajratildi (1-rasm).

Tadqiqotlarda analitik darajadagi reagentlar va distillangan suv asosida tayyorlangan eritmalaridan foydalanildi. Asosiy reagent sifatida glitsin $\text{NH}_2\text{CH}_2\text{COOH}$, katalitik qo'shimcha sifatida mis sulfat pentagidrat $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$, muhit pH qiymatini boshqarish uchun natriy gidroksid NaOH hamda oksidlovchi reagent sifatida marganes oksidi qo'llanildi.



1-rasm. Boyitish chiqindilari namunalarini tayyorlash va qismlarga ajratish sxemasi.

Dastlab chiqindining tanlab eritish xususiyatlarini aniqlash maqsadida sianlash sinovlari o'tkazildi. Tajribalar 2 kg/t NaCN sarfi, $\text{pH}=11$, bo'tanadagi qattiq faza miqdori 50% va xona harorati sharoitida olib borildi. Keyingi bosqichda glitsin asosidagi tanlab eritish jarayonlari tadqiq qilindi. Bunda glitsin konsentratsiyasi 0,5–2,5 M oralig'ida, Cu^{2+} ionlari miqdori 0–2 g/l hamda bo'tanadagi qattiq zarrachalar miqdori 50–200 g/l diapazonda o'zgartirildi. Tajribalar davomiyligi 24 soat etib belgilandi. Tajribalar analitik darajadagi reagentlar va distillangan suv asosida tayyorlangan eritmalar yordamida amalga oshirildi. Tadqiqotda qo'llanilgan asosiy kimyoviy reagentlar hamda ularning tozalik darajalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Tadqiqotda foydalanilgan kimyoviy reagentlar ro'yxati


Reagent	Tozalik darajasi%
Glitsin	97%
Mis (II) sulfat pentagidrat	98%
Natriy gidroksid	97%
Marganes oksidi	99%

Oltinning eritmaga o'tish darajasini oshirish maqsadida dastlabki oksidlash jarayonlari ham o'rganildi. Ushbu bosqichda marganes oksidi kuchli oksidlovchi reagent sifatida qo'llanilib, uning konsentratsiyasi 0–2 g/l oralig'ida tanlandi. Jarayon davomida pH qiymati 10,5 atrofida ushlab turildi.

Tajriba natijalarini baholashda oltinning eritmaga ajralish darajasi, reagentlar sarfi va texnologik parametrlarning jarayon samaradorligiga ta'siri aniqlandi. Olingan ma'lumotlar asosida glitsinli eritish jarayonining optimal sharoitlari baholandi hamda texnologik samaradorlik tahlil qilindi.

Natijalar va ularning muhokamasi.

Tadqiqot natijalari Marjonbuloq koni boyitish chiqindilaridan oltinni glitsin asosida tanlab eritish jarayonining samaradorligi texnologik parametrlar bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatdi. Tajribalar davomida bo'tanadagi qattiq zarrachalar miqdori, glitsin konsentratsiyasi, Cu^{2+} ionlari miqdori hamda marganes oksidi ishtirokidagi dastlabki oksidlash jarayonining oltinning eritmaga o'tish darajasiga ta'siri baholandi.




2-rasm. Bo'tanadagi qattiq zarrachalar miqdorining oltinning eritmaga o'tish darajasiga ta'siri.

Dastlab bo'tanadagi qattiq zarrachalar miqdorining jarayon samaradorligiga ta'siri o'rganildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, qattiq faza miqdori oshishi bilan oltinning eritmaga o'tish darajasi kamayishi kuzatildi. Eng yuqori natija 50


g/l qattiq faza miqdorida qayd etilib, bunda oltinning eritmaga ajralish darajasi 87,6 % ni tashkil etdi. Qattiq faza miqdorining ortishi eritmaning qovushqoqligini oshirib, reagentlarning mineral yuzasiga ta'sirini cheklashi bilan izohlanadi.

Keyingi bosqichda glitsin konsentratsiyasining jarayon samaradorligiga ta'siri tadqiq qilindi. Natijalar glitsin konsentratsiyasi oshishi bilan oltinning eritmaga o'tish darajasi ham ortishini ko'rsatdi. Ayniqsa, 1,5–2,0 M oralig'ida eritish samaradorligi keskin oshganligi kuzatildi. Biroq konsentratsiyaning keyingi ortishi sezilarli natija bermadi. Bu holat eritmada yetarli miqdorda kompleks hosil qiluvchi reagent mavjud bo'lgandan keyin jarayon kinetikasi boshqa omillar bilan cheklanishi bilan izohlanadi.



3-rasm. Glitsin konsentratsiyasining oltinning eritmaga o'tish darajasiga ta'siri.

Cu^{2+} ionlarining katalitik ta'sirini baholash maqsadida olib borilgan tajribalarda mis ionlari miqdori oshishi bilan oltinning eritmaga ajralish darajasi ham ortgani aniqlandi. Eng yuqori natijalar 1,5–2,0 g/l oralig'ida kuzatildi va oltinning eritmaga o'tish darajasi 90,3% gacha yetdi. Cu^{2+} ionlari oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarini jadallashtirib, oltinning glitsin bilan kompleks hosil qilish jarayonini tezlashtirgani aniqlandi.




4-rasm. Cu^{2+} ionlari miqdorining oltinning eritmaga o'tish darajasiga ta'siri.

Marganes oksidi ishtirokidagi dastlabki

oksidlash jarayonlari ham oltinni eritishga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Tajriba natijalariga ko'ra, MnO_4 miqdori ortishi bilan oltinning eritmaga ajralish darajasi oshib borgan va 2 g/l da eng yuqori natija kuzatilgan. Bu marganes oksidining mineral yuzasini faollashtirishi hamda oltinning oksidlanish jarayonini jadallashtirishi bilan bog'liq.

Olingan natijalar glitsin asosidagi tanlab eritish texnologiyasi oltin saqllovchi texnogen chiqindilarni qayta ishlashda istiqbolli yo'nalish ekanligini ko'rsatdi. Jarayon uchun optimal sharoit sifatida glitsin konsentratsiyasi 1,5–2,0 M, Cu^{2+} ionlari miqdori 1,5–2,0 g/l hamda bo'tanadagi qattiq faza miqdori 50 g/l deb baholandi. Marganes oksidi yordamida dastlabki oksidlash esa oltinning eritmaga o'tish darajasini oshirishda samarali omil sifatida aniqlandi.



5-rasm. Marganes oksidi miqdorining oltinning eritmaga o'tish darajasiga ta'siri.

Xulosa. Tadqiqot natijalari Marjonbuloq koni boyitish chiqindilaridan oltinni glitsin asosida tanlab eritish texnologiyasi samarali va ekologik xavfsiz usul ekanligini ko'rsatdi. Tajribalar davomida glitsin konsentratsiyasi, Cu^{2+} ionlari miqdori, bo'tanadagi qattiq zarrachalar konsentratsiyasi hamda marganes oksidi yordamidagi dastlabki oksidlash jarayonining oltinning eritmaga o'tish darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Ayniqsa, glitsin konsentratsiyasi 1,5–2,0 M, Cu^{2+} ionlari miqdori 1,5–2,0 g/l va qattiq faza miqdori 50 g/l bo'lgan sharoitlarda yuqori texnologik samaradorlik kuzatildi.

Tadqiqotlar natijasida optimal sharoitlarda oltinning eritmaga o'tish darajasi 90,3 % gacha yetishi aniqlandi. Marganes oksidi yordamidagi dastlabki oksidlash oltinning erish jarayonini jadallashtirib, glitsinli tizimning samaradorligini oshirishi tasdiqlandi. Olingan natijalar glitsin asosidagi tanlab eritish texnologiyasi oltin saqllovchi

texnogen chiqindilarni qayta ishlashda sianlash | muqobil texnologiya ekanligini ko'rsatdi.
usuliga nisbatan ekologik xavfsiz va istiqbolli

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1] Sanaqulov Q.S., Xasanov A.S. Konchilik chiqindilarini qayta ishlashda ekologik xavfsiz texnologiyalar. // O'zbekiston konchilik jurnali, 2020, №2, 33–41-betlar.
- [2] Mo'minov A.A., Yusupov X.Z. Oltin saqllovchi rudalarni gidrometallurgik qayta ishlash texnologiyalari. – Toshkent: Fan, 2019. – 145–152-betlar.
- [3] Oraby, E.A., Eksteen, J.J. The effect of glycine concentration and alkaline conditions on gold leaching. Minerals Engineering, 2015, Vol. 70, pp. 188–195.
- [4] Oraby, E.A., et al. Enhanced gold extraction from oxide ores using potassium permanganate in glycine leaching systems. Hydrometallurgy, 2020, Vol. 193, pp. 105–114.
- [5] Aylmore, M.G. Alternative lixiviants to cyanide for leaching gold ores. Minerals Engineering, 2016, Vol. 87, pp. 1–13.
- [6] Botirovich, X. J. N., Mamarasulovich, R. Z. U. B., & Odilo'G'Li, I. B. (2025). "NKMK" AJ "AUMINZO-AMANTOY" KONI OLTIN AJRATISH SEXI TEXNOGEN CHIQINDILARINI TADQIQ QILISH. Sanoatda raqamli texnologiyalar/Цифровые технологии в промышленности, 3(4), 124-128.
- [7] Qayumov, O., Ro'ziyev, U. B., & Abdullayev, F. (2026). METALLURGIK TEXNOGEN CHIQINDILARDAN KAMYOB METALLARNI AJRATIB OLIISH TEXNOLOGIYASI. MUHANDISLIK VA IQTISODIYOT, 4(1).

Maqolaga iqtibos keltirish | Как цитировать статью | How to cite this article

Rahmonova, U. T., Xasanov, A. S., & Saidaxmedov, A. A. (2026). Glitsinli eritmalarida oltinning erish kinetikasi va texnologik parametrlarini tadqiq qilish. Sanoatda raqamli texnologiyalar, 4(3). <https://doi.org/10.70769/3030-3214.SRT.4.3.2026.2>

UO‘K: 669.187.4

doi 10.70769/3030-3214.SRT.4.3.2026.1

© 2026 Authors. Licensed under CC BY 4.0

<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

RUX SAQLOVCHI YOYLI PO‘LAT ERITISH PECHI CHANGINING TAVSIFI VA QAYTA ISHLASH IMKONIYATLARI TAHLILI



**Jalolov Baxtiyorjon
Adxamjon o'g'li**

Doktorant, Olmaliq davlat texnika
institut, Olmaliq, O'zbekiston
E-mail:

jalolovbaxtiyorjon319@gmail.com

ORCID ID: 0009-0004-3736-3056

Science ID: MTV-0525-0016



**Mirzavaliyev Doston
Boxodirovich**

Xalqaro hamkorlik bo'limi
boshlig'i, t.f.f.d. (PhD), Olmaliq
davlat texnika instituti, Olmaliq,
O'zbekiston

E-mail: 5515414d@gmail.com

ORCID ID: 0009-0006-1612-7083

Science ID: MTV-0625-0020



**Qarshiyev Humoyun
Komilovich**

Katta o'qituvchi, Olmaliq davlat
texnika instituti, Olmaliq,
O'zbekiston

E-mail: qarshiyev0409@gmail.com

ORCID ID: 0009-0003-6457-8266

Science ID: MSN-0525-0036



**Kamalova Iroda
Mamasaid qizi**

Magistrant, Olmaliq davlat texnika
institut, Olmaliq, O'zbekiston
E-mail:

irodaashirmatova14@gmail.com

ORCID ID: 0009-0008-0245-3827

Science ID: MTV-1225-0072

Annotatsiya. Mazkur maqolada metallolom asosida po‘lat ishlab chiqarish jarayonida hosil bo‘ladigan yoyli po‘lat eritish pechi changining (YPEP) fizik-kimyoviy xususiyatlari hamda undan ruxni qayta tiklash imkoniyatlari o‘rganilgan. Tadqiqot obyekti sifatida “LI DA METAL TECHNOLOGY” MCHJ korxonasidan olingan chang namunalari tanlangan. Namunalarning kimyoviy tarkibi va morfologik xususiyatlari rentgen-fluorescent tahlil (XRF), energiya-dispersiv rentgen spektroskopiyasi (EDS/SEM) hamda lazerli zarracha o‘lchamini aniqlash usullari yordamida baholandi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, chang tarkibida temir oksidi va rux oksidi asosiy komponentlar bo‘lib, mos ravishda 40,7% va 15,2% ni tashkil etishi aniqlandi. Shuningdek, natriy, kalsiy, kremniy, kaliy, oltingugurt, marganets va qo‘rg‘oshin oksidlari ham sezilarli miqdorda mavjudligi qayd etildi. EDS tahlili temir, rux va kislorod elementlarining ustunligini tasdiqladi, zarrachalar o‘lchami tahlili esa changning mayda dispers tuzilishga ega ekanligini ($D_{50}=11,455 \mu\text{m}$, $D_{90}=34,573 \mu\text{m}$) ko‘rsatdi. Tarkibdagi rux miqdorining yuqoriligi ushbu chiqindini qimmatli ikkilamchi xomashyo sifatida qayta ishlash imkoniyatini ko‘rsatadi. Natijalar asosida ruxni ajratib olish uchun Vels pechi asosidagi pirometallurgik hamda sulfat kislotali eritish asosidagi gidrometallurgik texnologiyalar istiqbolli yo‘nalishlar sifatida tavsiya etildi. Olingan natijalar metallurgiya sanoatida xavfli chiqindilarni samarali boshqarish, qimmatli metallarni qayta tiklash va aylanma iqtisodiyot tamoyillarini rivojlantirish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: yoyli po‘lat eritish pechi changi, YPEP, rux oksidi, temir oksidi, XRF tahlili, EDS/SEM, zarracha o‘lchami, gidrometallurgik qayta ishlash, pirometallurgik qayta ishlash, Vels pechi, ikkilamchi resurslar, xavfli chiqindilar, aylanma iqtisodiyot.

Received: 01.07.2026

Accepted: 07.07.2026

Issue publication: 28.09.2026

ХАРАКТЕРИСТИКА И АНАЛИЗ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ПЕРЕРАБОТКИ ЦИНКСОДЕРЖАЩЕЙ ПЫЛИ ДУГОВОЙ СТАЛЕПЛАВИЛЬНОЙ ПЕЧИ

**Жалолов
Бахтиёржон
Адхамжон угли**

Докторант, Алмалыкский
государственный технический
институт, Алмалык, Узбекистан

**Мирзалиев Достон
Бахадырович**

PhD, начальник отдела
международного
сотрудничества Алмалыкского
государственного технического
института, Алмалык,
Узбекистан

**Каршиев Хумоюн
Комилович**

Старший преподаватель,
Алмалыкский государственный
технический институт,
Алмалык, Узбекистан

**Камалова Ирода
Мамасаид кизи**

Магистрант, Алмалыкский
государственный технический
институт, Алмалык, Узбекистан

Аннотация. В статье представлены результаты исследования физико-химических свойств пыли электродуговой сталеплавильной печи (ПЭДСП), образующейся при производстве стали из металлического лома, а также оценена возможность извлечения из нее цинка. Объектом исследования служили образцы пыли, полученные на предприятии ООО «LI DA METAL TECHNOLOGY». Химический состав, морфология и гранулометрические характеристики образцов исследованы методами рентгенофлуоресцентного анализа (XRF), энергодисперсионной рентгеновской спектроскопии (EDS/SEM) и лазерной дифракции частиц. По результатам XRF установлено, что основными компонентами пыли являются оксид железа (40,7 %) и оксид цинка (15,2 %), а также оксиды натрия, кальция, кремния, калия, серы, марганца и свинца. Анализ EDS подтвердил преобладание в составе железа, цинка и кислорода, а исследование распределения размеров частиц показало мелкодисперсную структуру материала со значениями $D_{50} = 11,455$ мкм и $D_{90} = 34,573$ мкм. Высокое содержание цинка свидетельствует о значительном потенциале использования данной пыли в качестве вторичного сырья. В качестве наиболее перспективных направлений переработки рассмотрены пирометаллургическая технология с применением процесса Вельца и гидрометаллургическое выщелачивание серной кислотой. Полученные результаты могут служить научной основой для рационального управления опасными металлургическими отходами, извлечения ценных компонентов и развития принципов циркулярной экономики.

Ключевые слова: пыль электродуговой сталеплавильной печи, ПЭДСП, оксид цинка, оксид железа, рентгенофлуоресцентный анализ, EDS/SEM, гранулометрический состав, гидрометаллургическая переработка, пирометаллургическая переработка, процесс Вельца, вторичные ресурсы, опасные отходы, циркулярная экономика.

CHARACTERISTICS AND ANALYSIS OF PROCESSING OPTIONS FOR ZINC-BEARING DUST FROM ELECTRIC ARC FURNACES

**Jalolov Bakhtiyorjon
Adkhamjon ugli**

Doctoral Student, Almalik State
Technical Institute, Almalik,
Uzbekistan

**Mirzavaliyev Doston
Bokhodirovich**

PhD, Head of the International
Cooperation Department, Almalik
State Technical Institute, Almalik,
Uzbekistan

**Karshiyev Khumoyun
Komilovich**

Senior Lecturer, Almalik State
Technical Institute, Almalik,
Uzbekistan

**Kamalova Iroda
Mamasaid kizi**

Master's Student, Almalik State
Technical Institute, Almalik,
Uzbekistan

Abstract. This paper presents the results of a comprehensive investigation into the physicochemical properties of electric arc furnace dust (EAFD), generated during steel production from scrap metal, with particular emphasis on its potential for zinc recovery. Dust samples collected from LI DA METAL TECHNOLOGY LLC were selected as the research material. The chemical composition, morphology, and particle size distribution of the samples were characterized using X-ray fluorescence (XRF), energy-dispersive X-ray spectroscopy coupled with scanning electron microscopy (EDS/SEM), and laser diffraction particle size analysis. XRF analysis revealed that the dust mainly consists of iron oxide (40.7 wt.%) and zinc oxide (15.2 wt.%), together with sodium, calcium, silicon, potassium, sulfur, manganese, and lead oxides. EDS results confirmed the predominance of iron, zinc, and oxygen, while particle size analysis indicated a fine-grained material with median and 90th percentile particle diameters of

D50=11.455 μm and D90=34.573 μm , respectively. The elevated zinc content demonstrates the significant potential of EAFD as a valuable secondary raw material for resource recovery. Among the most promising recycling technologies are pyrometallurgical processing using the Waelz process and hydrometallurgical sulfuric acid leaching. The obtained results provide a scientific basis for the sustainable management of hazardous metallurgical waste, recovery of valuable metals, and implementation of circular economy principles in the steel industry.

Keywords: electric arc furnace dust (EAFD), zinc recovery, iron oxide, X-ray fluorescence (XRF), EDS/SEM characterization, particle size distribution, hydrometallurgical processing, pyrometallurgical processing, Waelz process, secondary resources, hazardous waste, circular economy.

Kirish. Jahon po'lat sanoati muhim tarkibiy o'zgarishlar davrini boshdan kechirmoqda: yoyli po'lat eritish pech (YPEP) texnologiyasi qayta ishlangan metallom bilan mosligi va domna pechlariga nisbatan karbonat angidrid (CO_2) gazining pastligi tufayli jadal kengayib bormoqda. 2024-yilda dunyo bo'yicha YPEP asosida po'lat ishlab chiqarish 548,4 million tonnani tashkil etdi. Bu umumiy hajmi 1,885 milliard tonna bo'lgan jahon xom po'lati ishlab chiqarishining 29,1 foizidir (2023-yilda bu ko'rsatkich 28,6 foiz edi). Amerika Qo'shma Shtatlari kabi yirik po'lat ishlab chiqaruvchi mamlakatlarda umumiy po'lat ishlab chiqarishning 71,8 foizi, Yevropa Ittifoqida esa 44,4 foizi elektr yoyli pechlar hissasiga to'g'ri keladi [1].

Yoyli po'lat eritish pechi changlari (YPEP) gaz tozalash filtrlash tizimlari yordamida ushlab qolinadi. Bir tonna xomaki po'lat ishlab chiqarishda taxminan 10-20 kg chang hosil bo'ladi. Dunyo bo'yicha YPEP usulida po'lat eritish hajmini hisobga olsak, har yili hosil bo'ladigan YPEP chang miqdori kamida 5-10 million tonnani tashkil etadi va bu ko'rsatkich 2050-yilga kelib yiliga 18 million tonnagacha oshishi taxmin qilinmoqda. Shunga muvofiq, 2024-yilda taxminan 1,98 milliard AQSh dollariga baholangan YPEP changini qayta ishlash global bozorining yillik o'rtacha 4,3% o'sish sur'ati bilan 2034-yilga borib 3,11 milliard AQSh dollariga yetishi kutilmoqda [3, 4, 5, 6].

YPEP changi tarkibida eruvchan shakldagi zaharli va ekotoksik og'ir metallar - xususan, qo'rg'oshin (Pb), kadmiy (Cd), xrom (Cr) va rux (Zn) mavjudligi sababli ko'plab hujjatlarda xavfli chiqindi sifatida tasniflanadi. Amerika Qo'shma Shtatlari Atrof-muhitni muhofaza qilish agentligi (EPA) tizimida YPEP changi K061 belgisi bilan yuritilsa, Yevropa chiqindilar to'g'risidagi qonunchiligida po'lat ishlab chiqarishning xavfli qoldiqlari uchun mo'ljallangan kodlar ostida

tasniflanadi. Asosan rux ferriti (ZnFe_2O_4 , franklinit), magnetit (Fe_3O_4), sinkit (ZnO) hamda turli xloridlar va sulfatlardan iborat changning murakkab mineralogiyasi an'anaviy utilizatsiya usullarini ekologik jihatdan nomaqbul va iqtisodiy tomondan samarasiz qilib qo'yadi [2, 7, 8, 9].

Yoyli po'lat eritish pechi changi xavfli chiqindi maqomiga ega bo'lishiga qaramay, uning metallarga boy tarkibi - xususan, odatiy tarkiblarda 10-35% rux, 18-40% temir, 1-6% qo'rg'oshin va 3-4% kalsiy mavjudligi - uni qimmatbaho ikkilamchi xomashyoga aylantiradi. Hozirda dunyo bo'ylab hosil bo'ladigan YPEP changining taxminan 45 foizigina qayta ishlanadi, bu esa qayta tiklash salohiyati va amaldagi holat o'rtasida jiddiy tafovut borligini ko'rsatadi. Bu tafovut, ayniqsa, me'yoriy-huquqiy baza va qayta ishlash infratuzilmasi unchalik rivojlanmagan sanoatlashayotgan mintaqalarda yaqqol ko'zga tashlanadi [4, 10].

Ushbu tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: (1) XRF, EDS/SEM va lazer zarrachalar o'lchami tahlili yordamida sanoat manbalaridan olingan YPEP changi namunasining ko'p usulli fizik-kimyoviy tavsifini o'tkazish; (2) ruxni ajratib olish uchun muhim bo'lgan asosiy mineralogik va elementar xususiyatlarni aniqlash; va (3) resurslarni barqaror ajratib olishni ko'zlab, ushbu aniq chang tarkibini qayta ishlash uchun mavjud qayta ishlash texnologiyalarining - birinchi navbatda Vels pirometallurgik jarayoni va sulfat kislotali gidrometallurgik tanlab eritishning - yaroqliligini tanqidiy baholash.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. YPEP changining kimyoviy va mineralogik tarkibi. YPEP changi tarkibi metallolom (chiqindi) yuklamasi, pechning ishlash rejimi va ishlab chiqarilayotgan qotishmalar turiga qarab sezilarli darajada o'zgarib turadi. Shunga qaramay, ko'plab tadqiqotlar natijalarida asosiy metall komponentlar

sifatida temir va ruxning birgalikdagi ustunligi qayd etilgan. Uglerodli po'lat ishlab chiqarishdan olingan odatiy YPEP chang tarkibida 18-40% temir, 10-35% rux, 1-6% qo'rg'oshin, 3-4% kalsiy, 0,4-0,5% alyuminiy, 0,02-0,9% kadmiy hamda oz miqdorda margimush, xrom va nikel mavjud bo'ladi [7, 8, 10].

YPEP chang tarkibidagi ruxning mineralogik shakllari (spetsiatsiyasi) qayta ishlash usulini tanlashda juda muhim ahamiyatga ega. Rux asosan suyultirilgan kislotalarda ham, ishqorlarda ham erimaydigan, termodinamik barqaror shpinel fazasi bo'lgan rux ferriti ($ZnFe_2O_4$, franklinit) ko'rinishida uchraydi. Shuningdek, rux erkin sinkit (ZnO) va kamroq miqdorda rux xlorid ($ZnCl_2$) shaklida ham mavjud. Asosiy temir saqlovchi fazalar magnetit (Fe_3O_4), magnesioferrit ($MgFe_2O_4$) va kalsiy bilan almashingan ferritlardir. Qo'shimcha fazalarga Mn_3O_4 , $FeCr_2O_4$, MgO , SiO_2 va $NaCl$ kiradi [2, 9].

XRD va SEM-EDS yordamida o'tkazilgan tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, $ZnFe_2O_4$ fazasi odatiy YPEP changdagi umumiy ruxning yarmidan ko'pini tashkil etadi, bu esa uning parchalanishini ruxni samarali ajratib olishning zaruriy shartiga aylantiradi. Ko'pchilik zarrachalarning mayda, sferik morfologiyasi - ayniqsa 20 mkm dan past bo'lgan zarrachalar - pechning ishlash jarayonida gaz fazasidan kondensatsiyalanishga mos keladi. 20 mkm dan yuqori bo'lgan shlakdan olingan yirik zarrachalar noto'g'ri morfologiyani ko'rsatadi va asosan temirga boy fazalarni o'z ichiga oladi.

Fizik xususiyatlar va zarrachalar o'lchami.

YPEP changida o'ta mayda donali materialdir. Ko'plab tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, zarrachalarning 80-90% hajmi 10-26 mkm dan kichikdir. Machado va boshqalar zarrachalarning o'rtacha diametri 1,88 mkm, 60% zarrachalar esa 0,90 dan 4,30 mkm gacha ekanligini ma'lum qilishdi. Trifunovich va boshqalar tomonidan o'tkazilgan granulometrik tahlil shuni ko'rsatdiki, zarrachalarning 80 foizi 26 mkm dan kichik. Ushbu o'ta mayda chang o'lchami qayta ishlash (masalan, issiqlik bilan ishlov berish paytida gaz oqimlarida tortish) va atrof-muhitni boshqarish (masalan, ochiq saqlash paytida shamol tarqalishi) uchun o'ziga xos muhandislik muammolarini keltirib chiqaradi [2].

Skannerlovchi elektron mikroskop (SEM) yordamida olingan tasvirlarda submikron zarrachalarning asosan sharsimon shaklga ega ekanligi ko'rinadi - bu sovish jarayonidagi bug'

kondensatsiyasiga mos keladi. Kattaroq bo'laklar esa sachrash va shlak qo'shilmalari hosil bo'lishi mexanizmlari natijasida vujudga kelib, burchaksimon yoki noto'g'ri shakllarga ega bo'ladi. Energiya-dispersiyali rentgen spektroskopiyasi (EDS) xaritalash natijalari shuni tasdiqlaydiki, mayda sharsimon zarrachalar asosan rux va temirdan tashkil topib, $ZnFe_2O_4$ fazasiga to'g'ri keladi, yirikroq zarrachalarda esa elementlarning ancha notekis (geterogen) taqsimlanishi kuzatiladi [9, 12, 13].

Ekologik oqibatlar. YPEP changining xavflilik tasnifi asosan uning tarkibidagi og'ir metallarning atrof-muhit sharoitida yuviluvchanligidan kelib chiqadi. Toksiklik xususiyatini aniqlash uchun yuvish usuli (TCLP) qayta ishlanmagan YPEP changdan olingan yuvindi suvlarda rux (Zn), qo'rg'oshin (Pb) va kadmiy (Cd) miqdori belgilangan me'yorlardan doimiy ravishda yuqori ekanligini ko'rsatadi. Xrom tarkibi esa, ayniqsa Cr(III) moddasining Cr(VI) ga aylanishi mumkin bo'lgan oksidlovchi muhitlarda, qo'shimcha kanserogen xavflarni yuzaga keltiradi. Ko'plab rivojlanayotgan sanoat hududlarida kuzatilganidek, noto'g'ri sharoitlarda saqlanganida yog'ingarchilik og'ir metallarning yerosti suvlariga aralashishiga olib kelishi mumkin, bu esa uzoq muddatli ekologik buzulishlarni yuzaga keltiradi [2, 7, 16].

Qayta ishlash texnologiyalari.

Pirometallurgik usullar: Vels pechi jarayoni YPEP changni qayta ishlashning asosiy sanoat texnologiyasi hisoblanib, dunyo bo'yicha qayta ishlangan fraksiyaning asosiy qismini tashkil etadi. Bu jarayonda YPEP changi qattiq qaytaruvchi (koks yoki ko'mir) hamda ohak yoki kremniy dioksidi bilan aralashtiriladi, donadorlanadi va taxminan 1000-1200 °C gacha qizdiriladigan aylanma pechga beriladi. Bunday sharoitda ZnO va $ZnFe_2O_4$ karbotermik yo'l bilan metall ruxgacha qaytariladi. U esa o'z navbatida bug'lanadi va tutun gazlar zonasida qayta oksidlanib, tarkibida taxminan 55% Zn va 10% gacha Pb bo'lgan xomaki rux oksidi (Vels oksidi) hosil qiladi. Keyinchalik Vels oksidi rux eritish zavodlarida xomashyo sifatida qo'llaniladi. Vels jarayoni optimallashtirilgan sharoitlarda (1100 °C, 90 daqiqa) ruxni 98,6% gacha ajratib olish imkonini beradi. Bunda donadorlangan xomashyo g'ovaklik va issiqlik o'tkazuvchanlikning yaxshilanganligi tufayli kukun

shaklidagidan yuqori samaradorlik ko'rsatadi [15, 17, 18, 19].

2010-yilda Tayvanda tijoratlashtirilgan elektr eritish reduksiyasi pechi (ESRF) jarayoni yuqori energiya xarajatlariga qaramay, shlakni bir vaqtning o'zida zararsizlantirish bilan deyarli to'liq rux va temirni qayta ishlashni taklif etadi. Yaqinda kislorod yordamida xlrlash ruxni xlrlash samaradorligi 97% dan oshishini, temirni xlrlash esa 1% dan past bo'lishini ko'rsatdi, bu esa ruxni tanlab ajratishga imkon beradi [10].

Gidrometallurgik usullar: YPEP changini gidrometallurgik ishlov berish odatda temirni asosan qattiq qoldiqda qoldirib, rux va boshqa rangli metallarni eritish uchun sulfat kislotada (H_2SO_4) ishqorlashni o'z ichiga oladi. Atmosfera bosimida, $25^\circ C$ haroratda 1 N H_2SO_4 eritmasi yordamida ruxni 85% ajratib olish mumkinligi isbotlangan. Yuqori bosimda ishqorlash (2 M H_2SO_4 , $270^\circ C$) orqali ruxni ajratib olish darajasi 53-79% ga, kislotada konsentratsiyasi yuqori bo'lgan atmosfera sharoitida ishqorlashda (4 M H_2SO_4) esa 97% gacha yetadi. Asosiy muammo $ZnFe_2O_4$ birikmasining kimyoviy barqarorligidir, chunki u yumshoq ishqorlash sharoitida erishga chidamli. Kuydirish, termik parchalash yoki xlrlash orqali dastlabki ishlov berish bu fazadan ruxning ajralib chiqishini sezilarli darajada yaxshilaydi [10, 21, 22, 23].

Ikki bosqichli yondashuv - eruvchan xloridlar va sulfatlarni yuvib tashlash uchun dastlabki suv bilan yuvish, so'ngra sulfat kislotada bilan ishqorlash - reagent sarfini kamaytiradi va keyingi jarayonlarni soddalashtiradi. Ishqorlashdan so'ng, rux eritmadan erituvchi ekstraksiyasi, kimyoviy cho'ktirish yoki elektr eritish orqali qaytariladi, bu esa rux sulfat yoki yuqori tozalikdagi metall ruxni beradi [3].

Barqarorlashtirish/Qattiqlashtirish (B/Q): Metallarni qayta ishlash iqtisodiy jihatdan samarasiz bo'lgan hollarda, MgO bog'lovchilar bilan yoki ularsiz qo'llaniladigan portlandsement og'ir metallarni harakatsizlantirib, TCLP bo'yicha yuvilish darajasini maqbul ko'rsatkichgacha pasaytirishi mumkin. Bu esa hosil bo'lgan qoldiqlarni poligonlarda xavfsiz utilizatsiya qilish imkonini beradi. Biroq, bu usul chang tarkibidagi qimmatli moddalarni ajratib olishga imkon bermaydi va katta hajmdagi qotirilgan chiqindilarni hosil qiladi [25].

Mualliflar [26] rux keklari tarkibida rux ferriti, rux silikati va rux sulfidi kabi qiyin eriydigan

fazalar mavjudligi sababli an'anaviy tanlab eritishda ruxning to'liq eritmaga o'tmasligini ko'rsatib, jahon amaliyotida qo'llaniladigan getit, yarozit va gematit jarayonlarini o'zaro solishtirganlar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, sulfat kislotada ishtirokida gidrometallurgik qayta ishlash rux, mis va kadmiy kabi komponentlarni yuqori darajada eritmaga o'tkazish, rux sulfat eritmasini zavodning mavjud elektroliz jarayoniga qaytarish hamda texnogen chiqindidan qo'shimcha metall ajratib olishni amalda isbotlab berishgan.

Namunalarni olish va tayyorlash. YPEP chang namunalari sanoat po'lat eritish korxonasining qop-filtrli chang yig'ish tizimidan olindi. Namunalar namlikni yutish va ifloslanishning oldini olish uchun yopiq polietilen idishlarda saqlangan. Har bir tahlil usuli uchun to'rtga bo'lib, keyin gomogenizatsiya qilish orqali reprezentativ kichik namunalar tayyorlandi.

Kimyoviy tarkib tahlili (XRF). Namunalarning umumiy kimyoviy tarkibi rentgen-fluorescent spektrometriyasi (XRF) yordamida aniqlandi (NEX CG asbobi, sochilishni tuzatishga ega fundamental parametrlar (FP) usuli). Namunalar presslangan tabletkalar ko'rinishida tahlil qilindi. Natijalar asosiy elementlar uchun oksidlarining massa ulushi (%), kichik va mikroelementlar uchun esa elementlarning massa ulushi (%) sifatida keltirilgan. Takroriy o'lchovlar tahlilning qaytariluvchanligini tasdiqladi; bunda asosiy oksidlar uchun statistik xatolik (2σ) doimiy ravishda 0,5% mass. dan past bo'ldi.

Elementlarning taqsimlanish xaritasi va mikrostruktura tahlili (SEM-EDS). Energiya-dispersli rentgen spektroskopiyasi bilan birgalikdagi skanerlovchi elektron mikroskopiya (SEM-EDS) tahlili uglerod bilan qoplangan namunalar ustida $2050\times$ kattalashtirishda o'tkazildi. Bunda Fe, Zn, Ca, Mn, Si, K, Na va mavjud bo'lgan boshqa elementlarning K-seriyali va $K\beta$ -seriyali rentgen nurlarini uyg'otish uchun mos keladigan tezlatuvchi kuchlanish qo'llanildi. Elementlarning miqdoriy tahlili standart ZAF matritsasini tuzatish usuli yordamida bajarilib, natijalar atom ulushi (%), massa ulushi (%) va tegishli xatoliklar ko'rinishida taqdim etildi.

Zarrachalar o'lchamining taqsimlanishini tahlil qilish. Zarrachalar o'lchamining lazerli tahlili JL-1197 rusumli lazerli zarrachalar o'lchami

analizatorida (Chengdu Jingxin Powder Analyse Instrument Co., Ltd.) dispersant muhit sifatida suvdan foydalanilgan holda amalga oshirildi (nurni sindirish ko'rsatkichi: 1,33; namunaning nurni sindirish ko'rsatkichi: 1,54+0,01i). Kumulyativ va differensial hajmiy taqsimotlar aniqlanib, standart foizli parametrlar (D10, D25, D50, D75, D90, D97, D99) hamda o'rtacha hajmiy diametrlar (D, D) olindi. O'ltahov ishonchliligini ta'minlash uchun konsentratsiya 99,99% darajasida ushlab turildi.

Natijalar. Umumiy kimyoviy tarkibi (XRF). YPEP chang namunasining XRF tahlili uglerodli/legirlangan po'lat parchalari asosidagi YPEP changiga xos bo'lgan murakkab ko'p elementli tarkibga ega ekanligini ko'rsatdi. Natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

YPEP changi asosiy komponentlarining miqdori, %

Fe	Zn	Cl	Ca	Mn	Pb	Mg	Na	Al	K	SiO ₂	Cu	C	O
34.4	14.7	2.92	7.12	2.17	1.7	2.04	8.51	0.74	3.59	6.04	0.2	12.86	28.74

YPEP changining qolgan komponentlarining miqdori sezilarli emas, eng keng tarqalgan metallar orasida nikel, kadmiy, qalay, bariyni ajratib ko'rsatish mumkin.

O'ltahashda 1-rasmda keltirilgan difrakto-gramma olindi va 3-jadvalda fraksiyalar bo'yicha taqsimot keltirildi.


Asosiy faza hosil qiluvchi unsur temir bo'lib, u Fe₂O₃ holida 40,7% miqdorda mavjud. Bu esa pech ishlashi va chiqindi gazlarning sovishi davomida kuchli oksidlanish sodir bo'lganini ko'rsatadi. 15,2% miqdordagi ZnO ushbu namunaning ruxga boy YPEP changi ekanligini va ruxni ajratib olish uchun qayta ishlashga yaroqliligini tasdiqlaydi - Vels pechida iqtisodiy jihatdan samarali ishlov berish uchun chegara, odatda, umumiy Zn+Pb miqdori 15-20% dan yuqori deb hisoblanadi. Na₂O ning yuqori miqdori (9,93%) va Cl ning mavjudligi (2,60%) metallolom shixtasidan ishqoriy xloridlarning sezilarli darajada o'tganligini bildiradi, bu esa ruxlangan yoki qoplamali metallolomdan foydalanilganiga mos keladi. SO₃ ning yuqori miqdori (4,97 og'%) metallolom qoplamalari yoki texnologik qo'shimchalardan olingugurt qo'shilganini ko'rsatadi [10].

PbO ning 1,49% va CdO ning 0,081% miqdori ekologik nuqtai nazardan muhim ahamiyatga ega, chunki har ikkala elementning ham yuviluvchanligi bo'yicha qat'iy me'yoriy chegara-

lar mavjud. CuO (0,253%), ZrO₂ (0,223%), SnO₂ (0,054%) va Sb₂O₃ (0,039%) ning kichik konsentratsiyalari YPEP changning odatiy tarkibiga mos keladi va geterogen metallolomdan olinganini aks ettiradi.

Analyzed result (EP method, Scatter)

No.	Component	Result	Unit	Stat. Err.	LLD	LLQ
1	Cl	2.92	mass%	0.0033	0.0023	0.0070
2	Br	0.0265	mass%	0.0005	0.0006	0.0017
3	Na	8.51	mass%	0.359	0.945	2.84
4	Mg	2.04	mass%	0.0344	0.0505	0.152
5	Si	5.14	mass%	0.0101	0.0071	0.0213
6	P	0.0889	mass%	0.0019	0.0046	0.0137
7	S	2.18	mass%	0.0046	0.0080	0.0241
8	K	3.59	mass%	0.0248	0.0063	0.0190
9	Ca	7.12	mass%	0.0309	0.0185	0.0556
10	Cr	0.241	mass%	0.0024	0.0026	0.0077
11	Mn	2.17	mass%	0.0055	0.0058	0.0173
12	Fe	34.4	mass%	0.0071	0.0077	0.0232
13	Co	0.0686	mass%	0.0054	0.0181	0.0542
14	Ni	0.0249	mass%	0.0011	0.0022	0.0067
15	Cu	0.246	mass%	0.0026	0.0023	0.0070
16	Zn	14.7	mass%	0.0180	0.0015	0.0044
17	Ga	0.0259	mass%	0.0014	0.0038	0.0115
18	As	(0.0084)	mass%	0.0028	0.0081	0.0243
19	Rb	0.0236	mass%	0.0005	0.0009	0.0027
20	Sr	0.0107	mass%	0.0003	0.0006	0.0017
21	Zr	0.231	mass%	0.0029	0.0003	0.0010
22	Ag	0.0074	mass%	0.0005	0.0008	0.0025
23	Cd	0.0089	mass%	0.0016	0.0008	0.0025
24	Sn	0.0588	mass%	0.0012	0.0008	0.0024
25	Sb	0.0459	mass%	0.0012	0.0020	0.0060
26	Ba	0.0410	mass%	0.0016	0.0027	0.0081
27	Ir	0.0685	mass%	0.0030	0.0078	0.0235
28	Pb	1.70	mass%	0.0056	0.0019	0.0058
29	Ra	(0.0101)	mass%	0.0016	0.0047	0.0141




1-rasm. YPEP changining fazaviy tarkibi diagrammasi.

EDS bo'yicha elementar tarkibi. 2050× kattalashtirilgan SEM namunasining EDS tahlili zarrachalar darajasidagi fazoviy aniqlikda asosiy element tarkibini tasdiqladi. 2-jadvalda EDSning to'liq miqdoriy tahlili natijalari keltirilgan.

2-jadval

YPEP changi elementar tarkibi, %

Fe	Zn	Cl	Ca	Mn	Mg	Na	Al	K	Si	S	C	O
20.27	9.39	1.97	6.37	1.53	1.29	2.62	0.74	4.88	6.06	3.27	12.86	28.74



2-rasm. Chang zarrachalarining dispersiv rentgen spektroskopiyasi (EDS) spektri.

2-jadval va EDS spektri (2-rasm) tahliliga ko'ra, namunada temir (Fe), rux (Zn), kislorod (O) hamda nisbatan kam miqdorda kremniy (Si), kaltsiy (Ca), kaliy (K), oltingugurt (S), alyuminiy (Al), magniy (Mg), marganes (Mn), natriy (Na) va boshqa elementlar mavjudligi aniqlandi.

Spektrda ayniqsa Fe-Kα (~6.4 keV) va Zn-Kα


(~8.6 keV) piklarining yuqori intensivligi ushbu elementlarning namunadagi ustun komponentlar ekanligini ko'rsatadi. Kislorodning sezilarli miqdori esa ushbu elementlarning asosan oksid shaklida mavjudligini bildiradi.

EDS spektri Fe 33,82 % og'irlik ulushi bilan ustun metall elementi, Zn esa 18,35 % og'irlik ulushi bilan asosiy rangli metall ekanligini tasdiqlaydi. Uglerodning yuqori atom ulushi (12,86 %) metallolom yoki qisman yongan qaytaruvchilardan qolgan organik ifloslanishni aks ettiradi - bu sanoatda hosil bo'lgan YPEP changi uchun keng tarqalgan xususiyatdir. Tarkibdagi 28,74 % miqdoridagi kislorod asosan oksid fazali mineralogiya mos keladi [8, 13].

moslik xatoliklari ushbu asosiy elementlarning miqdoriy tahlili yuqori ishonchlilikka ega ekanini ko'rsatadi.

Yoyli po'lat eritish pechidan olingan chang namunalarning morfologik xususiyatlari TEM (Transmission Electron Microscopy) usuli yordamida turli kattalashtirish darajalarida (2600× dan 36000× gacha) o'rganildi.

TEM tasvirlari (3-rasm) chang zarrachalarining mikrostrukturaviy tuzilishini ochib berib, ularning asosan sferik shaklga ega bo'lgan nano va submikron o'lchamdagi zarrachalardan tashkil topganini ko'rsatdi. Yuqori kattalashtirishda ayrim zarrachalarning poligonal va kristall shaklga yaqin ko'rinishi aniqlandi. YPEP changi murakkab



3-rasm. Chang zarrachalarining TEM tasvirlari.

EDS spektridagi Fe-K α cho'qqisining ustunligi (intensivligi ~2,86 ming impuls) va sezilarli Zn-K α cho'qqisi (~1,08 ming impuls) XRF tahlilidagi massa ulushlarini bevosita aks ettiradi. Ca-K α , Si-K α , K-K α va Mn-K α cho'qqilari chang matritsasining ko'p elementli tabiatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Fe (0,02%) va Zn (0,08%) uchun past

tarkibli, nano va mikro o'lchamdagi zarrachalardan iborat bo'lgan, kuchli aglomeratsiyalangan oksidli dispers tizim ekanligi aniqlandi.

Zarrachalar o'lchamining taqsimlanishi.

Lazer difraksiyasi tahlili YPEP chang namunasining sanoat changlariga xos bo'lgan bimodal-keng zarrachalar o'lchami taqsimotiga ega ekanligini

ko'rsatdi. Asosiy taqsimlanish parametrlari 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Zarrachalar o'lchamining taqsimlanish parametrlari (lazer difraksiyasi)


D6	D10	D16	D25	D50	D75	D84	D90	D97	D99	D	D	S/V ratio
0.507	0.933	2.031	4.502	11.455	21.494	27.791	34.573	52.971	71.206	15.428	2.036	2.9470

YPEP changi namunasi lazer difraksiyasi asosida ishlovchi zarracha o'lcham analizatori yordamida o'rganildi. Granulometrik tahlil natijalari changning keng diapazonda taqsimlanganligini ko'rsatdi. Median zarracha o'lchami $D_{50} \approx 11.455 \mu\text{m}$ bo'lib, asosiy massa o'rta o'lchamli fraksiyalarga to'g'ri keladi, $D_{90} \approx 34.573 \mu\text{m}$ qiymati esa yirik zarrachalar ulushining ham mavjudligini bildiradi. Shu bilan birga, $D[3,2] \approx 2.036 \mu\text{m}$ qiymati zarrachalarning sirt maydoni asosan mayda fraksiyalar hisobiga shakllanishini ko'rsatadi. Bu natijalar TEM tasvirlari bilan mos kelib, yirik zarrachalar aslida mayda nanozarrachalarning aglomeratsiyasi natijasida hosil bo'lganini tasdiqlaydi.



JL-1197 LASER PARTICLE SIZE ANALYSER REPORT

Sample name: Lida_mikro	0.275 μm	D6: 0.507 μm
Sample number: 1	D10: 0.933 μm	D16: 2.031 μm
Medium: R	D25: 4.502 μm	D50: 11.455 μm
Operating: Farrukh Erkinov	D75: 21.494 μm	D84: 27.791 μm
Concentration: 99.99	D90: 34.573 μm	D97: 52.971 μm
S/V: 2.9470 m ² /cm ³	D99: 71.206 μm	Model: General model_1
D[4,3]: 15.428 μm	D[3,2]: 2.036 μm	Sample analysis date: 1.54+ 0.01
date: 2026-2-13 16:00		Medium analysis date: 1.33



4-rasm. YPEP changining granulometrik tarkibi va zarracha o'lcham taqsimoti.

Granulometrik taqsimot egri chizig'i (4-rasm) asosan 10-20 μm diapazonda maksimum qiymatga ega bo'lib, bu interval chang massasining asosiy qismini tashkil etadi. Shu bilan birga, $<1 \mu\text{m}$ o'lchamli mayda zarrachalar va 30-50 μm dan katta yirik zarrachalarning mavjudligi changning ko'p fraksiyalari tizim ekanligini tasdiqlaydi.

Zarrachalarning median diametri (D_{50}) 11,455 μm bo'lib, bu ko'rsatkich adabiyotlarda sanoat YPEP changi uchun keltirilgan qiymatlarga mos keladi. Hajmiy o'rtacha qiymat ($D=15,428 \mu\text{m}$) va sirtiy o'rtacha qiymat ($D=2,036 \mu\text{m}$) o'rtasidagi

yaqqol farq taqsimotning keng va polidispers ekanligini, shuningdek, solishtirma sirt maydoniga nomutanosib ravishda katta hissa qo'shadigan submikron zarrachalar ulushi yuqori ekanligini ko'rsatadi. Solishtirma sirt-hajm nisbatining 2,9470 m^2/sm^3 ga tengligi sirt maydoni katta ekanligini tasdiqlaydi va bu ham ishqorlash, ham pirometallurgik jarayonlardagi reaksiya qobiliyatiga bevosita ta'sir qiladi [13, 14].

D_{90} ko'rsatkichining 34,573 μm bo'lishi zarrachalarning 90 foizi taxminan 35 μm dan kichik ekanligini bildiradi. Bu esa mazkur changni o'ta mayda dispersli toifaga kiritadi va texnologik gaz oqimlarida zarrachalarning ilashib ketishining oldini olish uchun Vels pechida qayta ishlashdan oldin pelletlashni taqozo etadi. Zarrachalarning sezilarli qismi 1 μm dan kichik ekanligi ($D_{10} = 0,933 \mu\text{m}$) tarkibida bug' kondensatsiyasi natijasida hosil bo'lishga xos bo'lgan nanoo'lchamdagi materiallar mavjudligidan dalolat beradi.

Muhokama. O'tkazilgan tahlillar natijalari ma'lumotlariga asosan, «LI DA METAL TECHNOLOGY» MCHJ YPEP changi ruxni ajratib olish uchun jiddiy texnik-iqtisodiy asosga ega bo'lgan qimmatbaho ikkilamchi xomashyo sifatida baholanadi. Ushbu changni qayta ishlash salohiyati quyidagicha baholanadi:

- **Rux miqdori (ZnO: 15,2%; elementar Zn: 18,35%)** Vels pechida iqtisodiy jihatdan samarali qayta ishlash uchun umumiy qabul qilingan 15 foizlik chegaradan yuqori [18].

- **Temir miqdori (Fe₂O₃: 40,7%, elementar Fe: 33,82%)** natriy karbonat ishtirokida eritib qaytarish usuli yordamida rux ajratib olingandan so'ng ikkilamchi temir konsentrati sifatida ahamiyatga ega bo'lishi uchun yetarlicha yuqori. Bu usul temirning 98,62 foizini ajratib olish va 93,8 foizlik temir olish imkonini beradi [26].

- **Qo'rg'oshin miqdori (PbO: 1,49%)** me'yoriy yuvilish cheklovlari sababli changni poligonga tashlash o'rniga unga ishlov berish zaruratini keltirib chiqaradi; Velslash jarayonida qo'rg'oshin rux bilan birga uchuvchanlik xususiyatiga ega bo'lib, oksidni tozalash bosqichida qayta tiklanadi yoki ajratib olinadi.

- **Ishqor va xloridlarning yuqori miqdori (Na₂O: 9,93%, Cl: 2,60%)** Velslash usulida qayta ishlashni murakkablashtiradi, chunki xloridlar pechning o'tga chidamli materiallariga shikast yetkazishi

va rux oksidi mahsulotini ifloslantirishi mumkin. Shu sababli, pirometallurgik ishlov berishdan oldin eruvchan xloridlarni yuvib tashlash uchun suv bilan oldindan tozalash qat'iy tavsiya etiladi [24].

- **Mayda zarrachalar o'lchami (D50: 11,455 μm)** sohadagi ilg'or tajribalarga muvofiq, Vels pechiga yuklashdan avval okatishlashni taqozo etadi [15].

- **Kadmiy (CdO: 0,081%) va xrom (Cr₂O₃: 0,301%)** atrof-muhit hamda salomatlik uchun xavf tug'diradi, bu esa materialni ochiq holda saqlash o'rniga, nazorat ostida qayta ishlash zaruratini kuchaytiradi [9, 16].

Natriy xlorid miqdori juda yuqori, zarrachalari nisbatan mayda va tarkibidagi rux ulushi 15 foizdan ortiq bo'lgan ushbu maxsus YPEP chang tarkibi uchun ikki bosqichli kompleks yondashuv tavsiya etiladi: (1) eruvchan Na, K, Cl va S fazalarini yo'qotish uchun dastlabki yuvish (bu yakuniy mahsulotlarning xlorid bilan ifloslanishini sezilarli darajada kamaytiradi); (2) rux va qo'rg'oshinni uchirib, xomaki rux oksidi shaklida qayta tiklash uchun yuvilgan va granulalangan qoldiqni Vels pechida qayta ishlash (bunda hosil bo'lgan temirli klinker metallurgiyada qayta ishlatilishi mumkin) [15, 18, 24].

Kichikroq hajmdagi yoki kam investitsiyali holatlar uchun 2-4 M H₂SO₄ bilan ishqorlashga asoslangan gidrometallurgik usul maqbul muqobil hisoblanadi. Bu usul ruxning 85-97 foizini ajratib olish imkonini beradi, temir esa asosan qattiq holda qolib, temir konsentrati sifatida ishlatilishi yoki YPEPga qaytarilishi mumkin. Ruxning asosiy fazasi sifatida ZnFe₂O₄ (franklinit) mavjudligi yumshoq sharoitlarda ekstraksiyani cheklaydi, shuning uchun kislota konsentratsiyasi, harorat (optimal 70-90°C) va reaksiya vaqtini (2-4 soat) optimallashtirish talab etiladi.

Istiqbolli texnologiyalar, xususan, kislorod yordamida xlorlash (>97% rux ajratib olish, <1% temir qo'shib ajralishi) va vodorod asosida to'g'ridan-to'g'ri qaytarish atrof-muhit uchun jiddiy afzalliklarni taqdim etsada, sanoatda joriy etishdan avval yanada kengaytirishni talab qiladi [11, 26].

Xulosa. Ushbu tadqiqotda po'lat qoldiqlari asosida ishlaydigan yoyli po'lat eritish pechi korxonasidan olingan sanoat changining (YPEP chang) batafsil, ko'p uslubli tavsifi keltirilgan bo'lib, uni qayta ishlash imkoniyatlari, ayniqsa, rux

va temirni ajratib olish nuqtayi nazaridan baholangan. Asosiy xulosalar quyidagilardan iborat:

1. Kimyoviy tarkibi: Rentgen-fluorescent tahlili (XRF) asosiy oksid fazalari Fe₂O₃ (40,7 %) va ZnO (15,2 %) ekanligini tasdiqladi. Shuningdek, tarkibida sezilarli miqdorda Na₂O (9,93 %), CaO (8,44 %), SiO₂ (6,04 %), SO₃ (4,97 %), K₂O (3,65 %) hamda ekologik jihatdan xavfli bo'lgan PbO (1,49 %) va CdO (0,081 %) mavjudligi aniqlandi.

2. Element tarkibi (EDS): SEM-EDS tahlili asosiy metall elementlar sifatida Fe (33,82 %) va Zn (18,35 %) mavjudligini, shuningdek, muhim ikkilamchi komponentlar sifatida Ca (7,62 %), K (5,70 %), Si (5,09 %), Mn (2,51 %), S (3,14 %) va Cl (2,08 %) borligini tasdiqladi. Fe va Zn uchun moslik xatoligining 0,1% dan pastligi tahlilning yuqori darajada ishonchli ekanini ko'rsatadi.

3. Zarrachalar o'lchami: Lazer difraksiyasi tahlili D50 - 11,455 μm , D90 - 34,573 μm va hajm bo'yicha o'rtacha diametr - 15,428 μm ekanini aniqladi. Bu natijalar ushbu changni termik ishlov berishdan oldin pelletlashni talab qiladigan o'ta mayda dispersli sanoat qo'shimcha mahsuloti sifatida tasniflash imkonini beradi.

4. Qayta ishlash salohiyati: Rux miqdorining yuqoriligi (>15 % ZnO) bu changni Vels usulida pirometallurgik qayta ishlash uchun iqtisodiy jihatdan maqbul xomashyo qatoriga qo'yadi. Tarkibidagi ishqoriy xloridlarning ko'pligi pechning o'tga chidamli qoplamasini va mahsulot sifatini himoya qilish uchun uni dastlab suv bilan yuvish bosqichini o'tkazishni taqozo etadi. Texnik jihatdan maqbul muqobil usul gidrometallurgik ishqorlash bo'lib, optimallashtirilgan kislotali sharoitlarda ruxni 85-97% gacha ajratib olishga erishish mumkin [10].

5. Ekologik holati: Ushbu YPEP (yoyli po'lat eritish pechi) changi tarkibidagi tanlab eritiluvchan Pb, Cd va Zn miqdori me'yoriy chegaralardan oshib ketganligi sababli xavfli chiqindilar tasnifiga kiradi. Metallarni ajratib olish uchun nazorat ostida qayta ishlash aylanma iqtisodiyot doirasida ham ekologik zarurat, ham iqtisodiy imkoniyat hisoblanadi [7].

Keyingi tadqiqotlarda pirometallurgik va gidrometallurgik jarayon sharoitlarini optimallashtirish uchun muhim parametr bo'lgan ZnFe₂O₄:ZnO nisbatini miqdoriy baholash maqsadida rentgen-difraksion tahlil (XRD) yordamida mineralogik faza aniqlanishi, shuningdek, amaldagi

milliy me'yoriy hujjatlarga muvofiq xavflilik | sinovlari o'tkazilishi lozim.
darajasini rasman belgilash uchun TCLP
(toksiklikni aniqlashning yuvib chiqarish usuli)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1] Колисниченко, В. (2025, June 12). Доля ЭДП в мировом производстве стали за 2024 год выросла до 29,1%. GMK Center. <https://gmk.center/news/dolya-edp-v-mirovom-proizvodstve-stali-za-2024-god-vyros-la-do-29-1/>
- [2] Rizescu, C.-Z., Bacinschi, Z., Stoian, E.-V., & Poinescu, A.-A. (2010). Characterization of steel mill electric-arc furnace dust. *Advances in Waste Management: Proceedings of the 5th WSEAS International Conference on Waste Management, Water Pollution, Air Pollution, Indoor Climate (WWAI'10)*, 139–143.
- [3] Hamann, C., Piehl, P., Weingart, E., Stolle, D., Al-Sabbagh, D., Ostermann, M., Auer, G., & Adam, C. (2024). Selective removal of zinc and lead from electric arc furnace dust by chlorination–evaporation reactions. *Journal of Hazardous Materials*, 465, 133421. <https://doi.org/10.1016/j.jhazmat.2023.133421>
- [4] Hernández Buitrago, L. J., Daza Prada, I., Amaral-Labat, G., Beneduce Neto, F., & Lenz e Silva, G. F. B. (2018). Microstructural, thermochemistry and mechanical evaluation of self-reducing pellets using electric arc furnace (EAF) dust containing zinc for Waelz process. *Matéria (Rio de Janeiro)*, 23(2), e-12006. <https://doi.org/10.1590/S1517-707620180002.0343>
- [5] Nair, A. T., Mathew, A., Archana, A. R., & Abdul Akbar, M. (2022). Use of hazardous electric arc furnace dust in the construction industry: A cleaner production approach. *Journal of Cleaner Production*, 377, 134282. <https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2022.134282>
- [6] Самадов, А. У., Тошкодирова, Р. Э., & Жалолов, Б. А. (2024). Анализ цинксодержащей пыли, образующейся при производстве стали. *Universum: технические науки*, (3), 20–23. <https://doi.org/10.32743/UniTech.2024.129.12.18967>
- [7] Machado, J. G., Brehm, F. A., Moraes, C. A., Santos, C. A., Vilela, A. C., & Cunha, J. B. (2006). Chemical, physical, structural and morphological characterization of the electric arc furnace dust. *Journal of Hazardous Materials*, 136(3), 953–960. <https://doi.org/10.1016/j.jhazmat.2006.01.044>
- [8] Samadov, A. U., Jalolov, B. A., & Kamalova, I. M. (2025). Po'lat eritish texnogen changlarining mikrostrukturaviy va elementar tarkibini TEM–EDS usullarida o'rganish. *International Journal of Advanced Technology and Natural Sciences*, 6(2), 53–61.
- [9] Al Jabri, M. J., Sangeetha, B. M., & Dwivedi, P. B. (2023). Optimized zinc recovery from electric arc furnace dust (EAFD): Hydrometallurgical process and characterization. *Green Chemistry & Technology Letters*, 9(1), 15–21. <https://doi.org/10.18510/gctl.2023.912>
- [10] Huang, J., & Yang, X. (2024). Oxygen-assisted zinc recovery from electric arc furnace dust using magnesium chloride. *International Journal of Minerals, Metallurgy and Materials*, 31(10), 2300–2311. <https://doi.org/10.1007/s12613-024-2837-4>
- [11] Chairaksa-Fujimoto, R., Inoue, Y., Umeda, N., Itoh, S., & Nagasaka, T. (2015). New pyrometallurgical process of EAF dust treatment with CaO addition. *International Journal of Minerals, Metallurgy and Materials*, 22(8), 788–797. <https://doi.org/10.1007/s12613-015-1135-6>
- [12] Guézennec, A.-G., Huber, J.-C., Patisson, F., Sessieq, P., Birat, J.-P., & Ablitzer, D. (2005). Dust formation in electric arc furnace: Birth of the particles. *Powder Technology*, 157(1–3), 2–11. <https://doi.org/10.1016/j.powtec.2005.05.006>
- [13] ZNO RECYCLE. (2024, September 11). Why pelletizing EAF dust for efficient recycling in the Waelz kiln process. <https://znorecycle.com/pelletizing-eaf-dust-for-efficient-recycling-in-the-waelz-kiln-process/>

- [14] Saadati, M., Hosseinzadeh, Z., Zamani, A. A., & Ashabi, E. (2023). Evaluating the concentration and leachability of heavy metals in electric arc furnace dust: Implications for environmental management. *Journal of Engineering Management and Systems Engineering*, 2(2), 117–122. <https://doi.org/10.56578/jemse020203>
- [15] Sunnatov, J. B., & Qarshiyev, X. K. (2021). Qora metallurgiyada hosil bo‘lgan changlardan rangli metallarni ajratib olish texnologiyalarini o‘rganish va tahlil qilish. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 1(4), 1414–1427.
- [16] Morcali, M. H., Yucel, O., Aydin, A., & Derin, B. (2012). Carbothermic reduction of electric arc furnace dust and calcination of Waelz oxide by semi-pilot scale rotary furnace. *Journal of Mining and Metallurgy, Section B: Metallurgy*, 48(2), 173–184. <https://doi.org/10.2298/JMMB111219031M>
- [17] Özcan, D., Karaoğlu, K. M., & Çelik, M. (2024). Classification of zinc recovery quality from EAF dust using machine learning: A Waelz process study. *Engineering Perspective*, 4(4), 171–177. <https://doi.org/10.29228/eng.pers.79502>
- [18] Havlik, T., Turzakova, M., Stopić, S., & Friedrich, B. (2005). Atmospheric leaching of EAF dust with diluted sulphuric acid. *Hydrometallurgy*, 77(1–2), 41–50. <https://doi.org/10.1016/j.hydromet.2004.10.008>
- [19] Havlík, T., Souza, B. V., Bernardes, A. M., Schneider, I. A. H., & Miškuřová, A. (2006). Hydrometallurgical processing of carbon steel EAF dust. *Journal of Hazardous Materials*, 135, 311–318. <https://doi.org/10.1016/j.jhazmat.2005.11.067>
- [20] Duan, W., Dong, X., Gao, L., Wang, Z., Wang, J., et al. (2025). Zn recovery strategies from steelmaking dust: A comprehensive review. *Separation and Purification Technology*, 378, 134694. <https://doi.org/10.1016/j.seppur.2025.134694>
- [21] Trifunović, V., Avramović, Lj., Jonović, R., Milić, S., Đorđević, S., & Jonović, M. (2021). Hydrometallurgical treatment of electric arc furnace dust in aim of zinc separation. In *Proceedings of the 52nd International October Conference on Mining and Metallurgy (IOC 2021)*.
- [22] Bayraktar, A. C., Avşar, E., Toröz, I., Alp, K., & Hanedar, A. (2015). Stabilization and solidification of electric arc furnace dust originating from steel industry by using low grade MgO. *Archives of Environmental Protection*, 41(4), 62–66. <https://doi.org/10.1515/aep-2015-0040>
- [23] Xoliqulov, D. B., Xaydaraliev, X. R., & Qarshiyev, H. K. (2020). Olmaliq KMK AJ rux ishlab chiqarish zavodi sharoitida rux keklarini gidrometallurgik qayta ishlash imkoniyatlarini tahlil qilish. *Journal of Advances in Engineering Technology*, (2), 54–58. <https://doi.org/10.24412/2181-1431-2020-2-54-58>
- [24] Chen, L., Liu, W., Jiao, F., Yang, C., Li, G., Liu, S., & Qin, W. (2023). Separation and recovery of zinc, lead and iron from electric arc furnace dust by low temperature smelting. *Separation and Purification Technology*, 312, 123355. <https://doi.org/10.1016/j.seppur.2023.123355>
- [25] Hoffelner, F. (2022). Kinetic aspects of the selective reduction of zinc ferrite with H₂ in the processing of electric arc furnace dust (Master's thesis). *Montanuniversität Leoben*.
- [26] Koishina, G., Dosmukhamedov, N., Kaplan, V., Nursainov, I., & Zholdasbay, Y. (2025). Technology for producing pure lead-free zinc oxide from electric arc furnace (EAF) dust. *Engineering Journal of Satbayev University*, 147(2), 17–23. <https://doi.org/10.51301/ejsu.2025.i2.03>

Maqolaga iqtibos keltirish | Как цитировать статью | How to cite this article

Jalolov, B. A., Mirzavaliyev, D. B., Qarshiyev, H. K., & Kamalova, I. M. (2026). Rux saqlovchi yoyli po‘lat eritish pechi changining tavsifi va qayta ishlash imkoniyatlari tahlili. *Sanoatda raqamli texnologiyalar*, 4(3). <https://doi.org/10.70769/3030-3214.SRT.4.3.2026.1>

UO‘K: 542.92:622.7:622.7-17

 10.70769/3030-3214.SRT.4.3.2026.4

© 2026 Authors. Licensed under CC BY 4.0

<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

YANGI ANGREN VA ANGREN ISSIQLIK ELEKTR STANSIYALARINING KUL-SHLAK AG‘DARMALARI HAJMI VA ULARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARINI O‘RGANISH



**Almatov Ilxomjon
Mirzabek o'g'li**

Texnika fanlari doktori, katta ilmiy
xodim, "Mineral resurslar instituti"
DM markaz mudiri, Toshkent,
O'zbekiston
E-mail: ilkhom90@list.ru
ORCID ID: 0000-0002-6614-9487
Science ID: DTV-0925-0009



**Xatamov G'ayrat
Alimansurovich**

"Mineral resurslar instituti" DM,
stajyor tadqiqotchi, Toshkent,
O'zbekiston
E-mail:
gayartxatomov06@gmail.com
Science ID: MTV 1225-0051



**Jabborov Ergash
Yusuf o'g'li**

"Mineral resurslar instituti" DM,
kichik ilmiy xodimi, Toshkent,
O'zbekiston
E-mail:
ergashjabborov92@gmail.ru
ORCID ID: 0009-0008-0299-1529
Science ID: MSN 0525-0169



**Sodiqov Farrux Sobirjon
o'g'li**

"Mineral resurslar instituti" DM,
kichik ilmiy xodim, Toshkent,
O'zbekiston
E-mail: sobirovich.fs@mail.ru
ORCID ID: 0009-0002-7637-954X
Science ID: MFR 0525-0078

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yangi Angren va Angren issiqlik elektr stansiyalarida hosil bo'ladigan kul-shlak ag'darmalarining hajmi, tarkibi va ulardan kompleks foydalanish istiqbollari o'rganilgan. Respublikadagi kul-shlak chiqindilarining to'planish dinamikasi, ularning ekologik ta'siri hamda sanoat uchun qimmatli komponentlar manbai sifatidagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, kul-shlak chiqindilarini gravitatsion, magnit va gidrometallurgik usullar yordamida qayta ishlash imkoniyatlari, jahon tajribasi hamda O'zbekistonda ularni iqtisodiy jihatdan samarali utilizatsiya qilish yo'nalishlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari kul-shlak ag'darmalarini ikkilamchi mineral xomashyo sifatida kompleks qayta ishlash ekologik xavfsizlikni oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va qimmatli metallarni ajratib olish samaradorligini ta'minlashini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: kul-shlak ag'darmalari, issiqlik elektr stansiyasi, Yangi Angren IES, Angren IES, texnogen chiqindilar, kompleks qayta ishlash, gidrometallurgiya, magnit separatsiya, qimmatli metallar, ekologiya.

Received: 02.07.2026

Accepted: 29.07.2026

Issue publication: 28.09.2026

ИССЛЕДОВАНИЕ ОБЪЕМОВ ЗОЛОШЛАКОВЫХ ОТВАЛОВ НОВО- АНГРЕНСКОЙ И АНГРЕНСКОЙ ТЕПЛОВЫХ ЭЛЕКТРОСТАНЦИЙ И ПЕРСПЕКТИВ ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ

**Алматов Илхомжон
O'lcham sinflari bo'yicha tahlil (2-rasm) bu talqinni bevosita quvvatlaydi. Yirik zarralar uchun cho'kish tezligi allaqachon yetarli, shu sababli kuchni oshirish qo'shimcha foyda bermaydi. 2–8 mkm sinfda esa, ya'ni ma'dan oltinining asosiy massasi joylashgan sohada, ajralib chiqish kuchga keskin sezgir va aynan shu sinf umumiy ko'rsatkichning optimumini shakllantiradi. Bundan kelib chiqadiki, markazdan qochma kuch optimumi apparatning universal tavsifi emas, balki muayyan ma'dan oltinining o'lcham taqsimotiga bog'liq kattalikdir. Bu xulosa Majumder va Barnwal [6] ta'kidlagan modellarning ma'danga bog'liqligi qoidasiga mos tushadi hamda Marion [7] natijalari bilan sifat jihatidan uyg'unlashadi.

Sikl vaqtining ta'sirini boyitma qatlamining to'lish dinamikasi tushuntiradi. Sikl boshida rifllar bo'sh, og'ir zarralar uchun joy ko'p; vaqt o'tgan sari rifllar to'ladi va yangi kelayotgan zarralarni ushlash imkoniyati kamayadi. Shuning uchun ajralib chiqish avvaliga tez o'sib, keyin to'yinadi. Uzoq sikl davomida qatlamda o'rtacha zichlikdagi minerallar ham to'planib, boyitma sifatini tushiradi. O'zaro ta'sirning manfiy ishorasi ham ayni shu bilan bog'liq: yuqori kuchda qatlam tezroq to'yinadi.

Egrilikning statistik ahamiyatli chiqishi muhim metodologik xulosaga olib keladi. Jarayonni

chiziqli model bilan to'liq tavsiflab bo'lmaydi, optimumni aniq topish uchun ikkinchi tartibli model kerak. Amalda bu keyingi bosqichda tajriba sohasini o'qiy nuqtalar bilan kengaytirib, markaziy kompozitsion reja asosida kvadratik regressiya modelini qurishni taqozo qiladi.

Amaliy va raqamli boshqaruv nuqtai nazaridan kuchni qat'iy bir qiymatda emas, maqbul atrofidagi tor oralikda (80–100 ×g) ushlab turgan ma'qul: shu oralikda oltin ajralib chiqishi 52% dan pastga tushmaydi. Kuch rotor aylanishlar soni orqali (1) ifoda bo'yicha bevosita sozlanadi, KC-MD3 uchun 90 ×g qiymatiga taxminan 1460 ayl/min mos keladi. Bu esa parametрни chastota o'zgartirgich yordamida avtomatik boshqarishga to'liq imkon beradi. Aniqlangan effektlar va egrilik qiymatlari jarayonning raqamli modelini qurish uchun tayyor sonli asos vazifasini o'taydi [9].

Xulosa. “Yoshlik I” va Qalmoqqir konlari mis-porfir ma'danidan oltinni «Knelson» KC-MD3 konsentratorida ajratib olishda markazdan qochma kuch hal qiluvchi omil ekanini aniqlandi: G ning 30 dan 150×g gacha o'zgarishida ajralib chiqish $G \approx 90 \times g$ da 54,0% maksimumga erishadi, boyitma tarkibi ham shu nuqtada eng yuqori (60 g/t) bo'ladi.

Kuch optimumi ma'dan oltinining o'lcham-fazaviy tarkibi bilan bevosita bog'liq: yirik (+74 mkm) zarralar barcha rejimda 90–92 % darajasida ajratiladi, 2–8 mkm sinfda esa ajralib chiqish 28 % dan 38 % gacha o'zgaradi va aynan shu sinf umumiy optimumni shakllantiradi.

Sikl vaqti ortishi bilan ajralib chiqish ≈ 30 min dan keyin platoga chiqadi (54,0 → 54,8 %), boyitma tarkibi esa 64 dan 52 g/t gacha pasayadi. Shu sababli maqbul sikl vaqti sifatida ≈ 30 min asoslandi.

2² to'liq faktorli tajriba va dispersion tahlil markazdan qochma kuchning chiziqli effekti +3,25%, sikl vaqtiniki +2,75%, ularning o'zaro ta'siri esa –1,25% ekanini ko'rsatdi; barcha effektlar statistik ahamiyatli.

Egrilik effekti +5,18% ($F=1148$; $p<0,001$) bo'lib, javob sirtining nochiziqli ekanini va optimumning tajriba sohasi ichida ($\approx 90 \times g$; ≈ 30 min) joylashganini isbotlaydi. Demak, jarayonni to'liq tavsiflash uchun ikkinchi tartibli regressiya modeli talab etiladi.

Amaliy jihatdan markazdan qochma kuchni 80–100×g oralig'ida ushlab turish tavsiya etiladi; KC-MD3 uchun bu rotorning taxminan 1460

ayl/min tezligiga mos keladi va parametr chastota o'zgartirgich yordamida avtomatik boshqarishga to'liq yaroqlidir.

Amaliy jihatdan markazdan qochma kuchni 80–100×g oralig'ida ushlab turish tavsiya etiladi;

KC-MD3 uchun bu rotorning taxminan 1460 ayl/min tezligiga mos keladi va parametr chastota o'zgartirgich yordamida avtomatik boshqarishga to'liq yaroqlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1] Chen, Q., Yang, H.-Y., Tong, L.-L., Niu, H.-Q., Zhang, F.-S., & Chen, G.-M. (2020). Research and application of a Knelson concentrator: A review. *Minerals Engineering*, 152, 106339. <https://doi.org/10.1016/j.mineng.2020.106339>
- [2] Farajzadeh, S., & Chehreh Chelgani, S. (2022). Gravity separation by Falcon concentrator—An overview. *Separation Science and Technology*, 57(13), 2145–2164. <https://doi.org/10.1080/01496395.2022.2028836>
- [3] Golovanov, I. M., Seltmann, R., & Kremenetsky, A. A. (2005). The porphyry Cu-Au/Mo deposits of Central Eurasia: 2. The Almalyk (Kalmakyr–Dalnee) and Saukbulak Cu-Au porphyry systems, Uzbekistan. In *Super porphyry copper and gold deposits: A global perspective* (Vol. 2, pp. 513–523). PGC Publishing.
- [4] Katwika, C. N., Kime, M. B., Kalenga, P. N. M., Mbuya, B. I., & Mwilen, T. R. (2019). Application of Knelson concentrator for beneficiation of copper–cobalt ore tailings. *Mineral Processing and Extractive Metallurgy Review*, 40(1), 35–45.
- [5] Laplante, A. R., Woodcock, F., & Huang, L. (2000). A laboratory procedure to characterise gravity recoverable gold. *SME Transactions*, 308, 53–59.
- [6] Majumder, A. K., & Barnwal, J. P. (2006). Modeling of enhanced gravity concentrators—Present status. *Mineral Processing and Extractive Metallurgy Review*, 27(1), 61–86. <https://doi.org/10.1080/08827500500339307>
- [7] Marion, C., Langlois, R., Kokkiliç, O., Zhou, M., Williams, H., Awais, M., Rowson, N. A., & Waters, K. E. (2019). A design of experiments investigation into the processing of fine low specific gravity minerals using a laboratory Knelson Concentrator. *Minerals Engineering*, 135, 139–155.
- [8] Shakarov, T. I., & Xasanov, A. S. (2025). Foydali qazilmalarni boyitish va qayta ishlash asoslari: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. «Muharrir» nashriyoti.
- [9] Sidiqov, R. M., Ergashev, M. A., Axmadaliyev, A. M., & Abdurazakov, U. M. (2026). Polimetall rudalarini boyitishda kombinatsiyalashgan texnologiyaning samaradorligini tadqiq etish. *Sanoatda raqamli texnologiyalar*, 4(2), 61–66.
- [10] Surimbayev, B., Bolotova, L., Akcil, A., Yessengarayev, Y., & Khumarbekuly, Y. (2024). Gravity concentration of gold-bearing ores and processing of concentrates: A review. *Mineral Processing and Extractive Metallurgy Review*. <https://doi.org/10.1080/08827508.2024.2395824>
- [11] Wills, B. A., & Finch, J. A. (2016). *Wills' mineral processing technology* (8th ed.). Butterworth-Heinemann.
- [12] Хасанов, А. С., & Эргашев, М. А. (2023). Изучение золота в пробе руды месторождения «Ёшлик I». *Ijodkor o'qituvchi*, 3(33), 236–242.
- [13] Хасанов, А. С., Турдиев, Ш. Ш., Эргашев, М. А., & Махситалиева, Л. О. (2024a). Изучение вещественного состава руды, гранулометрический анализ месторождений «Кальмакыр» и «Ёшлик I». *Перспективы развития композиционных материалов: Республиканская научно-техническая конференция* (с. 170–171). Ташкент.
- [14] Хасанов, А. С., Турдиев, Ш. Ш., Эргашев, М. А., & Махситалиева, Л. О. (2024b). Изучение формы нахождения благородных металлов в рудах месторождения «Кальмакыр». *Перспективы развития композиционных материалов: Республиканская научно-техническая конференция* (с. 173–174). Ташкент.

Maqolaga iqtibos keltirish | Как цитировать статью | How to cite this article

Axmadaliyev, A. M., Ergashev, M. A., Larionov, S. V., & Sidiqov, R. M. (2026). Mis-porfir ma'danidan oltin va kumushni markazdan qochma konsentrator yordamida ajratib olishda G-omil va sikl vaqti ta'sirini faktorli tajriba asosida baholash. Sanoatda raqamli texnologiyalar, 4(3). <https://doi.org/10.70769/3030-3214.SRT.4.3.2026.24>

UO‘K: 004.056.55:003.26

 10.70769/3030-3214.SRT.4.3.2026.13

© 2026 Authors. Licensed under CC BY 4.0

<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

KO‘P O‘ZGARUVCHILI KRIPTOGRAFIK TIZIMLAR VA ULARNING TAHLILI



Mustafoyev Azamat Botir o'g'li

“Unicon.uz” – Fan-texnik va marketing tadqiqotlari markazi MChJ, Toshkent, O‘zbekiston

Email: mustafoyevazamat01@gmail.com

ORCID ID: 0009-0002-0495-0567

Science ID: MQD-0826-0151

Annotatsiya. Ushbu maqolada postkvant kriptografiyaning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblangan ko‘p o‘zgaruvchili kriptografik tizimlarning nazariy asoslari, tuzilishi va xavfsizlik xususiyatlari tahlil qilingan. Ko‘p o‘zgaruvchili kvadratik tenglamalar tizimlariga asoslangan MQ (Multivariate Quadratic) va IP (Isomorphism of Polynomials) masalalarining hisoblash murakkabligi hamda ularning kriptografik tizimlar barqarorligini ta‘minlashdagi o‘rni ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, UOV (Unbalanced Oil and Vinegar) va Rainbow raqamli imzo sxemalarining tuzilishi, ishlash tamoyillari, afzalliklari va xavfsizlik jihatlari yoritilgan. Ko‘p o‘zgaruvchili kriptografik sxemalarga nisbatan qo‘llaniladigan asosiy kriptotahlil usullari va ehtimoliy hujumlar tahlil qilinib, ularning postkvant axborot xavfsizligi tizimlarida qo‘llash imkoniyatlari baholangan.

Kalit so‘zlar: postkvant kriptografiya, ko‘p o‘zgaruvchili kriptografiya, MQ masalasi, IP masalasi, UOV, Rainbow, raqamli imzo, kriptotahlil, axborot xavfsizligi, kvantga bardoshli kriptografiya.

Received: 11.06.2026

Accepted: 19.08.2026

Issue publication: 28.09.2026

МНОГОПЕРЕМЕННЫЕ КРИПТОГРАФИЧЕСКИЕ СИСТЕМЫ И ИХ АНАЛИЗ

Мустафоев Азамат Ботир угли

ООО «Unicon.uz» — Центр научно-технических и маркетинговых исследований, Ташкент, Узбекистан

Аннотация. В статье проанализированы теоретические основы, структура и особенности безопасности многовариантных криптографических систем как одного из перспективных направлений постквантовой криптографии. Рассмотрены вычислительная сложность задач MQ (Multivariate Quadratic) и IP (Isomorphism of Polynomials), основанных на системах многомерных квадратичных уравнений, а также их роль в обеспечении криптографической стойкости. Освещены структура, принципы функционирования, преимущества и аспекты безопасности схем цифровой подписи UOV (Unbalanced Oil and Vinegar) и Rainbow. Проанализированы основные методы криптоанализа и возможные атаки на многовариантные криптографические схемы, а также оценены перспективы их применения в постквантовых системах информационной безопасности.

Ключевые слова: постквантовая криптография, многовариантная криптография, задача MQ, задача IP, UOV, Rainbow, цифровая подпись, криптоанализ, информационная безопасность,

квантово-устойчивая криптография.

MULTIVARIATE CRYPTOGRAPHIC SYSTEMS AND THEIR ANALYSIS

Mustafaev Azamat Botir ugli

“Unicon.uz” LLC — Center for Scientific, Technical and Marketing Research, Tashkent, Uzbekistan

Abstract. This article analyzes the theoretical foundations, structure, and security features of multivariate cryptographic systems as one of the promising areas of post-quantum cryptography. The computational complexity of the MQ (Multivariate Quadratic) and IP (Isomorphism of Polynomials) problems based on systems of multivariate quadratic equations and their role in ensuring cryptographic security are considered. The structure, operating principles, advantages, and security aspects of the UOV (Unbalanced Oil and Vinegar) and Rainbow digital signature schemes are discussed. The main cryptanalytic methods and potential attacks against multivariate cryptographic schemes are analyzed, and the prospects for their application in post-quantum information security systems are evaluated.

Keywords: post-quantum cryptography, multivariate cryptography, MQ problem, IP problem, UOV, Rainbow, digital signature, cryptanalysis, information security, quantum-resistant cryptography.

Kirish. Kvant kompyuterlarining rivojlanishi zamonaviy kriptografiya oldida jiddiy muammo tug'dirmoqda. Piter Shor tomonidan 1994-yilda taklif qilingan kvant algoritmi RSA, ECC va Diffi-Hellman kabi keng qo'llaniladigan algoritmlarning asosini tashkil etuvchi faktorlash va diskret logarifm masalalarini polinomial vaqtda yechish imkonini beradi. Bu esa hozirgi ochiq kalitli kriptotizimlarning kelajakda kvant kompyuterlar tomonidan buzilishi xavfini keltirib chiqarmoqda, shu sababli postkvant kriptografiya (PQC) yo'nalishi faol rivojlanmoqda.

NIST tomonidan olib borilayotgan postkvant standartlashtirish jarayoni doirasida panjara asosidagi, kodga asoslangan, xeshga asoslangan va ko'p o'zgaruvchili (multivariate) kriptografiya kabi bir qator yondashuvlar taklif etilgan. Ushbu maqolada shulardan biri - ko'p o'zgaruvchili kriptografiya - ko'rib chiqiladi. Uning xavfsizligi cheklangan maydon ustidagi ko'p o'zgaruvchili kvadratik tenglamalar sistemasini yechishning (MQ muammosi) hisoblash murakkabligiga asoslanadi va bu masala hozircha samarali kvant algoritmiga ega emas.

Ko'p o'zgaruvchili kriptotizimlar asosan raqamli imzo sxemalarini yaratishda qo'llaniladi. Ular orasida Unbalanced Oil and Vinegar (UOV) va undan kelib chiqqan Rainbow sxemasi eng mashhuridan hisoblanadi. Rainbow NIST tanlovining final bosqichiga yetgan bo'lsa-da, unga qarshi topilgan so'nggi hujumlar uning xavfsizligiga shubha tug'dirdi, bu esa sohada qo'shimcha tadqiqotlar zarurligini ko'rsatadi.

Mazkur maqolaning maqsadi – postkvant kriptografiyaning istiqbolli yo'nalishlaridan biri bo'lgan ko'p o'zgaruvchili kriptografiyaning asosiy tamoyillarini, MQ va IP muammolarining hisoblash murakkabligini, shuningdek UOV va Rainbow raqamli imzo sxemalarining tuzilishi hamda ishlash prinsiplarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot doirasida ushbu sxemalarning xavfsizlik xususiyatlari va amaliy qo'llash imkoniyatlari ham ko'rib chiqiladi.

Mazkur maqolada MQ va IP muammolarining matematik mohiyati, shuningdek UOV va Rainbow sxemalarining tuzilishi, kalit generatsiyasi, imzo yaratish va tekshirish jarayonlari tahlil qilinadi.

Metodlar. *Ko'p o'zgaruvchili kriptografiya* (Multivariate Cryptography) - bu post-kvant kriptografiya sohasidagi istiqbolli yo'nalishlardan biri bo'lib, u bir nechta o'zgaruvchilarga ega bo'lgan polinomlar orqali kalit juftliklarini generatsiya qilish tamoyiliga asoslanadi. Ushbu yondashuvda kriptotizimlar cheklangan algebraik maydon ustida aniqlangan ko'p o'zgaruvchili kvadratik tenglamalar sistemasining hisoblash murakkabligidan foydalanadi. Mazkur tenglamalarni yechish algoritmik jihatdan NP-murakkab bo'lgani sababli, bu kriptografik sxemalar klassik va kvant kompyuterlar uchun hisoblash jihatdan bardoshli deb hisoblanadi. Ko'p o'zgaruvchili kriptografiyada asosiy g'oya shundan iboratki, foydalanuvchi maxfiy kalit sifatida oddiy yechiladigan polinom tizimini tanlaydi, so'ngra uni yashirish uchun invertibel (teskari olinadigan) o'zgarishlar bilan aralashtiradi. Ochiq kalit esa

murakkab ko‘rinishga ega bo‘lgan polinomlar tizimi bo‘ladi. Imzo yaratishda foydalanuvchi maxfiy tizimda yechim topadi, uni o‘zgartirib, ochiq tizimga moslashtiradi. Verifikatsiya esa ochiq tizimda amalga oshiriladi.

Ko‘p o‘zgaruvchili kriptografik tizimlar odatda raqamli imzo yaratish uchun ishlatiladi. Shifrlash uchun ishlatiladigan variantlar mavjud bo‘lsa-da, ular kamroq qo‘llaniladi. Eng mashhur algoritmlar orasida:

Rainbow - tez va ixcham imzo yaratish imkonini beradi, NIST tomonidan final bosqichga yetgan.

UOV (Unbalanced Oil and Vinegar) - oddiy tuzilishga ega, lekin ba‘zi hujumlarga nisbatan zaifliklari bor.

GeMSS (Great Multivariate Short Signature) - juda qisqa imzolar yaratadi, lekin hisoblash jihatidan og‘irroq.

Ko‘p o‘zgaruvchili polinom funksiyalar *Ta’rif* 7 (Ko‘p o‘zgaruvchili kvadratik polinom funksiya). F maydon bo‘lsin. $F: F^n \rightarrow F$ funksiyasi ko‘p o‘zgaruvchili funksiya deb ataladi. $x_1, \dots, x_n \in F$ o‘zgaruvchilarga ega p polinom berilgan bo‘lsin. Agar f funksiyani $p(x_1, \dots, x_n)$ ko‘rinishida ifodalash mumkin bo‘lsa, u ko‘p o‘zgaruvchili polinom funksiya deb ataladi (agar F cheklangan bo‘lsa, bu har qanday funksiya uchun mumkin). Agar F faqatgina ikkinchi darajali yoki undan past bo‘lgan hadlarni o‘z ichiga olsa, u ko‘p o‘zgaruvchili kvadratik polinom funksiya (Multivariate quadratic (MQ) polynomial function) deb ataladi. Misol uchun, funksiya $f_1(x_1, x_2, x_3) = x_1^2 x_2 + 2x_1 x_2^2 + 3x_3 + 4$ ko‘p o‘zgaruvchili polinom funksiya (uchinchi darajali), ammo, $f_2(x_1, x_2, x_3) = x_1^2 + 2x_1 x_2 + 3x_3 + 4$ ko‘p o‘zgaruvchili kvadratik polinom funksiya hisoblanadi. $p_1, \dots, p_k$ ko‘p o‘zgaruvchili kvadratik polinom funksiyalar bo‘lsin. $\mathcal{P} = \begin{pmatrix} p_1 \\ \vdots \\ p_k \end{pmatrix}$ vektor har

bir komponent uchun qo‘llanilgan funksiyalar yig‘indisi orqali $P: F^n \rightarrow F^k$ funksiyasi sifatida talqin qilinishi mumkin va u polinom akslantirish deb ataladi.

MQ muammosi F cheklangan maydon bo‘lsin. $p_1, \dots, p_k: F^n \rightarrow F$ ko‘p o‘zgaruvchili kvadratik polinom funksiyalar bo‘lsin. Quyidagi tenglamalar tizimi uchun $s \in F^n$ yechimni topish,

MQ (multivariate quadratic) muammosi deb ataladi [1]:

$$p_1(s) = 0 : p_k(s) = 0$$

Ushbu muammo hisoblash jihatidan qiyin ekanligi isbotlangan.

Ko‘p o‘zgaruvchili imzo sxemalari ochiq kalitli kriptosistemalar (Multivariate public-key cryptosystems, MPKC) polinomial akslantirishlardan ochiq va shaxsiy kalitlarni ifodalash uchun foydalaniladigan konstruksiyalardir. Ammo, MPKC konstruksiyalari asosan raqamli imzo sxemalari sifatida qo‘llaniladi va shifrlash maqsadlari uchun mos emas [4].

F cheklangan maydon bo‘lsin. Berilgan xabar $m \in F$ uchun imzo $s \in F^n$ yaratishning asosiy g‘oyasi P polinomial akslantirishi ostida m obraziga (image) bir yoki bir nechta asl obrazni (pre image) hisoblashdir. Bu quyidagi keltirilgan tenglamalar tizimini echimi s ni topishga teng:

$$\begin{matrix} p_1(s) = m_1 & p_1(s) - m_1 = 0 \\ \vdots & \Leftrightarrow & \vdots \end{matrix} \quad (1)$$

$$p_k(s) = m_k \quad p_k(s) - m_k = 0$$

Bu yerda, $\mathcal{P} = (p_1, \dots, p_k)$ va $m = (m_1, \dots, m_k)$. $\mathcal{P}$ - akslantirish deb ataldi va ochiq kalitni taqdim etadi. MPKC sxemasini ochiq akslantirish ostida asl obrazlarni topishga imkon beradigan tarzda loyihalash mumkin, lekin MQ muammosini to‘g‘ridan-to‘g‘ri hal qilmasdan. Odatda, bu mexanizm $\mathcal{F}: F^n \rightarrow F^k$ polinomial akslantirishini o‘z ichiga oladi, u markaziy akslantirish deb ataladi. $\mathcal{F}$ akslantirishni quyidagi ikki affin akslantirishlarni qo‘llash orqali yashirish mumkin: $\mathcal{S}: F^n \rightarrow F^n$ va $\mathcal{T}: F^k \rightarrow F^k$. Hosil bo‘lgan funksiya $\mathcal{P} = \mathcal{T} \circ \mathcal{F} \circ \mathcal{S}: F^n \rightarrow F^k$ tegishli shaxsiy kalit $(\mathcal{T}, \mathcal{F}, \mathcal{S})$ uchun ochiq kalit sifatida xizmat qiladi. Odatda, markaziy akslantirish F asl obrazlarni samarali hisoblash imkoniyatini talab qiladi. Affin akslantirishlar $\mathcal{S}$ va $\mathcal{T}$ teskarilantiruvchi (invertible) bo‘lishi kerak; shuning uchun ular to‘liq rangga ega bo‘lishi talab etiladi.

MPKC (Ko‘p o‘zgaruvchilik kriptotizimlar)ning asosiy komponenti markaziy akslantirish $\mathcal{F}$ ni loyihalashdir. Shaxsiy kalit $(\mathcal{T}, \mathcal{F}, \mathcal{S})$ haqida oldindan ma‘lumotga ega bo‘lmasdan, hujumchi ochiq akslantirishni tasodifiy polinomial akslantirishdan farqlay olmaydi. Shu sababli, to‘g‘ridan-to‘g‘ri hujumning murakkabligi MQ muammosining qiyinligiga tenglashtiriladi.

Biroq, ushbu tizimning xavfsizlik farazi markaziy akslantirish $\mathcal{F}$ ga qarshi samarali hujumlar ehtimoli tufayli MQ muammosiga qaraganda kuchliroqdir. Ochiq akslantirishga to'g'ridan-to'g'ri hujum qilish o'rniga, MPKCni buzishning muqobil usuli mavjud. G'oya shundan iboratki, markaziy akslantirish $\mathcal{F}$ ni $\mathcal{P}$ ga o'zgartirish uchun zarur bo'lgan ikkita muqobil affin akslantirishlarini topish kerak. Shunday qilib, kriptotizimga mos keluvchi ochiq akslantirish uchun boshqa shaxsy kalitlarni topish orqali hujum amalga oshirilishi mumkin. Bu mazmunda yangi muammo - polinomlar izomorfizmi (Isomorphism of Polynomials, IP) muammosini aniqlashtirish kerak [3].

IP muammosi Agar $\mathcal{P}$, $\mathcal{F}$ - F^n dan F^k ga bo'lgan ikkita polinomial akslantirish bo'lsa va $\mathcal{P} = (p_1, \dots, p_k)$, $\mathcal{F} = (f_1, \dots, f_k)$ deb yozilsa, shunday shartlarda agar $\mathcal{P} = \mathcal{T} \circ \mathcal{F} \circ \mathcal{S}$ shartni qanoatlantiruvchi ikki teskarisiga ega affin akslantirishlar $\mathcal{S}: F^n \rightarrow F^n$ va $\mathcal{T}: F^k \rightarrow F^k$ mavjud bo'lsa, $\mathcal{S}$ va $\mathcal{T}$ ni topish IP muammosi deb atalib, u yetarlicha hisoblash murakkabligiga ega hisoblanadi [2]. IP muammosini yechish MPKCni buzishi mumkin, chunki bu usul orqali maxfiy affini funksiyalarni topish mumkin. Bu esa berilgan ochiq akslantirish va tasodifiy tanlangan markaziy akslantirishga alternativ maxfiy kalitlar topilishiga olib keladi.

Rainbow imzo sxemasi ehtimoliy eng keng tarqalgan ko'p o'zgaruvchili imzo sxemasi bo'lgan Unbalanced Oil and Vinegar (UOV) sxemasi bilan yaqin bog'liq. Rainbowni tushunish uchun, avvalo, UOV ni to'g'ri tushunish taab etiladi.

UOV ning asosiy g'oyasi markaziy akslantirish $\mathcal{F}$ ning o'zgaruvchilar to'plamini ikki o'zaro kesishmaydigan bo'limga ajratishdan iborat bo'lib, bular oil (neft) va vinegar (sirka) o'zgaruvchilar deb ataladi. Eng muhim xususiyat shundaki, $\mathcal{F}$ ning kvadratik polinomlari ikki oil o'zgaruvchisi o'rtasida cross-term (aralash ko'paytuvchilar) bo'lishiga ruxsat bermaydi. UOV umumiy holda ochiq va yopiqkalitlarni tez hisoblashni taklif qiladi hamda sodda strukturasi bilan ajralib turadi. Lekin uning kamchiligi kalitlarni nisbatan katta o'lchamida namoyon bo'ladi [10].

UOV sxemasi MPKC sxemasi sifatida tavsiflanadi, yuqorida tasvirlanganidek, ochiq akslantirish $\mathcal{P} = \mathcal{T} \circ \mathcal{F} \circ \mathcal{S}: F \rightarrow F^k$ va shaxsiy

polinomial akslantirishlari $(\mathcal{T}, \mathcal{F}, \mathcal{S})$ bilan. Bu sxema oil va vinegar o'zgaruvchilarining sonini aniqlovchi o va v butun parametrlar bilan tavsiflanadi. Ushbu parametrlar markaziy akslantirish $\mathcal{F}$ tuzilishini belgilaydi, bu yerda, $k = o + v$ polinomial funksiyalar va $n = o + v$ o'zgaruvchilar mavjud. Markaziy akslantirish $\mathcal{F}: F^n \rightarrow F^k$ o'z navbatida k ta polinom funksiyalar $f_1, \dots, f_k$ dan tashkil topgan. Ular bir rangli shaklga keltiriladi, ya'ni, konstanta va chiziqli hadlar tashlab yuboriladi. U holda har bir f_r quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$f_r = \sum_{i=1}^v \sum_{j=i}^v \alpha_{ij}^{(r)} x_i x_j + \sum_{i=1}^v \sum_{j=v+1}^n \beta_{ij}^{(r)} x_i x_j \quad (2)$$

Bu yerda, $x_1, \dots, x_v$ va $x_{v+1}, \dots, x_n$ mos holda vinegar va oil o'zgaruvchilari. $\mathcal{F}$ markaziy akslantirish $\mathcal{F}$ dan $\alpha_{ij}^{(r)}$, $\beta_{ij}^{(r)}$ koeffitsientlariga tasodifiy qiymatlar tayinlash orqali generatsiya qilinadi [9]. Affin o'zgartirishlar $\mathcal{S}$ va $\mathcal{T}$ ham tasodifiy koeffitsientlarni tayinlash orqali tanlanadi, agar ularning o'zgaruvchilari teskari qiymatga ega bo'lmasa, bu jarayon takrorlanadi. Markaziy akslantirish $\mathcal{F}$ bo'yicha asl obrazlarni hisoblash quyidagicha amalga oshiriladi:

1-qadam: Vinegar o'zgaruvchilarga $x_1, \dots, x_k$ (qizil bilan ajratilgan) tasodifiy qiymatlar tayinlanadi. Bu jarayon vinegar o'zgaruvchilar o'rtasidagi ko'paytma natijasini doimiyga qisqartiradi, shuningdek, oil va vinegar o'zgaruvchilarning ko'paytmasini chiziqli hadga aylantiradi [8]:

$$f_r = \sum_{i=1}^v \sum_{j=i}^v \alpha_{ij}^{(r)} x_i x_j + \sum_{i=1}^v \sum_{j=v+1}^n \beta_{ij}^{(r)} x_i x_j \quad (3)$$

2-qadam: Buning natijasida $n - v = k$ o'zgaruvchi, ya'ni $x_{v+1}, \dots, x_n$ uchun k ta chiziqli tenglamalar sistemasi hosil bo'ladi. Gaus qisqartirishini qo'llash orqali bu sistemani yechib, qolgan oil qiymatlari $x_{v+1}, \dots, x_n$ aniqlanadi. Agar sistema yechimga ega bo'lmasa, vinegar o'zgaruvchilar uchun boshqa tasodifiy qiymatlar tanlash orqali jarayon takrorlanadi.

Yuqorida aytilganidek, bu MPKC konstruksiyasi berilgan ochiq akslantirish $\mathcal{P}$ bo'yicha asl obrazlarni topishni qiyinlashtiradigan tarzda ishlab chiqilgan. Ammo, shaxsiy dekompozitsiya $\mathcal{P} = \mathcal{T} \circ \mathcal{F} \circ \mathcal{S}$ ni bilgan holda asl obrazlarni samarali hisoblash (masalan, imzo

yaratish) mumkin bo'lad.

Rainbow'ning aniq na'munasi quyidagi parametrlar orqali aniqlanadi. Birinchi sath uchun vinegar o'zgaruvchilar soni v_1 . Birinchi va ikkinchi qavatlar uchun oil o'zgaruvchilar soni o_1 va o_2 . Umumiy o'zgaruvchilar soni $n = v_1 + o_1 + o_2$ va tenglamalar soni $k = o_1 + o_2$ formula orqali aniqlanadi. Rainbowsning markaziy akslantirish $\mathcal{F}$ ning natijaviy strukturasi quyidagi ikki sathdan iborat:

1-sath: $\underbrace{x_1, \dots, x_{v_1}}_{\text{vinegar o'zgaruvchilar}}, \underbrace{x_{v_1+1}, \dots, x_{v_1+o_1}}_{\text{oil o'zgaruvchilar}}$

2-sath:

$\underbrace{x_1, \dots, x_{v_1}, x_{v_1+1}, \dots, x_{v_1+o_1}}_{\text{vinegar o'zgaruvchilar}}, \underbrace{x_{v_1+o_1+1}, \dots, x_{v_1+o_1+o_2}}_{\text{oil o'zgaruvchilar}}$

Bu konstruktsiya UOV holatidagi imzo o'lchami va xabar o'lchami o'rtasidagi nisbati $(v + o)/o$ dan ikki sathli Rainbow holatida $(v_1 + o_1 + o_2)/(o_1 + o_2)$ ga yaxshilanadi, chunki, $v_1 < v$. Ya'ni, amalda imzolar nisbatan kichikroq bo'ladi (bu taxminan 26% qisqarishni anglatadi) [7]. Birinchi sathda kerakli koeffitsientlar sonining qisqarishi tufayli, bu xususiyat shuningdek, xususiy kalit hajmini ham kichikroq qiladi. Biroq, so'nggi hujumlar ushbu konstruktsiyani zaif ekanligini ko'rsatdi, bu esa mazkur samaradorlik yutuqlarining yo'qolishiga olib keldi (quyida keltiriladi).

Aniq kalit juftligini yaratish uchun (1-algoritm), quyidagi akslantirishlar tanlab olinadi:

- Shaxsiy markaziy $\mathcal{F}$ akslantirish $k = o_1 + o_2$ ta ko'phad $f_1, \dots, f_k$ dan tashkil topgan bo'lib, ularning har biri quyidagi ko'rinishga ega:

$$f_r = \begin{cases} r \in \{1, \dots, o_1\} \text{ uchun } \sum_{i \in \mathcal{S}} \alpha_{ij}^{(r)} x_i x_j + \sum_{i \in \mathcal{V}_1, j \in \mathcal{O}_1} \beta_{ij}^{(r)} x_i x_j \\ r \in \{o_1 + 1, \dots, o_1 + o_2\} \text{ uchun } \sum_{i \in \mathcal{S}} \gamma_{ij}^{(r)} x_i x_j + \sum_{i \in \mathcal{V}_2, j \in \mathcal{O}_2} \delta_{ij}^{(r)} x_i x_j \end{cases} \quad (4)$$

Birinchi sath, vinegar indeksleri $V_1 = \{1, \dots, v_1\}$, oil indeksleri $O_1 = \{v_1 + 1, \dots, v_1 + o_1\}$, ikkinchi qatlam, vinegar indeksleri $V_2 = V_1 \cup O_1$ va oil indeksleri $O_2 = \{o_1 + 1, \dots, o_1 + o_2\}$. Koeffitsiyent $\alpha_{ij}^{(r)}$, $\beta_{ij}^{(r)}$, $\gamma_{ij}^{(r)}$ va $\delta_{ij}^{(r)}$ lar F maydondan tasodifiy tanlanadi.

- Ikki maxfiy tasodifiy tanlangan teskarisiga ega affina akslantirish: $\mathcal{T}: F \rightarrow F^k$ va $\mathcal{S}: F^n \rightarrow F^n$. Bu akslantirishlarning koeffitsiyentlari F maydondan tasodifiy tanlanadi. Agar akslantirishlar teskarisiga ega bo'lmasa, jarayon qayta amalga oshiriladi.

Ochiq kalit: $\mathcal{P} = \mathcal{T} \circ \mathcal{F} \circ \mathcal{S}: F^n \rightarrow F^k$.

1-algoritm Rainbow Key Generation.

Kirish: Yo'q.

1. $\mathcal{S} \in F^n \rightarrow F^n$ tanlanadi.
2. $\mathcal{F} \in F^n \rightarrow F^k$ tanlanadi.
3. $\mathcal{T} \in F^k \rightarrow F^k$ tanlanadi.
4. $\mathcal{P} = \mathcal{T} \circ \mathcal{F} \circ \mathcal{S} \in F^n \rightarrow F^k$ hisoblanadi.

Chiqish: ochiq kalit $\mathcal{P}$, shaxsiy kalit $sk = (\mathcal{T}, \mathcal{F}, \mathcal{S})$.

Yuqorida tasvirlanganidek, berilgan $m \in \{0,1\}^*$ uzunlikdagi xabar uchun haqiqiy imzo s - bu $\mathcal{P}$ ostida $H(m)$ ning asl obrazi hisoblanadi, ya'ni, $\mathcal{P}(s) = H(m)$ tenglamasi bajariladi, bunda $H: \{0,1\}^* \rightarrow F^k$ mos keluvchi kriptografik xesh funksiyasi. Akslantirishlar $\mathcal{S}$ va $\mathcal{T}$ samarali tarzda teskari hisoblanganligi sababli, ularning ostida asl obrazlarni topish oson. Markaziy akslantirish $\mathcal{F}$ ostida asl obrazlarni topish esa UOV sxemasidagi kabi amalga oshiriladi [10]:

- birinchi sath vinegar o'zgaruvchilarini tasodifiy tanlash, ya'ni $x_1, \dots, x_{v_1}$:

1-sath: $\underbrace{x_1, \dots, x_{v_1}}_{\text{vinegar o'zgaruvchilar}}, \underbrace{x_{v_1+1}, \dots, x_{v_1+o_1}}_{\text{oil o'zgaruvchilar}}$

- birinchi sath oil o'zgaruvchilarining qiymatlarini topish: hosil bo'lgan o_1 ta tenglamalarning chiziqli sistemasi yechib, birinchi sath uchun o_1 ta oil o'zgaruvchilarining aniq qiymatlari hisoblanadi;

- birinchi sathdan olingan qiymatlarni, ya'ni, $x_1, \dots, x_{v_1+o_1}$, ikkinchi sath tenglamalariga qo'llash.

2-sath:

$\underbrace{x_1, \dots, x_{v_1}, x_{v_1+1}, \dots, x_{v_1+o_1}}_{\text{vinegar o'zgaruvchilar}}, \underbrace{x_{v_1+o_1+1}, \dots, x_{v_1+o_1+o_2}}_{\text{oil o'zgaruvchilar}}$

- ikkinchi sathdagi oil o'zgaruvchilarining qiymatlarini topish: hosil bo'lgan o_2 ta tenglamalarning chiziqli sistemasini yechib, ikkinchi sathning qolgan oil o'zgaruvchilarining aniq qiymatlari hisoblanadi;

- tenglama yechimi yo'q bo'lsa: Agar chiziqli tizimlardan biri uchun yechim topilmasa, jarayon birinchi sath vinegar o'zgaruvchilarining boshqa tasodifiy qiymatlarini tanlashdan boshlanadi. Xabar m uchun $\mathcal{P}$ ostida haqiqiy imzoni hisoblash H funksiyasi yordamida xabarni xeshlash va keyin maxfiy akslantirishlar $\mathcal{T}$, $\mathcal{F}$ va $\mathcal{S}$ ostida asl obrazlarni topish orqali amalga oshiriladi (2-algoritm).

2-algoritm Rainbow Signature generation.

Kirish: shaxsiy kalit $sk = (\mathcal{T}, \mathcal{F}, \mathcal{S})$, xabar $m \in \{0, 1\}^*$.

1. $m_H = H(m)$ hisoblanadi.
2. $u = \mathcal{T}^{-1}(m_H)$ hisoblanadi.
3. $\mathcal{F}$ ostida u ning asl obrazi u^{-1} topiladi.
4. $s = \mathcal{S}^{-1}(u^{-1})$ hisoblanadi.

Chiqish: imzo s .

$m \in \{0, 1\}^*$ xabar va $s \in \mathbb{F}^n$ imzo berilgan bo'lsin. Agar $H(m) = \mathcal{P}(s)$ o'rinli bo'lsa, s imzo haqiqiy, aks holda imzo haqiqiy emas (33-algoritm).

3-algoritm Rainbow Verification.

Kirish: ochiq kalit $\mathcal{P}$, xabar $m \in \{0, 1\}^*$, imzo $s \in \mathbb{F}^n$.

1. $m'_H = \mathcal{P}(s)$ hisoblanadi.
2. $m_H = H(m)$ hisoblanadi.

Chiqish: agar $m'_H = m_H$ imzo haqiqiy, aks holda haqiqiy emas.

1-javal

Rainbowning uchinchi raund parametrlari

Parametrlar	$\mathbb{F}$	v_1	o_1	o_2
Level I	GF(16)	36	32	32
Level III	GF(256)	68	32	48
Level V	GF(256)	96	36	64

Natijalar. Bu konstruktsiya UOV holatidagi imzo o'lchami va xabar o'lchami o'rtasidagi $(v + o)/o$ nisbatini ikki sathli Rainbow holatida $(v_1 + o_1 + o_2)/(o_1 + o_2)$ darajasiga yaxshilaydi, chunki $v_1 < v$. Ya'ni, amalda imzolar nisbatan kichikroq bo'ladi (bu taxminan 26% qisqarishni anglatadi) [7]. Birinchi sathda kerakli koeffitsientlar sonining qisqarishi tufayli, bu xususiyat shuningdek, xususiy kalit hajmini ham kichikroq qiladi. Biroq, so'nggi hujumlar ushbu konstruktsiyani zaif ekanligini ko'rsatdi, bu esa mazkur samaradorlik yutuqlarining yo'qolishiga

olib keldi.

Rainbowning uchinchi raundi uchun taklif qilingan parametrlar 2-jadvalda keltirilgan:

Keltirilgan parametrlardan ko'rinib turibdiki, xavfsizlik darajasi oshgan sari (Level I dan Level V gacha) chekli maydon hajmi va o'zgaruvchilar soni ham ortib boradi, bu esa kalit va imzo o'lchamlarining kattalashishiga olib keladi. Shu bilan birga, ikki sathli tuzilma UOV sxemasiga nisbatan kalit va imzo hajmini optimallashtirish imkonini beradi, biroq bu samaradorlik xavfsizlikka nisbatan doimiy tekshiruvni talab qiladi, chunki markaziy akslantirishning maxsus strukturalari potensial kriptotahlil hujumlari uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratishi mumkin.

2-jadval

Rainbow raqamli imzo sxemasining xavfsizlik darajalari bo'yicha asosiy parametrlari

Parametrlar	$\mathbb{F}$	v_1	o_1	o_2
Level I	GF(16)	36	32	32
Level III	GF(256)	68	32	48
Level V	GF(256)	96	36	64

Xulosa. Maqolada ko'p o'zgaruvchili kriptografiyaning matematik asoslari va postkvant kriptografiyadagi o'rni tahlil qilindi. MQ va IP muammolarining hisoblash murakkabligi ko'rib chiqilib, UOV hamda Rainbow raqamli imzo sxemalarining tuzilishi va ishlash prinsiplari o'rganildi. Tahlil natijasida ko'p o'zgaruvchili kriptografiya raqamli imzo sxemalarini yaratishda istiqbolli yo'nalishlardan biri ekanligi aniqlandi. Shu bilan birga, mavjud sxemalarning xavfsizlik va samaradorlik xususiyatlarini chuqur tadqiq etish ularni amaliyotda qo'llash uchun muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1] Albrecht, M. R., Bernstein, D. J., Chou, T., Cid, C., Gilcher, J., Lange, T., Maram, V., von Maurich, I., Misoczki, R., Niederhagen, R., Paterson, K. G., Persichetti, E., Peters, C., Schwabe, P., Sendrier, N., Szefer, J., Tjhai, C. J., Tomlinson, M., & Wang, W. (2020). Classic McEliece: Conservative code-based cryptography.
- [2] Shor, P. W. (1994). Algorithms for quantum computation: Discrete logarithms and factoring. In Proceedings of the 35th Annual Symposium on Foundations of Computer Science (pp. 124–134).
- [3] Cryptology ePrint Archive, Report 2020/1343. (2020). International Association for Cryptologic Research.
- [4] Patarin, J. (1996). Hidden fields equations (HFE) and isomorphisms of polynomials. In Advances in Cryptology—EUROCRYPT '96 (pp. 33–48). Springer.

- [5] Kipnis, A., & Shamir, A. (1998). Cryptanalysis of the Oil and Vinegar signature scheme. In Advances in Cryptology—CRYPTO '98 (pp. 257–266). Springer.
- [6] Ding, J., & Schmidt, D. (2005). Rainbow, a new multivariable polynomial signature scheme. In Applied Cryptography and Network Security—ACNS 2005 (pp. 164–175). Springer.
- [7] Kipnis, A., Patarin, J., & Gaborit, P. (1999). Unbalanced Oil and Vinegar signature schemes. In Advances in Cryptology—EUROCRYPT '99 (pp. 206–222). Springer.
- [8] Ding, J., Yang, B.-Y., Chen, C.-H. O., Chen, M.-S., & Cheng, Y. Rainbow signature: A new multivariable polynomial signature scheme. Cryptology ePrint Archive.
- [9] Bernstein, D. J., Buchmann, J., & Dahmen, E. (Eds.). (2009). Post-quantum cryptography. Springer.
- [10] Cartor, R., Cartor, M., Lewis, M., & Smith-Tone, D. (2022). IPRainbow. In Post-Quantum Cryptography: 13th International Conference, PQCrypto 2022. Springer. https://doi.org/10.1007/978-3-031-17234-2_9

Maqolaga iqtibos keltirish | Как цитировать статью | How to cite this article

Mustafojev, A. B. (2026). Ko'p o'zgaruvchili kriptografik tizimlar va ularning tahlili. Sanoatda raqamli texnologiyalar, 4(3). <https://doi.org/10.70769/3030-3214.SRT.4.3.2026.13>

UO‘K: 622.831:004.94

 10.70769/3030-3214.SRT.4.3.2026.28

© 2026 Authors. Licensed under CC BY 4.0

<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

KALIYLI KONLARDA QAZIB OLISH CHUQURLIGI ORTISHI BILAN SILVINIT RUDASINI QAZIB OLISH TIZIMIDAGI PARAMETRLARNI GEOMEXANIK MOSLASHTIRISH VA NAZARIY ASOSLASH



**Karimov Yoqub
Latipovich**

Dotsent, texnika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), Qarshi
davlat texnika universiteti, Qarshi,
O'zbekiston
E-mail: karimov_6613@mail.ru
ORCID ID: 0009-0000-7885-5306
Science ID: FQD-0326-0060



**Jumayev Ilhom
Kudratovich**

“Dehqonobod kaliy zavodi” AJ
tog'-kon majmuasi bosh injeneri,
Dehqonobod, O'zbekiston



**Olimov Farusxon
Muzaffar o'g'li**

Dotsent, texnika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), Qarshi
davlat texnika universiteti, Qarshi,
O'zbekiston
E-mail: farusxon@mail.ru
ORCID ID: 0009-0003-3787-3657



**Nomdorov Rustam
Urolovich**

Dotsent, texnika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), Qarshi
davlat texnika universiteti, Qarshi,
O'zbekiston
E-mail: rustamnordorov@mail.ru
ORCID ID: 0009-0000-6987-8995
Science ID: FQD-0425-0028

Annotatsiya. Ushbu maqolada kaliyli konlarda qazib olish chuqurligi ortib borishi sharoitida silvinit rudalarini kamerali qazib olish tizimi parametrlarini geomexanik moslashtirish va nazariy asoslash masalalari Tyubegatan kaliy tuzlari koni misolida tadqiq etilgan. Sanoat qatlamlari va ularni o'rab turgan tog' jinslarining fizik-mexanik xossalari, tabiiy va texnogen kuchlanishlar, tektonik omillar, qatlamlarning yotish chuqurligi va qalinligi hamda yaqin joylashgan qatlamlarni qazib olishning o'zaro ta'siri baholangan. “PRESS 3D URAL” dasturiy majmuasi yordamida tog'-kon ishlari rivojlanishining turli sxemalari uchun kuchlanishlar konsentratsiyasi tahlil qilingan. Qazib olish chuqurligi 500–1000 m oralig'ida o'zgarganda kameralararo seliklarning barqarorligini ta'minlovchi parametrlar geomexanik jihatdan asoslangan. Amaldagi Galurgiya instituti uslubiyati va taklif etilayotgan hisoblash usuli bo'yicha olingan natijalar qiyosiy tahlil qilinib, kameralararo seliklarning minimal ruxsat etilgan kengliklari aniqlangan. Taklif etilgan yondashuv seliklarning 50 yillik me'yoriy xizmat muddatini ta'minlagan holda kameralararo seliklarda qoldiriladigan ruda nobudgarchiligini 15–20% ga kamaytirish imkonini berishi aniqlangan. Olingan natijalar katta chuqurliklarda kaliy rudalarini xavfsiz va samarali qazib olish parametrlarini optimallashtirish uchun ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.
Kalit so'zlar: kaliy koni, silvinit rudasi, Tyubegatan koni, qazib olish chuqurligi, kamerali qazib olish tizimi, kameralararo selik, geomexanika, kon bosimi, kuchlanishlar konsentratsiyasi, tog' jinslari massivi, selik barqarorligi, ruda nobudgarchiligi.

Received: 01.07.2026

Accepted: 10.09.2026

Issue publication: 28.09.2026

ГЕОМЕХАНИЧЕСКАЯ АДАПТАЦИЯ И ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ ОБОСНОВАНИЕ ПАРАМЕТРОВ СИСТЕМЫ РАЗРАБОТКИ СИЛЬВИНИТОВЫХ РУД ПРИ УВЕЛИЧЕНИИ ГЛУБИНЫ РАЗРАБОТКИ КАЛИЙНЫХ МЕСТОРОЖДЕНИЙ

**Каримов Ёкуб
Латипович**

Доцент, доктор философии по
техническим наукам (PhD),
Каршинский государственный
технический университет,
Карши, Узбекистан

**Жумаев Илхом
Кудратович**

Главный инженер
горнодобывающего комплекса АО
«Дехканабадский калийный
завод», Дехканабад, Узбекистан

**Олимов Фарухсон
Музаффар угли**

Доцент, доктор философии по
техническим наукам (PhD),
Каршинский государственный
технический университет,
Карши, Узбекистан

**Номдоров Рустам
Уролович**

Доцент, доктор философии по
техническим наукам (PhD),
Каршинский государственный
технический университет,
Карши, Узбекистан

Аннотация. В статье исследованы вопросы геомеханической адаптации и теоретического обоснования параметров камерной системы разработки силвинитовых руд при увеличении глубины ведения горных работ на примере Тюбегатанского месторождения калийных солей. Выполнена оценка физико-механических свойств промышленных пластов и вмещающих пород, естественных и техногенных напряжений, тектонических факторов, глубины и мощности залегания пластов, а также взаимного влияния разработки сближенных пластов. С использованием программного комплекса «PRESS 3D URAL» проанализирована концентрация напряжений при различных схемах развития горных работ. Геомеханически обоснованы параметры межкамерных целиков, обеспечивающие их устойчивость при увеличении глубины разработки от 500 до 1000 м. Проведён сравнительный анализ результатов расчётов по действующей методике института «Галургия» и предлагаемому методу, определены минимально допустимые значения ширины межкамерных целиков. Установлено, что применение предлагаемого подхода позволяет снизить потери руды в межкамерных целиках на 15–20 % при обеспечении их нормативного срока службы 50 лет. Полученные результаты могут быть использованы для оптимизации параметров безопасной и эффективной разработки калийных руд на больших глубинах.

Ключевые слова: калийное месторождение, силвинитовая руда, Тюбегатанское месторождение, глубина разработки, камерная система разработки, межкамерный целик, геомеханика, горное давление, концентрация напряжений, массив горных пород, устойчивость целиков, потери руды.

**GEOMECHANICAL ADAPTATION AND THEORETICAL JUSTIFICATION
OF SYLVINITE ORE MINING SYSTEM PARAMETERS WITH INCREASING
MINING DEPTH IN POTASH DEPOSITS**

**Karimov Yokub
Latipovich**

Associate Professor, Doctor of
Philosophy (PhD) in Technical
Sciences, Karshi State Technical
University, Karshi, Uzbekistan

**Jumaev Ilhom
Kudratovich**

Chief Engineer of the Mining
Complex, JSC “Dehkanabad
Potash Plant”, Dehkanabad,
Uzbekistan

**Olimov Faruskhon
Muzaffar ugli**

Associate Professor, Doctor of
Philosophy (PhD) in Technical
Sciences, Karshi State Technical
University, Karshi, Uzbekistan

**Nomdorov Rustam
Urolovich**

Associate Professor, Doctor of
Philosophy (PhD) in Technical
Sciences, Karshi State Technical
University, Karshi, Uzbekistan

Abstract. This article investigates the geomechanical adaptation and theoretical justification of room-and-pillar mining system parameters for sylvinitic ores under conditions of increasing mining depth, using the Tyubegatan potash deposit as a case study. The physical and mechanical properties of the productive seams and surrounding rocks, natural and mining-induced stresses, tectonic factors, seam depth and thickness, and the interaction between closely spaced mined seams are evaluated. The “PRESS 3D URAL” software package was used to analyze stress concentration under different mining development schemes. The parameters of inter-chamber pillars required to maintain stability at mining depths ranging from 500 to 1000 m were geomechanically substantiated. The results obtained using the existing methodology of the Galurgiya Institute were compared with those derived from the proposed calculation method, and the minimum permissible widths of inter-chamber pillars were determined. The proposed approach was found to reduce ore losses in inter-chamber pillars by 15–20% while maintaining a design service life of 50 years. The obtained results provide a scientific and practical basis for optimizing the

parameters of safe and efficient potash ore extraction at greater mining depths.

Keywords: potash deposit, sylvinit ore, Tyubegatan deposit, mining depth, room-and-pillar mining system, inter-chamber pillar, geomechanics, mine pressure, stress concentration, rock mass, pillar stability, ore losses.

Kirish. Rudnik loyihasi “Galurgiya” OAJ tomonidan ishlab chiqilgan. Loyihani ishlab chiqishda “Geoproqnoz” MChJ “NPF” tomonidan tayyorlangan “Dehqonobod kaliyli o’g’itlar zavodi konchilik majmuasini loyihalash uchun geologik boshlang’ich ma’lumotlar” va “Galurgiya” OAJ tomonidan tayyorlangan “Tyubegatan kaliy tuzlari konini qazib olishni loyihalash uchun boshlang’ich ma’lumotlar” dan foydalanilgan. Ushbu ishlar Tyubegatan kaliy tuzlari konini qidirish, qo’shimcha qidirish va boshqa tadqiqotlar hisobotlaridagi amaliy ma’lumotlar asosida bajarilgan. Ushbu ishlarda sanoat qatlamining yotishidagi kon-geologik sharoitlar yetarli darajada o’rganilmagani qayd etilgan. Bu silvinit rudalari va ularni o’rab turgan jinslarning fizik-mexanik xossalariga, suvdan himoyalovchi qatlam tuzilishiga, foydali qazilma tanasining morfologiyasiga, qatlamlararo sho’r suvlarning mavjudligiga, Quyi II qatlam ishchi qismining bevosita shipi barqarorligiga va kameralararo seliklarning parametrlarini tanlashda katta ahamiyatga egadir [1-3].

2010-yilda qiya stvollar o’tkazilgan va Quyi II sanoat qatlami ochilgan. O’tilgan lahimlarda geologik tadqiqotlar bajarilgan hamda ularning fizik-mexanik xususiyatlarini aniqlash uchun sanoat qatlamidan va uni o’rab turgan jinslardan na’munalar olingan. Ushbu tadqiqotlar asosida «Galurgiya» OAJ tajriba paneli uchun qazib olish tizimi parametrlarini hisoblab chiqilgan va birinchi navbatda qazib olinadigan butun uchastka uchun 700 m chuqurlikkacha qazib olish tizimi parametrlarining mumkin bo’lgan variantlari bo’yicha tavsiyalar berilgan.

Mazkur olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari jarayonida olingan natijalar Tyubegatan kaliy tuzlari konining 1000 m chuqurlikkacha, xizmat muddati 50 yil bo’lgan holda qazib olishga nisbatan kameralararo seliklar parametrlarini geomexanik asoslash natijalari keltirilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Jins va ruda namunalari fizik-mexanik xossalarini sinash ma’lumotlari. Qashqadaryo GQE ma’lumotlariga

ko’ra, tuz jinslari namunalarining fizik-mexanik tavsiflarining o’rtacha qiymatlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Tuz jinslarining fizik-mexanik tavsiflari


Skvajina raqami	Birligi	Siqishdagi chidamlilik ko’rsatkichi, $\sigma_{сж}$ МПа
BzK-1	O’rtacha	21,59
	Min	5,89
	Max	23,91
BzK-2	O’rtacha	24,80
	Min	21,79
	Max	29,57
BzK-3	O’rtacha	25,74
	Min	22,00
	Max	29,57
BzK-5	O’rtacha	24,68
	Min	20,88
	Max	28,49
BzK-7	O’rtacha	27,35
	Min	16,93
	Max	32,87

Hisoblash uchun yuqorida yotuvchi o’rab turgan jinslarning hajmiy og’irligi $\gamma = 2,5 \text{ t/m}^3$ qabul qilinadi.

Jinslarning strukturaviy zaiflashish koeffitsiyentining hisobiy ko’rsatkichini quyidagicha tanlaymiz. Konning birinchi navbatda qazib olinadigan uchastkasining katta qismida (~ maydonning 75 foizida) qatlamning bevosita shipi yuqori plastiklik va mustahkamlikka ega bo’lgan yaxlit tosh tuzidan tashkil topgan. Bu xususiyat jinslar shipi ochilganda cho’zilish jarayonida yuzaga keladigan yoriqlilikning zararli ta’sirini o’z-o’zidan bartaraf etish hamda birlamchi va ikkilamchi yoriqlarni bitirish imkonini beradi. Shuningdek, bevosita ship yuqori mexanik mustahkamlikka ega bo’lgan qalinligi 0,3 m gacha bo’lgan ikkilamchi angidrit qatlamchasidan tashkil topgan. Hisoblash uchun jinslarning strukturaviy zaiflashish koeffitsiyenti $K_{ср} = 1$ qabul qilinadi.

Jinslarning siqilishga mustahkamlik chegarasining hisobiy qiymatini quyidagicha tanlaymiz. Tog’ jinslarining siqilishdagi mustahkamlik chegarasining tavsiya etiladigan qiymatlari 21,59–27,35 MPa diapazonida o’zgaradi. Hisoblash uchun tuz jinslarining siqilishga mustahkamligi minimal qiymat bo’yicha (eng noqulay sharoitlar) $\sigma_{сж} = 22 \text{ MPa}$ qabul qilinadi.

Kon bosimining tabiiy kuchlanishlar maydonidagi gorizonttal tashkil etuvchisi ta'sirini hisobga oluvchi hisobiy koeffitsiyentni quyidagicha tanlaymiz. Mintaqaviy aerokosmogeologik tadqiqotlar natijalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, kon uchastkasida poydevor va cho'kindi qoplamasining taxmin qilinayotgan tektonik buzilishlari asosida yirik chiziqli zonalar bashorat qilinmoqda (1-rasm).




1-rasm. Tyubegatan kaliy tuzlari konining geodinamik faol zonalar xaritasi (Kopylov I.S.).

Kon va unga tutash hududda turli darajadagi 2150 dan ortiq to'g'ri chiziqli tektonik yoriqlar, ustun shimoli-sharqiy va shimoli-g'arbiy yo'nalishlar, shuningdek, yoysimon yoriqlar va halqasimon tuzilmalar ajratilgan. Kaliy rudalarini qazib olish bo'yicha tog'-texnologik ishlar eng yirik — Tuyashsay (Tuyabashsay) geodinamik favqulodda yuqori faol zonasining noqulay sharoitlarida mavjudligi aniqlandi.

Shu bilan birga, kon maydonida massivning tabiiy kuchlanish holatini dala tadqiqotlari o'tkazilmagan. Shuning uchun hozirgi bosqichda uni baholashning yagona imkoniyati Yer po'stining kuchlanish holatini o'rganish bo'yicha xalqaro World Stress Map WSM loyihasi ma'lumotlar bazasidan foydalanishdir. WSM xaritasidan ko'rinadiki, kon hududida seysmologik ma'lumotlarga ko'ra bir qator zilzilalar qayd etilgan. Zilzilaning fokal mexanizmi massivning tabiiy kuchlanish holatini tavsiflaydi. Bu holat tektonik uzilishlarning tashlama-siljishlar va surilma-siljishlar ko'rinishida hosil bo'lish rejimiga mos keladi (2-rasm).

Tyubegatan kaliy tuzlari koni (WSM ma'lumotlari bo'yicha) tashlama-siljishlar va surilma-siljishlarda miqdor jihatidan eng katta kuchlanishlar gorizonttal tektonik kuchlanishlardir. Hisoblash uchun tektonik buzilishlar ta'siridan yuzaga keladigan maksimal gorizonttal

kuchlanishlar $\lambda_T=1,25$ qabul qilinadi. Bu tektonik kuchlanishli zonalarida konlarni o'zlashtirish tajribasi tahliliga asoslangan.



2-rasm. Tabiiy kuchlanish holati xaritasi.

Tuz qatlamlarining hisobiy yotish burchagi va qalinligini quyidagicha tanlaymiz. Qazib olish ishlari natijalariga ko'ra, qatlamlarning yotish burchagi 10 dan 27 gradusgacha o'zgaradi.

Hisoblash uchun kon yotqizig'ining minimal yotish burchagi $\alpha=10^0$ qabul qilinadi (seliklarning ko'ndalang kesimiga tushadigan yuklamalar bo'yicha eng noqulay sharoitlar).

Qazish va kon-tayyorlov ishlari olib boriladigan uchastkada HIIA-HIIB qatlamlararo qatlamining qalinligi 5–9 m ni tashkil etadi, bu HIIA va HIIB silvinit qatlamlarini alohida qazib olish imkonini belgilaydi. Zaxiralarni qazib olish uchun ikki qatlamli qazib olish ko'zda tutilgan – H-IIA qatlami Урал-20P kombayni bilan, H-IIБ qatlami Урал-20P va Урал-10A kombaynlari bilan kamerani yon tomondan qo'shimcha kesib, ikki yurishda qazib olish orqali qazib olinadi. Qazib olinadigan qalinliklar quyidagicha: H-IIA qatlami – 3,1 m, 4,0 m, 5,0 m; H-IIБ qatlami – 2,4 m, 3,1 m.

Qazib olishning hisobiy chuqurligini quyidagicha tanlaymiz. Quyi II silvinit qatlamining yotish chuqurligi 1000 m ni tashkil etadi. Seliklarning parametrlari 1000 m chuqurlikkacha aniqlanadi.


Lahimlarning ko'ndalang kesimi parameterlarini quyidagicha tanlaymiz. Hisoblash uchun quyidagilar qabul qilinadi: lahim kengligi $a = 5,5$ m, lahim balandligi qatlam yotqizig'ining qazib olinadigan qalinligiga teng deb qabul qilinadi.

Konning gidrogeologik sharoitlarini quyidagicha baholaymiz. Tuz qatlamida suvli gorizontlar mavjud bo'lmagani sababli, tuz qatlamining (galit kichik qatlamining) va tuz qatlamining ichidagi suvli gorizontlarning suvga to'yinganligi aniqlanmagan. Quduqlar stvollariga qatlam ichidagi sho'r suvlarning kirib kelishi ham aniqlanmagan. Hisob-kitoblarda suvlanganlik omili

hisobga olinmaydi.


Natijalar. Yaqin joylashgan tuz qatlamlarini qazib olishda texnogen kuchlanishlar maydoni ta'sirini quyidagicha baholaymiz. Yaqin joylashgan qatlamlarning o'zaro ta'sir darajasini baholash uchun bir-biridan 5–6 m masofada joylashgan yaqin qatlamlarni qazib olish sxemasi ko'rib chiqildi (3-rasm).

Ishlab chiqilgan aralashma tarkibining termik barqarorligi, mustahkamligi pasaymagan holda, kamida 600 °C ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich polimer ampulalarga nisbatan 4 martadan ortiq yuqori: polimer ampulalarda erish harorati 165 °C, alanganish harorati esa 300 °C ni tashkil etadi. Mineral kompozitsiyali ikki komponentli ampulalardan hosil bo'lgan mahkamlovchi vtulkaning reologik xususiyatlari vaqt o'tishi bilan, polimer tarkibli ampulalardan farqli ravishda, o'zgarmaydi. Polimer tarkibli ampulalarda esa mahkamlovchi vtulkaning mustahkamligi shaxta sharoitida foydalanishning ikkinchi yilidayoq pasaya boshlaydi, bu esa tarkibning cho'kishi hisobiga yuzaga keladi [5].

Yer osti kon lahimlarida kimyoviy ampulaning zichligi tog' jinsining siqilishiga bog'liq holda o'zgarib boradi.



2-rasm. Mineral kompozitsiyali ikki komponentli ampula zichligining anker mahkamlash mustahkamligiga ta'siri.

Yer osti kon lahimlarini mustahkamlashda ampula zichligiga bog'liqlik grafigini ko'rishimiz mumkin.

Mineral kompozitsiyali ikki komponentli ampulalarning polimer ampulalarga nisbatan asosiy texnik afzalliklari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Mineral kompozitsiyali ikki komponentli va polimer ampulalarning texnik-ekspluatatsion xususiyatlarini qiyosiy baholash

Ko'rsatkichlar	Mineral kompozitsiyali ikki komponentli ampula	Polimer ampula
Zaharli bug'larning ajralib chiqishi	Ajralib chiqmaydi	Ajralib chiqadi
Ankerlarning ishonchli mahkamlanishi	Mustahkam	Mustahkam
Mahkamlovchi materialning yonmasligi va yonishni qo'llab-quvvatlamasligi	Mavjud	Mavjud emas
Mahkamlangandan 30 daqiqa o'tgach ankerning hisobiy yuk ko'tarish qobiliyatini ta'minlashi	Mavjud	Mavjud
Uzoq muddat xizmat qiladigan (5 yil va undan ortiq) tog'-kon lahimlarida ankerli mahkamlashning ishga yaroqliligi	Mavjud	Mahkamlash qobiliyatini davriy nazorat qilish talab etiladi
Shpurga ampula tarkibini aralashtirish operatsiyasi	Mavjud emas	Majburiy
Ampulani saqlash muddati	12 oy	6 oygacha
Ampulani saqlash harorati	-50 °C dan +50 °C gacha	+4 °C dan +20 °C gacha
Nam (suvli) jinslarda ishlash qobiliyati	Mavjud	Mavjud emas

Ankerli mahkamlash ishlaridan so'ng mineral kompozitsiyali ikki komponentli ampulalarni suvda oldindan ivitish zaruratisiz shpurlarga joylashtirish imkonini beradi. Mineral kompozitsiyali ikki komponentli ampulalardan foydalanish samaradorligi, ya'ni namlangan shpurlarda kon lahimlarini mustahkamlash imkoniyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- namlangan sharoitlarda mahkamlash samaradorligi;
- kon lahimlarini o'tishda mahkamlashdan foydalanish qulayligi;
- osma monorels yo'llari uchun ankerlardan foydalanish imkoniyati, shuningdek, siklik yuklamalar ta'sirida mahkamlash mustahkamligining ishonchiligi.

Natijalar: Olib borilgan tahlil natijalari mineral kompozitsiyali ikki komponentli ampulalardan foydalanish yer osti kon lahimlarini ankerli mustahkamlashda texnologik va ekspluatatsion jihatdan samarali ekanligini ko'rsatdi. Ampula tarkibidagi komponentlar o'rnatish jarayonida mahkamlovchi element bilan aralashtiriladi va mineral kompozitsiyaning gidratatsiyasi natijasida mahkamlovchi vtulkaning butun hajmi bo'ylab qotish jarayoni sodir bo'ladi. Bu ankerga dastlabki taranglik berish hamda uni tog' jinsi massivida

ishonchli mahkamlash imkonini beradi.

Mineral kompozitsiyali ikki komponentli ampulalarning muhim texnologik afzalligi shundaki, ular uchun kichik diametrli (27–30 mm) shpurlar burg‘ilanishi mumkin, shurning tubigacha kerakli miqdordagi ampulalar joylashtiriladi va o‘rnatish jarayoni bir tekis aylanish rejimida 8–10 soniya davomida bajariladi. Ampula tarkibining qotishini alohida kutish talab etilmasligi ankerli mustahkamlash ishlarining tezkorligini oshiradi.

Ampula zichligining mahkamlash mustahkamligiga ta’siri bo‘yicha keltirilgan grafik ma’lumotlar zichlik ortishi bilan mahkamlash mustahkamligi muntazam ravishda oshishini ko‘rsatadi. Ampula zichligi 600 kg/m³ dan 2000 kg/m³ gacha oshirilganda, mahkamlash mustahkamligi taxminan 8,2 MPa dan 36,8 MPa gacha ortgan. Bu natija mineral kompozitsiya zichligini ankerli mahkamlanish qobiliyatini belgilovchi muhim texnologik ko‘rsatkichlardan biri sifatida baholash imkonini beradi.

Taqqoslash natijalari mineral kompozitsiyali ampulalar zararli bug‘lar ajratib chiqarmasligi, nam jinslarda ishlash imkoniyati, shpurlarda komponentlarni oldindan aralashtirish zaruratining yo‘qligi va uzoq muddat davomida mahkamlash qobiliyatini saqlashi bilan polimer ampulalarga nisbatan

afzallikka ega ekanligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, namlangan shpurlarda ampulalarni oldindan suvda ivitmasdan joylashtirish imkoniyati yer osti sharoitida texnologik jarayonni soddalashtiradi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqotlar mineral kompozitsiyali ikki komponentli ampulalardan foydalanish yer osti kon lahimlarini ankerli mustahkamlashning texnologik samaradorligi va ishonchliligini oshirishini ko‘rsatdi. Ampula zichligining 600–2000 kg/m³ oralig‘ida ortishi mahkamlash mustahkamligini 8,2 MPa dan 36,8 MPa gacha oshirishi aniqlangan. Mineral kompozitsiyali ampulalar yuqori termik barqarorligi, yonmasligi, nam shpurlarda ishlash imkoniyati hamda uzoq muddat davomida mahkamlash xususiyatlarini saqlashi bilan polimer ampulalarga nisbatan qator afzalliklarga ega. Kichik diametrli shpurlardan foydalanish va ankerlarni qisqa vaqt ichida o‘rnatish imkoniyati mustahkamlash jarayonini soddalashtirib, ishlarning tezkorligini oshiradi. Olingan natijalar mineral kompozitsiyali ikki komponentli ampulalarni murakkab kon-geologik sharoitlarda yer osti kon lahimlarining barqarorligi va xavfsizligini ta’minlash uchun samarali va istiqbolli mustahkamlash vositasi sifatida qo‘llash mumkinligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- [1] Касторных, Л. И. (2007). Добавки в бетоны и строительные растворы: Учебно-справочное пособие (2-е изд.). Феникс.
- [2] Брыков, А. С. (2009). Силикатные растворы и их применение: Учебное пособие. СПбГТИ(ТУ).
- [3] Мальцев, В. И., & Утрялов, О. А. (2007). Крепление горных выработок угольных шахт сталеполимерной анкерной крепью (В. В. Сеникус, Ред.). Наука.
- [4] Melikulov, A., Khasanov, O., Bakirov, G., Alimov, Sh., & Nurkhanov, H. (2025). Analysis of numerical calculation of rock pressure in underground mining works. AIP Conference Proceedings, 3304, 030060. <https://doi.org/10.1063/5.0269350>
- [5] Bakirov, G., Abdishukurovich, H., & Nurxonov, X. (2023). Assessment of the working conditions of a metal frame reinforced bender and control of its mode. Sanoatda Raqamli Texnologiyalar, 1(1), 64–70. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8374187>

Maqolaga iqtibos keltirish | Как цитировать статью | How to cite this article

Mislibayev, I. T., Bo‘riyev, F. M., Nizomov, T. N., & Nurxonov, X. A. (2026). Yer osti kon lahimlarini ankerli mustahkamlashda mineral kompozitsiyali ikki komponentli ampulalarning samaradorligini baholash. Sanoatda raqamli texnologiyalar, 4(3). <https://doi.org/10.70769/3030-3214.SRT.4.3.2026.30>

UO‘K: 621.671:532.526

 10.70769/3030-3214.SRT.4.3.2026.31

© 2026 Authors. Licensed under CC BY 4.0

<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

MARKAZDAN QOCHMA NASOS ISHCHI G‘ILDIRAGI KURAKLARINING YUZA TEKSTURASINI QIYOSIY TAHLIL QILISH VA SONLI BAHOLASH METODOLOGIYASI



Qurbonov Oybek Muhammadqulovich

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti doktoranti, Navoiy, O‘zbekiston

E-mail: agent7001.oq@gmail.com

ORCID ID: 0009-0000-7699-0520

Science ID: FNV-0525-0033

Annotatsiya. Markazdan qochma nasoslarning gidravlik foydali ish koeffitsiyentini (FIK) oshirish energiya tejashning ustuvor vazifasi bo‘lib qolmoqda. Devor oldi oqimini boshqarishning istiqbolli passiv vositalaridan biri esa kuraklar yuzasini sun‘iy teksturalash hisoblanadi. Mazkur ishda teksturalarning ikki raqobatdosh oilasi — lokal chuqurchalar va bo‘ylama ariqchalar — modifikatsiyalangan yuzalar hamda aylanuvchi turbomashinaning oqim qismidagi oqimga doir to‘rtta mustaqil tadqiqot asosida qiyosiy tahlil qilingan. Chuqurchalar girdob hosil bo‘lishini, turbulent ko‘chishni kuchaytirishi va odatda ishqalanishni oshirishi, bo‘ylama ariqchalar esa ma‘lum bir parametrlar oralig‘ida oqim yadrosini qayta tuzib, urinma kuchlanishni pasaytirishi ko‘rsatilgan. Asosiy ziddiyat shundan iboratki, teksturalarning ikki oilasi bir-biriga mos kelmaydigan maqsadli funksiyalar (issiqlik uzatishga qarshi qarshilik) bo‘yicha va qo‘zg‘almas obyektlarda o‘rganilgan, holbuki ishchi g‘ildirakning vazifasi aylanuvchi egri chiziqli kanaldagi gidravlik yo‘qotishlarni minimallashtirishni talab qiladi. Kurakdagi teksturalarni qiyosiy baholashning yagona hisoblash metodologiyasi taklif etilgan bo‘lib, u o‘zida TEF-tipidagi murosali metrika, ishqalanish modifikatsiyasi koeffitsiyenti va aylanuvchi g‘ildirakni CFD-modellashtirishning ish jarayonini birlashtiradi. Ilmiy bo‘shliq, mexanizmlarni ko‘chirish gipotezalari va hisoblash tajribasi rejasi ta‘riflab berilgan.

Kalit so‘zlar: markazdan qochma nasos, ishchi g‘ildirak, sirtni teksturalash, sun‘iy chuqurchalar, bo‘ylama ariqchalar, gidravlik yo‘qotishlar, ishqalanishni modifikatsiyalash koeffitsiyenti, uyurmali struktura, hisoblash gidrodinamikasi, $k-\omega$ SST turbulentlik modeli, termogidravlik samaradorlik koeffitsiyenti.

Received: 03.09.2026

Accepted: 13.09.2026

Issue publication: 28.09.2026

МЕТОДОЛОГИЯ СРАВНИТЕЛЬНОГО АНАЛИЗА И ЧИСЛЕННОЙ ОЦЕНКИ ТЕКСТУРЫ ПОВЕРХНОСТИ ЛОПАТОК РАБОЧЕГО КОЛЕСА ЦЕНТРОБЕЖНОГО НАСОСА

Қурбонов Ойбек Мухаммадқулович

Докторант Навоийского государственного горно-технологического университета, Навои, Узбекистан

Аннотация. Повышение гидравлического коэффициента полезного действия (КПД) центробежных насосов остаётся приоритетной задачей энергосбережения. Одним из перспективных пассивных средств управления пристеночным потоком является искусственное текстурирование поверхности лопаток. В данной работе проведён сравнительный анализ двух конкурирующих семейств текстур — локальных лунок и продольных канавок — на основе четырёх независимых исследований модифицированных поверхностей и потоков в проточной части вращающейся турбомашины. Показано, что лунки способствуют образованию вихрей, усиливают турбулентный перенос и обычно повышают трение, тогда как продольные канавки в определённом диапазоне параметров перестраивают ядро потока и снижают касательное напряжение. Основное противоречие заключается в том, что оба семейства текстур исследовались применительно к несовместимым целевым функциям (сопротивлению теплопередаче) и на неподвижных объектах, тогда как функционирование рабочего колеса требует минимизации гидравлических потерь в вращающемся криволинейном канале. Предложена единая расчётная методология сравнительной оценки текстур на лопатках, объединяющая компромиссную метрику типа TEF, коэффициент модификации трения и рабочий процесс CFD-моделирования рабочего колеса. Описаны научный пробел, гипотезы переноса механизмов и план вычислительного эксперимента.

Ключевые слова: центробежный насос, рабочее колесо, текстурирование поверхности, искусственные лунки, продольные канавки, гидравлические потери, коэффициент модификации трения, вихревая структура, вычислительная гидродинамика, $k-\omega$ SST модель турбулентности, коэффициент термогидравлической эффективности.

METHODOLOGY FOR COMPARATIVE ANALYSIS AND NUMERICAL EVALUATION OF THE SURFACE TEXTURE OF CENTRIFUGAL PUMP IMPELLER BLADES

Kurbonov Oybek Muhammadkulovich

Doctoral Student, Navoi State University of Mining and Technologies, Navoi, Uzbekistan

Abstract. Increasing the hydraulic efficiency of centrifugal pumps remains a priority task for energy conservation. One promising passive method of controlling near-wall flow is the artificial texturing of blade surfaces. In this work, two competing families of textures—localized dimples and longitudinal grooves—are comparatively analyzed on the basis of four independent studies concerning modified surfaces and flow in the flow passage of a rotating turbomachine. It is shown that dimples promote vortex formation and turbulent transport and generally increase friction, whereas longitudinal grooves reorganize the flow core within a certain range of parameters and reduce shear stress. The main contradiction is that the two texture families have been studied according to incompatible target functions (resistance to heat transfer) and on stationary objects, whereas the function of an impeller requires minimizing hydraulic losses in a rotating curved channel. A unified computational methodology for the comparative assessment of blade textures is proposed, combining a TEF-type compromise metric, a friction modification coefficient, and a workflow for CFD modeling of an impeller. The scientific gap, hypotheses for transferring the mechanisms, and the computational experimental plan are described.

Keywords: centrifugal pump, impeller, surface texturing, artificial dimples, longitudinal grooves, hydraulic losses, friction modification coefficient, vortex structure, computational fluid dynamics, $k-\omega$ SST turbulence model, thermohydraulic efficiency coefficient.

Kirish. Nasos uskunalarining energiya iste'moli sanoat va qazib olish jarayonlarida salmoqli ulushni tashkil etadi, shu sababli ishchi g'ildirakning gidravlik foydali ish koeffitsiyentini (FIK) o'zgina oshirish ham sezilarli iqtisodiy samara beradi. G'ildirakning oqim qismidagi asosiy

yo'qotishlar devor yaqinidagi qatlamda ishqalanish, oqimning uzilishi va bosim gradienti hamda kuraklar egriligi ta'sirida shakllanadigan ikkilamchi oqimlar bilan bog'liqdir. Sirtni teksturalash vositalari yordamida devor yaqinidagi oqim strukturasini boshqarish qo'shimcha energiya talab qilmaydigan passiv usullarga kiradi, bu esa uni ishchi g'ildirak kuraklari uchun jozibador qiladi.

Hozirgacha to'plangan tajriba o'zaro kam kesishadigan ikkita yo'nalishga bo'linadi. Birinchi yo'nalish girdoblar hosil qilish va turbulentlikni oshirish hisobiga issiqlik almashinuvini jadallash-tiradigan mahalliy chuqurliklarni (o'yiqlarni) o'rganadi; bunda aksariyat konfiguratsiyalarda ishqalanish koeffitsiyenti ham ortadi va bu ikki effekt o'rtasidagi muvozanat *TEF* termogidravlik samaradorlik koeffitsiyenti bilan ifodalanadi [1, 2]. Ikkinchi yo'nalish turbulent oqimda oqim o'zagini qayta shakllantirish hisobiga qarshilikni *kamaytira* oladigan bo'ylama (oqim bo'ylab yo'nalgan) ariqchalarni ko'rib chiqadi, bu esa chuqurliklarning ta'siriga teskaridir [3]. Har ikki yo'nalish ham qo'zg'almas plastinalar va kanallar misolida rivojlantirilgan.

Aylanuvchi turbomashinalarni hisoblash usulida modellashtirishga doir ishlar alohida guruhni tashkil etadi. Ularda maqsadli funktsiya sifatida issiqlik uzatish emas, aynan gidravlik foydali ish koeffitsiyenti olinadi hamda oqim qismining geometriyasini qurishdan tortib, to'rga bog'liqlikni tekshirish va validatsiya qilishgacha bo'lgan to'liq CFD-tahlil sikli ishlab chiqilgan [4]. Biroq bunday ishlarda oqim qismining yuzasi silliq holda qoladi, sun'iy teksturalashning aylanuvchi g'ildirakdagi yo'qotishlarga ta'siri masalasi esa ko'tarilmaydi.

Mazkur yo'nalishlarning qiyoslanishi ilmiy ziddiyatni yuzaga chiqaradi: mohiyatan bir xil bo'lgan yechim — “devorni teksturalash” — teksturaning turi va yo'nalishiga qarab, bir-biriga zid gidravlik oqibatlarga olib keladi, oqibatlarning o'zi esa o'zaro nomutanosib mezonlar asosida va aylanmaydigan obyektlarda baholangan. Bu ma'lum natijalarni ishchi g'ildirak kuragiga bevosita ko'chirish imkonini bermaydi. Ushbu ishning maqsadi chuqurchalar va bo'ylama ariqchalarning ta'sir mexanizmlarini qiyosiy tahlil qilish hamda ularni markazdan qochma nasos ishchi g'ildiragi kuraklari yuzasida gidravlik

yo'qotishlarni minimallashtirish mezonini bo'yicha baholashning yagona raqamli metodologiyasini shakllantirishdan iborat.


Materiallar va metodlar. Ko'rib chiqila-yotgan tadqiqotlarning taqqoslanishi shuni ko'rsatadiki, masala qo'yilishining tashqi o'xshash-ligiga (devoroldi geometriyasining modifikatsiyasi) qaramay, ular maqsad funksiyasi, ta'sir mexanizmi va ishqalanishga ta'sirining ishorasi bilan farqlanadi. Umumlashtirilgan qiyosiy matritsa 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

**To'rtta tadqiqotning qiyosiy matritsasi (1-4)
manbalari ma'lumotlariga ko'ra)**

Belgisi	Chuqurchalar + oqim [1]	Kanaldagi chuqurchalar [2]	Bo'ylama ariqchalar [3]	Turbina g'ildiragi [4]
Tekstura geometriyasi	Silindrsimon chuqurcha	Sferik chuqurcha	Bo'ylama ariqcha	Silliq oqim qismi
Ishchi muhit	Havo	Havo	Suyuqlik	Suv
Maqsad funksiyasi	Issiqlik uzatish (TEF)	Uyurmalar fizikasi	Qarshilik (F)	FIK, quvvat
Model / metod	Eksperiment + k-ε RNG	Eksperiment	RANS k-ω SST + DNS	RANS k-ω SST
Asosiy boshqaruvchi parametr	d, qadam, B masofa	δ/D chuqurlik	α, amplituda S, faza	geometriya, aylanish tezligi
Re diapazoni	1500–14 600	2100–20 000	2648–30 000	20–45 ayl/daqqa rejimlari
Ishqalanishga ta'siri	qoida tariqasida, ortishi	chuqurroq → yo'qotishlar ortadi	parametrlar oralig'ida — kamayishi	—
Mexanizm	chetki uyurma, turbulentlik	uyurma juftliklarining ajralib chiqishi	oqim yadrosining qayta shakllanishi	—
Aylanish / egrilik	yo'q	yo'q	yo'q	ha


1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, [1] va [2] tadqiqotlar **uyurmaviy (aralashtiruvchi) mexanizmi** ta'riflaydi: chuqurcha o'zining markaziy qismidan davriy ravishda birlamchi uyurma juftini chiqarib turadi, unga esa qirralar bo'ylab chetki uyurma juftliklari qo'shiladi; chuqurcha ta'siri devordan uning izi diametrining taxminan yarmigacha bo'lgan masofa bilan chegaralanadi [2]. [3] tadqiqotda esa tubdan farqli, **strimtyub (oqimli naycha) mexanizmi** tasvirlangan: bo'ylama ariqchalar oqim yadrosini kesimning keng qismida yuqori tezlikdagi oqimli naychalarga aylantirib, tor qismdagi urinma kuchlanishni keng qismda ortganiga nisbatan kuchliroq kamaytiradi, bu esa qarshilikning sof pasayishini ta'minlaydi [3]. Har ikki mexanizm 1-rasmda sxematik tarzda qiyoslangan.



1-rasm. Kurak yuzasini teksturalashning ikki raqobatdosh mexanizmi:

a – chuqurchalar; b – bo'ylama ariqchalar.

Uyurmaviy mexanizmning miqdoriy jihatida [1]-ma'lumotlar bilan tasdiqlanadi: silindrsimon chuqurchalarda Nusselt soni barcha rejimlar diapazonida silliq plastina uchun xos qiymatlardan oshadi, uning kattaligi esa oqim–devor masofasi va chuqurcha diametriga keskin bog'liq bo'ladi (2-rasm). Bunda issiqlik uzatishning ortishi ishqalanishning ortishi bilan birga kechadi — maksimal $TEF = 5,5$ ga eng yuqori issiqlik uzatishda emas, balki chuqurchaning kichik diametrda va o'rtacha ishqalanish nisbati $f/f_0 = 4$ bo'lganda erishiladi [1]. Bu shuni ko'rsatadiki, issiqlik almashinuvi emas, balki yo'qotishlar muhim bo'lgan tatbiqlar uchun uyurmaviy mexanizm umuman olganda samarasizdir.




2-rasm. $Re = 14\,600$ bo'lganda silindrsimon chuqurchalarda issiqlik uzatishning jadallashuvi:

a – oqim–devor B masofasining ta'siri; b – chuqurcha d diametrining ta'siri.

Oqim naychalari mexanizmi [3] esa, aksincha, tekstura qarshilikni pasaytiradigan tor parametrlar “oynasi” mavjudligini namoyon etadi. DNS va RANS taqqoslash ma'lumotlariga ko'ra, qat'iy belgilangan bosimlar farqida sarfning o'zgarishi faqat ariqchaning kichik to'lqin sonlaridagina ijobiy (qarshilikning pasayishi) bo'lib, ularning ortishi


bilan o'z ishorasini o'zgartiradi (3-rasm). Turbulent oqimdagi qarshilikning pasayishi sinusoidal ariqchalar uchun taxminan 25 % ga, to'g'ri burchakli ariqchalar uchun esa ~40 % gacha yetadi [3]. Demak, g'ildirak uchun qulay samara yuzaga kelishi mumkin, biroq bu faqat to'g'ri yo'naltirilganda va cheklangan geometrik parametrlar diapazonidagina amalga oshadi.



3-rasm. Bo'ylama ariqchalar yordamida qarshilikni pasaytirish oynasi:

$S = 0,5$; qarama-qarshi fazali joylashuv, $\beta = \pi$.

[2]-ishda uyurma mexanizmi kuchi chuqurlashish darajasi bilan bog'lanadi: u ortgani sari uyurmalilik, sirkulyatsiya va Reynoldsning normal kuchlanishlari, shuningdek, to'liq bosim va bo'ylama tezlik tanqisliklari, ya'ni yo'qotishlar ham ortadi. Uyurmalarining otilish chastotalari (4-rasm) birlamchi juftlik uchun 7–9 Gs, chetki juftlik uchun esa 5–7 Gs oralig'ida bo'lib, chuqurlikka unchalik bog'liq emas, biroq uyurmalar intensivligi chuqurlikka sezilarli darajada bog'liqdir [2]. Demak, chuqurlik uyurma mexanizmining asosiy boshqaruvchi parametri bo'lib xizmat qiladi.




4-rasm. Botiqlikning nisbiy chuqurligiga bog'liq holda uyurmalarining otilish chastotalari.

Nihoyat, [4]-ishda aylanuvchi g'ildirakni

ishonchli sonli baholashga to'g'ri mustaqilligi va validatsiyani majburiy sinovdan o'tkazish sharti bilan RANS k- ω SST modelida erishish mumkinligi, maqsad funksiyasi sifatida esa gidravlik FIK olinishi ko'rsatilgan. Teksturalangan nasos g'ildiragi masalasiga tatbiq etish uchun to'liqlik turbinasi bo'yicha natijalarning o'zi emas, aynan shu ish jarayoni qimmatlidir.

Xulosa qilib aytganda, taqqoslash shuni ko'rsatadiki, to'plangan natijalarni mexanik tarzda birlashtirib bo'lmaydi: botiqlar va ariqchalar yo'qotishlarga ta'sirining ishorasi bo'yicha bir-biriga zid keladi, ular turli mezonlar asosida va aylanmaydigan obyektlarda baholangan, aylana-digan yagona holatda esa tekstura mavjud emas. Bu ushbu ishning tadqiqot obyekti belgilab beruvchi ilmiy bo'shliqni yuzaga keltiradi.

Tahlil uchun material sifatida [1-4] manbalardagi to'rtta mustaqil tadqiqot xizmat qildi. Ular chuqurcha va ariqchali yuzalar ustidan oqim, shuningdek, aylanuvchi ishchi g'ildirakni CFD-modellashtirish bo'yicha eksperimental va sonli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Ishning uslubiy asosi — ushbu ma'lumotlarning qiyosiy sintezini amalga oshirish va shu asosda kuraklardagi teksturalarni baholashning yagona sonli metodologiyasini yaratishdir. Metodologiyaning umumiy mantiqi 5-rasmda keltirilgan.



5-rasm. Kurak teksturasini qiyosiy tadqiq etish uchun taklif etilayotgan metodologiya.

Etalon sifatida asosiy silliq ishchi g'ildirak qabul qilinadi va teksturalangan variantlar unga nisbatan baholanadi. Sonli model [4]-ishda ishlab

chiqilgan ish jarayoni bo'yicha tuziladi: Reynolds bo'yicha o'rtachalashtirilgan uzluksizlik va impuls tenglamalari k- ω SST turbulentlik modeli bilan yopiladi, muhit — suv, g'ildirakning aylanishi aylanuvchi sanoq tizimida hisobga olinadi; to'g'ri bog'liqlikdan holi bo'lish testi va devor oldi y' o'lchamini nazorat qilish hamda keyingi validatsiya [4] majburiy hisoblanadi. k- ω SST modelining tanlanishi [3]-ishga mos keladi, unda bu model tekstura ustidan oqim uchun DNSga nisbatan validatsiya qilingan.

Teksturalar samaradorligini baholash uchta kelishilgan metrikaga asoslanadi. [3]-ishga ko'ra ishqalanishni modifikatsiyalash koeffitsiyenti quyidagicha aniqlanadi:

$$f' = (f_1 - f_0) / f_0 \quad (1)$$

bunda f_1 va f_0 — Reynolds sonining bir xil qiymatida teksturalangan va silliq sirtlarning ishqalanish koeffitsiyentlari; f' ning manfiy qiymati yo'qotishlar kamayishini bildiradi [3]. [1] ga muvofiq, intensivikasiya va ishqalanish o'rtasidagi murosali yechim termogidravlik samaradorlik koeffitsiyenti

$$TEF = (Nu_b / Nu_0) / (f_b / f_0)^{1/3} \quad (2)$$

bu g'ildirak masalasida issiqlik uzatish ko'rsatkichi sifatida emas, balki foydali samara va ishqalanish "jarimasi" nisbatining rasmiy o'lchovi sifatida ishlatiladi. Uchinchi, ya'ni integral metrika sifatida g'ildirakning [4] metodikasi bo'yicha hisoblanadigan gidravlik foydali ish koeffitsiyenti (η) xizmat qiladi. (1), (2) va η ni birgalikda qo'llash tekstura variantlarini yagona yo'qotishlar shkalasi bo'yicha taqqoslash imkonini beradi.

2-jadval

Taklif etilayotgan sonli tajriba rejasi: omillar va darajalar

Omil	Belgilanishi	Darajalar ([1-3] diapazonlari bo'yicha)
Tekstura turi	—	chuqurchalar / bo'ylama ariqchalar
Nisbiy chuqurlik / amplituda	$\delta/D, S$	0,1; 0,2; 0,3 (chuqurchalar); 0,25–1,5 (ariqchalar)
Qadam / to'liqlik soni	E_r, E_0, α	qadam 2d–3d; $\alpha <$ chegaraviy qiymatdan
Yo'nalishi / faza	—	oqimga ko'ndalang / oqim bo'ylab; $\beta = \pi$
Reynolds soni	Re	oqim qismining rejim qiymatlari
Maqsadli funksiyalar	η, f', TEF	minimal yo'qotishlar / maksimal η

O'zgaruvchi omillar fazosi manbalarda belgilangan diapazonlardan shakllantirilgan va 2-jadvalda keltirilgan. Ta'kidlash joizki, jadval

olingan natijalarni emas, balki bo'lajak sonli tajribaning rejasini ifodalaydi.

Tadqiqot algoritmi quyidagilarni o'z ichiga oladi: parrakning bazaviy va teksturalangan geometriyalarini qurish; devor yaqinida zichlashtirilgan geksaedral to'rni generatsiyalash; to'r mustaqilligi testini o'tkazish va y^+ ni nazorat qilish; statsionar va zarur bo'lganda, nostatsionar hisob-kitoblarni bajarish; har bir variant uchun (1), (2) va η metrikalarini hisoblash; gidravlik yo'qotishlarni minimallashtiradigan konfiguratsiyani qiyosiy tanlab olish.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. [1-3] manbalardagi ma'lumotlarni sintez qilish g'ildirak parragidagi har bir teksturaning mexanizmlari, metrikalari va kutilayotgan rolini qiyoslash imkonini beradi (3-jadval). "chuqurchalar" va "bo'ylama ariqchalar" ustunlaridagi belgilar va tendensiyalar qiymatlari [1-3] manbalardagi real ma'lumotlarga asoslanadi; g'ildirakka o'tkazish ustuni esa 3-bo'lim metodikasi bo'yicha sonli eksperiment orqali tekshirishni talab etuvchi asoslangan gipoteza sifatida shakllantirilgan.

3-jadval


Mexanizmlar, metrikalar va nasos g'ildiragiga o'tkazishni qiyoslash

Jihat	Chuqurchalar [1], [2]	Bo'ylama ariqchalar [3]	G'ildirakka o'tkazish (gipoteza)
Birlamchi samara	uyurmalar chiqishi, turbulentlashuv	yadroning oqim naychalariga qayta tuzilishi	parrakning devor oldi qatlamini boshqarish
Metrika	TEF, Nu	f'	η, f'
Yo'qotishlarga ta'sir belgisi	ko'pincha ortish	parametrlar oralig'ida — kamayish	maqsadli — kamayish
Boshqaruvchi parametr	chuqurlik, diametr, qadam	to'lqin soni, amplituda	chuqurlik/amplituda, yo'nalish
Manbaning cheklovi	havo, aylanmasiz	ideal kanal, aylanmasiz	aylanuvchi g'ildirak uchun CFD talab qilinadi

Sintezning birinchi natijasi — yo'qotishlarga ta'sir belgisining qarama-qarshi ekani aniqlanganidir. [1] va [2] manbalaridagi ma'lumotlarga ko'ra, aksariyat konfiguratsiyalarda chuqurchalarning uyurma mexanizmi ishqalanishning ortishi bilan birga kechadi, bu esa g'ildirak uchun yo'qotishlarning ko'payishini anglatadi; aksincha, [3] manbasiga ko'ra, to'lqin sonlarining cheklangan diapazonidagi bo'ylama ariqchalar qarshilikning

kamayishini ta'minlaydi. Bundan kelib chiqadiki, g'ildirakning maqsadli funksiyasi (yo'qotishlarni minimallashtirish) uchun teksturaning bo'ylama yo'nalishi — parametrik oyna (3-rasm) shartlariga rioya qilingan taqdirda — mahalliy chuqurchalarga nisbatan potentsial afzalroqdir.

Ikkinchi natija — chuqurlik/amplitudaning umumiy boshqaruvchi parametr sifatida identifikatsiya qilinishidir. [2] manbadagi ma'lumotlar chuqurchalar chuqurligi ortishi bilan uyurmalar intensivligi va unga hamroh bosim tanqisliklarining monoton o'sishini, [3] manbadagi ma'lumotlar esa qulay oyna doirasida amplituda ortishi bilan ariqchalar samarasining kuchayishini ko'rsatadi. Bu ikkala mexanizmni boshqarishni yagona geometrik parametrga keltirish va rejimlarning sifat xaritasini (6-rasm) tuzish imkonini beradi.



6-rasm. Kurakni teksturalash rejimlari xaritasi: mexanizmlarning sifat sintezi.

Uchinchi natija — metrikalarning uslubiy jihatdan mos kelishidir. Ishqalanishni modifikatsiyalash koeffitsiyenti (1) va koeffitsiyent mantiqi (2) g'ildirakning integral foydali ish koeffitsiyenti η bilan birgalikda qo'llanib, yagona baholash shkalasini hosil qilishi mumkinligi ko'rsatilgan. Bu "issiqlik almashinuvi" va "qarshilik" an'analari o'rtasidagi tafovutni bartaraf etadi hamda har ikki yo'nalish natijalarini nasos masalasi kontekstida solishtirma qilish imkonini beradi.

Shu bilan birga, ishonchlilik chegarasini aniq ko'rsatib o'tish zarur. [1]–[4] manbalarda markazdan qochma nasosning teksturalangan ishchi g'ildiragi uchun foydali ish koeffitsiyenti (FIK), bosim maydonlari va ishqalanish koeffitsiyentining miqdoriy qiymatlari keltirilmagan, qo'zg'almas

plastinalar va kanallardagi ma'lumotlarni aylanuvchi egri chiziqli kanalga o'tkazish esa markazdan qochma va Koriolis kuchlari hamda kuchli bo'ylama bosim gradienti ta'siri tufayli avtomatik tarzda amalga oshmaydi. Shu sababli, bu kattaliklar bo'yicha ishonchli miqdoriy xulosa chiqarish uchun dastlabki ma'lumotlar yetarli emas, degan xulosaga kelish to'g'ri bo'ladi. 2-bo'lim metodikasi bo'yicha teksturali aylanuvchi g'ildirakning CFD-hisob-kitoblari natijalari va ularning model nasosda o'tkaziladigan eksperimental validatsiyasi zarur qo'shimcha ma'lumotlar hisoblanadi.

Yuzaga kelgan holat fizik mexanizmlardagi farqlar bilan izohlanadi. Lokal chuqurcha siljish qatlamining o'yi ustida davriy uzilishiga va uyurmalar juftining ajralib chiqishiga sabab bo'ladi [2]; bu uyurmalar aralashish va issiqlik uzatishni kuchaytiradi [1], biroq ayni vaqtda turbulent energiya hosil bo'lishini va natijada yo'qotishlarni oshiradi. Bo'ylama ariqcha esa bunday turdagi ko'ndalang uyurmalarini hosil qilmaydi, aksincha, bo'ylama impulsni qayta taqsimlab, ho'llangan perimetr bo'yicha o'rtacha urinma kuchlanishni kamaytiradi [3]. Aynan shuning uchun teksturalarning ikki turkumida yo'qotishlarga ta'sir belgilari qarama-qarshidir, bu esa ham [1], [2] ma'lumotlariga (f/f_0 ning ortishi), ham [3] ma'lumotlariga (parametrlar oralig'idagi manfiy f' qiymatlari) mos keladi.

Mazkur yondashuvning avvalgi ishlardan farqi maqsadli funksiyaning o'zgartirilganidadir. [1] va [2]-manbalarda tekstura issiqlik uzatish bo'yicha optimallashtiriladi, bunda ishqalanishning ortishi ehtimoliy holat sifatida TEF orqali hisobga olinadi; [3]-manbada esa qarshilik bo'yicha optimallashtiriladi, biroq bu qo'zg'almas ideal kanalda amalga oshiriladi. Ushbu ikki an'anani g'ildirakka tatbiq etish boshqa bir maqsadni — aylanish vaqtidagi gidravlik yo'qotishlarni minimallashtirishni, shuningdek, [4]-manbada ishonchli raqamli jarayoni ishlab chiqilgan yangi obyektga talab qiladi. Taklif etilayotgan rivojlanish aynan [4]-manbadagi maqsadli funksiyani [1] va [3]-manbalardagi metrikalar bilan birlashtirishdan iborat.

G'ildirak uchun "ariqchali" rejimning afzal ko'rilishining eng ehtimoliy sababi ariqchalar orientatsiyasining kuraklararo kanaldagi nisbiy

oqimning ustun yo'nalishiga mos kelishidadir. Bo'ylama tekstura asosiy oqimga minimal darajada ta'sir ko'rsatib, oqim yadrosini qayta shakllantirishga xizmat qiladi. Chuqurliklar esa ko'ndalang girdoblarni hosil qilib, qo'shimcha yo'qotishlarga olib keladi va bu faqat intensiv issiqlik va massa almashinuvi zarur bo'lgan joylardagina o'zini oqlashi mumkin. Shu bilan birga, kurakning oqim uzilishiga moyil bo'lgan qismlarida mahalliy girdob generatorlari vazifasini o'tovchi chuqurchalar uzilishning oldini olish uchun foydali bo'lishi mumkin — bu masala hozircha ochiq qolib, tekshirishni talab etadi.

Olingan natijalarning amaliy ahamiyati shundaki, ular tadqiqot uchun asosli yo'nalishni belgilab beradi: chuqurlik/amplitudani asosiy boshqaruvchi parametr sifatida hamda (1), (2), η metrikalarining yagona shkalasidan foydalangan holda, birinchi navbatda, to'lqin soni kichik bo'lgan bo'ylama yo'naltirilgan teksturalarni etalon silliq g'ildirak bilan taqqoslash lozim.

Xulosa. To'rtta mustaqil tadqiqotning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatdiki, sun'iy chuqurchalar va bo'ylama ariqchalar yo'qotishlarga ta'siri bo'yicha fizik jihatdan turlicha va qarama-qarshi mexanizmlarni ishga soladi: chuqurchalar uyurma hosil bo'lishini kuchaytirib, odatda ishqalanishni oshirsa, bo'ylama ariqchalar cheklangan parametrlar oralig'ida oqim yadrosini qayta tuzish hisobiga qarshilikni kamaytiradi. Tekstura chuqurligi (amplitudasi) har ikki mexanizmning umumiy boshqaruvchi parametri sifatida ajratib ko'rsatilgan.

Ilmiy bo'shliq aniqlandi: ikki tekstura oilasi yagona maqsadli funktsiya ostida va aylanuvchi obyektga o'zaro taqqoslanmagan, mavjud yagona aylanuvchi obyektga doir tadqiqotda esa teksturalar qo'llanilmagan. Ushbu bo'shliqni to'ldirish maqsadida ishchi g'ildirak parragidagi teksturalarni baholashning yagona raqamli metodologiyasi taklif etildi. U ishqalanish modifikatsiyasi va termogidravlik samaradorlik metrikalarini aylanuvchi turbomashinani CFD-modellashtirishning ish jarayoni bilan birlashtiradi. Shuningdek, ko'chish gipotezalari, rejimlar xaritasi va raqamli tajriba rejasi shakllantirildi.

Teksturalangan g'ildirakning miqdoriy xarakteristikalari (FIK, bosim maydonlari, ishqalanish koeffitsiyenti) dastlabki materiallarda

mavjud emas, shu sababli tegishli qiymatlar keltirilmaydi. Ularni olish taklif etilgan metodika bo'yicha raqamli tajriba o'tkazishni va keyinchalik model nasosida eksperimental validatsiyani talab etadi, bu esa kelgusi ishlarning yo'nalishini belgilab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1] Sriromreun, P., & Sriromreun, P. (2019). A numerical and experimental investigation of dimple effects on heat transfer enhancement with impinging jets. *Energies*, 12(5), Article 813. <https://doi.org/10.3390/en12050813>
- [2] Won, S. Y., & Ligrani, P. M. (2007). Flow characteristics along and above dimpled surfaces with three different dimple depths within a channel. *Journal of Mechanical Science and Technology*, 21(11), 1901–1909.
- [3] DeGroot, C. T., Wang, C., & Floryan, J. M. (2016). Drag reduction due to streamwise grooves in turbulent channel flow. *Journal of Fluids Engineering (ASME)*, 138(12), 121201. <https://doi.org/10.1115/1.4034098>
- [4] Weerakoon, A. H. S., Lee, Y.-H., & Assadi, M. (2023). Wave energy convertor for bilateral offshore wave flows: A computational fluid dynamics (CFD) study. *Sustainability*, 15(9), 7152. <https://doi.org/10.3390/su15097152>

Maqolaga iqtibos keltirish | Как цитировать статью | How to cite this article

Qurbonov, O. M. (2026). Markazdan qochma nasos ishchi g'ildiragi kuraklarining yuza teksturasini qiyosiy tahlil qilish va sonli baholash metodologiyasi. *Sanoatda raqamli texnologiyalar*, 4(3). <https://doi.org/10.70769/3030-3214.SRT.4.3.2026.31>

УДК: 669.2:622.765

 10.70769/3030-3214.SRT.4.3.2026.32

© 2026 Authors. Licensed under CC BY 4.0

<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

ИСТОРИЯ ФОРМИРОВАНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ ПЕРЕРАБОТКИ ОКИСЛЕННЫХ ЗАБАЛАНСОВЫХ РУД МЕСТОРОЖДЕНИЯ КАЛЬМАКЫР



Аскарров Аззам Муратович

Начальник Управления международного сотрудничества и координации инвестиционных проектов и локализации Министерства горнодобывающей промышленности и геологии Республики Узбекистан, Алмалык, Узбекистан
E-mail: A.Askarov@mingeo.uz
ORCID ID: 0009-0001-8116-671X
Science ID: FTV-0926-0030



Ларионов Сергей Владимирович

Главный инженер АО «Алмалыкский горно-металлургический комбинат», Алмалык, Узбекистан
E-mail: s.larionov@agmk.uz
ORCID ID: 0009-0007-0681-6552
Science ID: MTV-0926-0058

Аннотация. Рассмотрены история освоения медно-порфирового месторождения Кальмакыр и предпосылки образования техногенных отвалов окисленных забалансовых руд. Показано, что длительная открытая разработка месторождения сопровождалась селективным складированием сырья, не соответствовавшего требованиям действующей флотационной технологии. На примере отвалов № 9 и № 39 охарактеризован ресурсный потенциал накопленных руд, содержащих медь, золото и серебро. Проанализированы минералогические и технологические особенности окисленного сырья, ограничивающие прямое применение традиционной сульфидной флотации. Обоснованы перспективные направления развития: геолого-технологическое картирование отвалов, раздельная подготовка технологических типов, сернокислотное кучное и чановое выщелачивание, комбинированные схемы извлечения меди и благородных металлов, оборот растворов и цифровой контроль процессов. Результаты лабораторных опытов показывают возможность извлечения 75–80 % меди при чановом выщелачивании, однако промышленная реализация требует укрупнённых испытаний, замкнутого материального баланса и технико-экономического сравнения вариантов.

Ключевые слова: Кальмакыр, окисленные медные руды, забалансовые руды, техногенные отвалы, малахит, хризокolla, кучное выщелачивание, чановое выщелачивание, медь, золото, серебро.

Received: 07.09.2026

Accepted: 13.09.2026

Issue publication: 28.09.2026

QALMOQQIR KONINING OKSIDLANGAN BALANS DAN TASHQARI RUDALARINI SHAKLLANTIRISH TARIXI VA QAYTA ISHLASH ISTIQBOLLARI

Askarov Agzam Muratovich

*O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi,
Xalqaro hamkorlik, investitsiya loyihalarini muvofiqlashtirish va
mahalliyashtirish boshqarmasi boshlig'i, Olmaliq, O'zbekiston*

Larionov Sergey Vladimirovich

*"Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ bosh muhandisi,
Olmaliq, O'zbekiston*

Annotatsiya. Qalmoqqir mis-porfir konini o'zlashtirish tarixi va oksidlangan balansdan tashqari ma'danlarning texnogen uyumlari hosil bo'lishining shart-sharoitlari ko'rib chiqilgan. Konni uzoq vaqt davomida ochiq usulda qazib olish amaldagi flotatsiya texnologiyasi talablariga javob bermaydigan xomashyoni tanlab to'plash bilan birga olib borilganligi ko'rsatilgan. № 9 va № 39 uyumlari misolida tarkibida mis, oltin va kumush bo'lgan to'plangan ma'danlarning resurs salohiyati tavsiflangan. An'anaviy sulfidli flotatsiyani to'g'ridan-to'g'ri qo'llashni cheklaydigan oksidlangan xomashyoning mineralogik va texnologik xususiyatlari tahlil qilingan. Rivojlanishning istiqbolli yo'nalishlari asoslangan: ag'darmalarni geologik-texnologik xaritalash, texnologik turlarni alohida tayyorlash, sulfat kislotali uyumli va chanli tanlab eritish, mis va nodir metallarni ajratib olishning kombinatsiyalangan sxemalari, eritmalar aylanishi va jarayonlarni raqamli nazorat qilish. Laboratoriya tajribalari natijalari shuni ko'rsatadiki, chanli tanlab eritishda 75-80% mis ajratib olish mumkin, biroq sanoatda amalga oshirish uchun yiriklashtirilgan sinovlar, yopiq moddiy balans va variantlarni texnik-iqtisodiy jihatdan taqqoslash talab etiladi.

Kalit so'zlar: Qalmoqqir, oksidlangan mis rudalari, balansdan tashqari rudalar, texnogen ag'darmalar, malaxit, xrizokolla, uyumli tanlab eritish, chanli tanlab eritish, mis, oltin, kumush.

HISTORY OF FORMATION AND PROSPECTS FOR PROCESSING OXIDIZED OFF-BALANCE ORE OF THE KALMAKYR DEPOSIT

Askarov Agzam Muratovich

*Head of the Department for International Cooperation,
Coordination of Investment Projects and Localization, Ministry of
Mining Industry and Geology of the Republic of Uzbekistan,
Almalyk, Uzbekistan*

Larionov Sergey Vladimirovich

*Chief Engineer, JSC "Almalyk Mining and Metallurgical
Complex", Almalyk, Uzbekistan*

Abstract. The history of the development of the Kalmakyr copper-porphyry deposit and the prerequisites for the formation of technogenic dumps of oxidized off-balance ore have been examined. It has been shown that long-term open-pit development of the deposit was accompanied by the selective storage of raw materials that did not meet the requirements of current flotation technology. Using dumps No 9 and No 39, the resource potential of accumulated ores containing copper, gold, and silver is characterized. The mineralogical and technological characteristics of oxidized raw materials, which limit the direct application of traditional sulfide flotation, have been analyzed. Promising development directions have been substantiated: geological and technological mapping of dumps, separate preparation of technological types, sulfuric acid bulk and tank leaching, combined schemes for extracting copper and noble metals, solution circulation, and digital process control. Laboratory experiments show that 75–80% of copper can be extracted during tank leaching, but industrial implementation requires enlarged testing, a closed material balance, and a technical-economic comparison of the variants.

Keywords: Kalmakyr, oxidized copper ores, off-balance ore, technogenic tailings, malachite, chrysocolla, bulk leaching, tank leaching, copper, gold, silver.

Введение. Месторождение Кальмакыр сформировало минерально-сырьевую основу медной промышленности Алмалыка. За десятилетия эксплуатации приоритет отдавался сульфидным медно-молибденовым рудам, пригодным для флотационного обогащения. Окисленные и смешанные разновидности с

пониженным содержанием меди часто относили к забалансовому сырью и складировали во внешних отвалах. Изменение ценности металлов, развитие гидрометаллургии и рост требований к комплексному использованию недр позволяют рассматривать эти накопления как самостоятельный техногенный ресурс.

Цель статьи состоит в обобщении истории формирования отвалов окисленных забалансовых руд Кальмакыра и определении технологических и организационных условий их промышленного освоения.

История освоения месторождения Кальмакыр. Кальмакыр относится к крупным медно-порфировым объектам Алмалыкского рудного района Срединного Тянь-Шаня. Промышленную ценность имеют медь, молибден, золото и серебро, а также сера, селен, теллур и рений. Месторождение разрабатывается открытым способом с транспортированием руды на обогатительные фабрики и вывозом вскрышных пород во внешние отвалы [1].

Строительство карьера началось в 1954 г. Акт о вводе первой очереди рудника был подписан 1 июля 1959 г. Первый проект отработки подготовил институт «Гипруда», а последующее проектирование и расширение выполнял институт «Гипроцветмет». Уже в 1960-е годы росли глубина и масштаб горных работ, обновлялись буровые станки, экскаваторы и транспорт [1].

Таблица 1.

Основные этапы освоения Кальмакыра и развития медного производства

Период	Событие	Значение для окисленных руд
1954	Начало строительства карьера Кальмакыр	Начало масштабного вскрытия верхней окисленной зоны
1 июля 1959	Ввод первой очереди рудника	Переход к систематической промышленной эксплуатации
1960-е годы	Расширение карьера и механизация горных работ	Рост объема селективно складированного некондиционного сырья
1961–1970	Основной период накопления части окисленных руд по опубликованным данным	Формирование крупных техногенных отвалов
2021–2026	Строительство и ввод новых обогатительных мощностей АГМК	Рост потребности в комплексном управлении минерально-сырьевой базой
После 2026	Развитие МОФ-4 и последующих мощностей	Возможность интеграции отдельных гидрометаллургических потоков и инфраструктуры

Развитие производственной базы было ориентировано на устойчивое снабжение медной обогатительной фабрики и медепла-

вильного завода. В этот период технологическая классификация запасов определялась возможностями массовой флотации сульфидного сырья. Окисленные минералы меди хуже взаимодействуют с традиционными сульфидными собирателями; поэтому значительная часть окисленных и смешанных руд не обеспечивала требуемые показатели и складировалась отдельно.

Происхождение и статус забалансовых окисленных руд. Окисленная зона месторождения возникла в результате гипергенного изменения первичных сульфидов в приповерхностных условиях. Медь перераспределялась с образованием малахита, азурита, хризоколлы, куприта, брошантита, псевдомалахита и вторичных сульфидов. Железо представлено гетитом, гидрогетитом и гематитом. Такая минералогическая неоднородность определяет различную растворимость меди и затрудняет применение одного режима ко всему объему сырья.

Понятие «забалансовая руда» отражает экономические и технологические условия конкретного периода. Оно не означает отсутствия полезных компонентов. Руда могла быть отнесена к забалансовой из-за низкого содержания меди, высокой степени окисления, неблагоприятной минералогии, сложностей обогащения или отсутствия отдельной технологической линии. При изменении цен, оборудования и реагентных схем часть таких запасов может перейти в промышленно извлекаемый ресурс.

По опубликованным данным на начало 2000-х годов на АГМК учитывалось около 46 млн т добытой окисленной медной руды, складированной преимущественно в 1961–1970 гг. в девяти отвалах; среднее содержание меди приводилось на уровне 0,455%, а в части балансового сырья — 0,827% [2]. Эти исторические оценки требуют актуализации, поскольку состояние отвалов, контуры, влажность и качество сырья могли измениться.

Ресурсный потенциал отвалов № 9 и № 39. По данным проведенных исследований, в отвалах № 9 и № 39 сосредоточено 5 219,1 тыс. т окисленной руды. Учётное количество составляет 39,4 тыс. т меди, около 6,03 т золота и

19,8 т серебра. В пробах содержание меди изменялось от 0,41 до 0,80% для отвала № 9 и от 0,75 до 0,83% для отвала № 39. Доля сульфидной меди оценена в 10–12%. Золото исследованных пробах составляло 1,40–1,60 г/т и 1,03–1,58 г/т соответственно.

Таблица 2.


**Учётные показатели окисленных руд
отвалов № 9 и № 39**

Отвал	Руда, тыс. т	Медь, тыс. т	Золото, т	Серебро, т	Среднее Cu, %
№ 9	3 806,1	27,4	4,247	13,8	0,720
№ 39	1 413,0	12,0	1,790	6,0	0,849
Всего	5 219,1	39,4	6,037	19,8	—

Минералого - технологические особенности. Исследования вещественного состава показывают, что 92–95% массы окисленных руд образуют породообразующие минералы. Преобладают кварц и полевые шпаты; присутствуют серицит, хлорит, биотит, каолинит и другие глинисто-слюдистые минералы [3]. Суммарное содержание глинисто-слюдистых минералов в отдельных пробах достигает 23,5–32,3%, что повышает склонность материала к ошламованию и ухудшает фильтрацию и перколяцию растворов.

Степень окисления по меди в исследованных пробах оценивалась примерно в 61%, поэтому часть материала фактически относится к смешанным рудам [3]. Это важно для выбора процесса: легкорастворимые карбонатные и оксидные минералы переходят в сернокислый раствор сравнительно быстро, хризокolla и медь в силикатной матрице растворяются медленнее, а остаточные сульфиды требуют окислительных условий.

Для карбонатных минералов типична реакция растворения малахита:



Куприт в сернокислой среде может растворяться с образованием сульфата меди и металлической меди, а присутствие кислорода способствует дальнейшему окислению металлической меди. Породные карбонаты и железосодержащие минералы расходуют кислоту и увеличивают количество примесей в продуктивном растворе. Поэтому расход кислоты нельзя определять только по содержанию меди.

Опыт технологических исследований. Агитационное сернокислотное выщелачивание окисленных руд Кальмакыра исследуется как способ быстрого извлечения меди из тонкоизмельчённого сырья. В работе Д. Б. Холикулова с соавторами рассмотрены влияние крупности и концентрации кислоты, состав раствора и кека [2]. Более поздние исследования И. Б. Турамуратова с соавторами показали извлечение меди 65,9% при кучном и 80 % при чановом выщелачивании в оптимальных условиях [4].

В лабораторных опытах с пробами отвалов № 9 и № 39 при концентрации H_2SO_4 40–50 г/л, отношении Т:Ж = 1:4, продолжительности 1,5–2 ч и подаче воздуха извлечение меди составляло преимущественно 75–80%, а в отдельных пробах достигало более высоких значений. Для руды отвала № 39 при 50 г/л H_2SO_4 , температуре 35–45 °С и продолжительности 2 ч получено 78,6% для класса +1 мм и 79,4% для класса –1 мм. Это указывает на ограниченное влияние крупности в испытанном узком диапазоне при достаточно интенсивном режиме.

После удаления меди твёрдый остаток сохраняет золото и серебро. Испытания показали более высокую результативность цианирования по сравнению с глициновым выщелачиванием: извлечение золота достигало 84–88%, серебра — 42–60%. Такая последовательность требует тщательной промывки и нейтрализации кислого кека перед цианированием, отдельного оборота растворов и обязательного обезвреживания цианид-содержащих продуктов.

Перспективные технологии переработки. Промышленная схема должна учитывать неоднородность отвалов и различие между задачами быстрого извлечения и низкой себестоимости. Чановое выщелачивание обеспечивает высокую скорость и управляемость, но требует тонкого измельчения, большого реакторного объёма, фильтрации и повышенных капитальных затрат. Кучное выщелачивание проще масштабируется для миллионов тонн, однако зависит от проницаемости штабеля, гранулометрии, агломерации и продолжительности цикла.

Таблица 3.
Сравнение направлений переработки окисленных забалансовых руд

Технология	Преимущества	Ограничения	Рациональная область применения
Кучное выщелачивание	Низкие капитальные затраты на единицу руды; большой масштаб	Длительный цикл; каналообразование; чувствительность к шламам	Бедные проницаемые руды после дробления и агломерации
Чановое выщелачивание	Высокая скорость; контроль pH, температуры и аэрации	Тонкое измельчение; реакторы; фильтрация; высокий расход энергии	Более богатые и труднорастворимые селективные партии
Флотация окисленных минералов	Получение концентрата; возможность применения существующей инфраструктуры	Сложная реагентная схема; низкая селективность; хризоколлы; ошламование	Смешанные руды с заметной долей сульфидов
Комбинированная схема	Раздельное извлечение Cu, Au и Ag; гибкость по типам сырья	Несколько контуров растворов; сложный водный баланс	Усредненное сырьё после геометаллургической классификации

Приоритеты дальнейшего развития

- [4] Созонова, Е. В. (2012). Пути разработки технологии обогащения клинкера от вельцевания цинковых кеков. In *Научные исследования в горнометаллургическом производстве: Сборник научных трудов. ВНИИЦВЕТМЕТ*.
- [5] Toshqodirova, R., Jalolov, B., & Abdukarimova, N. (2022). Rux keki va uni velslash usuli bilan qayta ishlashda hosil bo'luvchi mahsulotlar tahlili. *Uzbek Scholar Journal*, 4, 157–164. Maqola
- [6] Бочаров, В. А., & Игнаткина, В. А. (2007). О роли железа и его соединений в процессах обогащения сульфидных руд цветных и благородных металлов. *Известия высших учебных заведений. Цветная металлургия*, (5), 4–12.
- [7] Патент на изобретение № 2356960. Способ переработки отходов цинкового производства. (2006, November 15).
- [8] Букульбаева, Н. С., Эдилканова, М. Э., & Кокаева, Г. А. (n.d.). Обзор технологий переработки клинкера вельц печей. Восточно-Казахстанский государственный технический университет им. Д. Серикбаева.

Maqolaga iqtibos keltirish | Как цитировать статью | How to cite this article

Qayumov, O. A., Uzoqov, Sh. Z., & Larionov, S. V. (2026). Klinkerdan kumush va misni ajratib olish texnologiyasini tadqiq qilish. *Sanoatda raqamli texnologiyalar*, 4(3). <https://doi.org/10.70769/3030-3214.SRT.4.3.2026.33>

УДК: 669.2:622.765

 10.70769/3030-3214.SRT.4.3.2026.35

© 2026 Authors. Licensed under CC BY 4.0

<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СНИЖЕНИЯ ПОТЕРЬ БЛАГОРОДНЫХ МЕТАЛЛОВ ПРИ КОМПЛЕКСНОЙ ПЕРЕРАБОТКЕ МЕДНО- ПОРФИРОВЫХ РУД



Аскарров Азгам Муратович

Начальник Управления международного сотрудничества и координации инвестиционных проектов и локализации Министерства горнодобывающей промышленности и геологии Республики Узбекистан, Алмалык, Узбекистан
E-mail: A.Askarov@mingeo.uz
ORCID ID: 0009-0001-8116-671X
Science ID: FTV-0926-0030



Мамаисакова Зебо Баходир кизи

Базовый докторант филиала НИТУ «МИСИС» в городе Алмалык, Алмалык, Узбекистан
E-mail: mamaisakovazebo@gmail.com
ORCID ID: 0009-0004-2600-092X
Science ID: FTV-0525-0103

Аннотация. В статье рассматриваются вещественный состав и технологические свойства медно-порфировых руд на примере месторождений Центральной Азии, в частности Алмалыкского региона, месторождений «Кальмакыр» и «Ёшлик». Проанализированы механизмы потерь благородных металлов — золота и серебра — как на стадии флотационного обогащения, так и при последующей пирометаллургической переработке. На основе мирового опыта обогатительных предприятий обоснована необходимость перехода от традиционных флотационных схем, обеспечивающих непрерывное извлечение ценных компонентов, к комбинированным гравитационно-флотационным и гидрометаллургическим технологиям.

Ключевые слова: медно-порфировые руды благородные металлы флотационное обогащение извлечение золота халькопирит пиритная концентрация гравитационно-флотационная технология.

Received: 07.09.2026

Accepted: 17.09.2026

Issue publication: 28.09.2026

MIS-PORFIR MINERALLARINI KOMPLEKS QAYTA ISHLASH JARAYONIDA QIMMATBAHO METALLAR YO‘QOTILISHINI KAMAYTIRISHNING TEXNOLOGIK ASOSLARI

Askarov Agzam Muratovich

O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi,
Xalqaro hamkorlik, investitsiya loyihalarini muvofiqlashtirish va
mahalliy lashtirish boshqarmasi boshlig‘i, Olmaliq, O‘zbekiston

Mamaisakova Zebo Bahodir qizi

Tayanch doktorant, Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti
MISISning Olmaliq shahridagi filiali, Olmaliq, O‘zbekiston

Annotatsiya. Maqolada Markaziy Osiyo konlari (xususan, Olmaliq mintaqasi Qalmoqir va “Yoshlik” koni) misolida mis-porfir rudalarining moddiy tarkibi va texnologik xususiyatlari ko‘rib chiqilgan. Flotatsion boyitish bosqichida ham, keyingi pirometallurgik qayta ishlashda ham nodir metallarning (oltin va kumush) yo‘qotilish mexanizmlari tahlil qilingan. Boyitish korxonalarining jahon tajribasi asosida qimmatbaho komponentlarni uzluksiz ajratib olishni ta‘minlaydigan an‘anaviy flotatsion

sxemalardan kombinatsiyalangan gravitatsion-flotatsion va gidrometallurgik texnologiyalarga o'tish zarurligi asoslangan.

Kalit so'zlar: *mis-porfirli rudalar nodir metallar flotatsion boyitish oltin ajratib olish xalkopirit pirit konsentratsiyasi gravitatsion-flotatsion texnologiya.*

TECHNOLOGICAL FOUNDATIONS OF REDUCING LOSSES OF PRECIOUS METALS DURING COMPREHENSIVE PROCESSING OF COPPER-PORPHYRY MINERALS

Askarov Agzam Muratovich

Head of the Department for International Cooperation,
Coordination of Investment Projects and Localization, Ministry of
Mining Industry and Geology of the Republic of Uzbekistan,
Almalyk, Uzbekistan

Mamaisakova Zebo Bahodir kizi

Basic Doctoral Student, Almalyk Branch of National University of
Science and Technology "MISIS", Almalyk, Uzbekistan

Abstract. *The article examines the material composition and technological characteristics of copper-porphyry ores using the Central Asian deposits—specifically, the Kalmakyr and "Yoshlik" deposits in the Almalyk region—as examples. The mechanisms of rare-metal (gold and silver) losses were analyzed both at the flotation-enrichment stage and during subsequent pyrometallurgical processing. Based on the global experience of processing enterprises, the need to transition from traditional flotation schemes, which ensure the continuous recovery of valuable components, to combined gravity-flotation and hydrometallurgical technologies has been substantiated.*

Keywords: *copper-porphyry ores noble metals flotation enrichment gold extraction chalcopyrite pyrite concentration gravity-flotation technology.*

Введение. Минерально-сырьевая база цветной металлургии в значительной степени опирается на переработку полиметаллических руд сложного вещественного состава. Среди них доминирующее положение занимают руды медно-порфирового типа, обеспечивающие более 65% мировой добычи меди и значительную долю попутного золота и молибдена. Характерной особенностью данных месторождений является штокверковый тип оруденения, огромные объемы рудных тел и относительно невысокое содержание полезных компонентов, что предопределяет необходимость переработки больших объемов горной массы [1].

В условиях Республики Узбекистан (в частности, при освоении крупного месторождения «Ёшлик I») комплексное извлечение попутных благородных металлов является приоритетной экономической и технологической задачей. Традиционные монотехнологии, ориентированные исключительно на флотационное выделение сульфидов меди, достигают своего технологического предела, оставляя существенную часть золота в отвальных продуктах [1,3-4].

Минералого-технологическая характеристика руд и формы нахождения золота. Эффективность обогащения полиметаллических медных руд, прежде всего, зависит от их минералогического состава, характера сростания минералов и характера вкрапленности ценных компонентов. В первичных рудах основными рудными минералами меди являются халькопирит (CuFeS_2) и борнит (Cu_5FeS_4), а молибден представлен молибденитом (MoS_2). Вмещающие породы преимущественно состоят из кварца и силикатов, доля которых достигает 88,5 % [2].

Руда характеризуется прожилково-вкрапленной текстурой. Рудные минералы встречаются в кварц-полевошпатовой матрице в виде гнездовых скоплений, тонких прожилков и относительно равномерной вкрапленности.

Количественный минеральный состав руды был рассчитан методом площадей и подтвержден результатами рентгенофазового анализа (РФА). Химический состав и модальный минеральный состав исследованной пробы приведены в таблицах ниже.

Таблица 1.
Химический состав технологической пробы руды

Компонент	Содержание	Метод определения	Технологическое значение
Cu	0,61 %	Йодометрия	Основной извлекаемый компонент
Mo	0,014 %	Колориметрия	Попутный компонент, требует селекции
Au	0,82 г/т	Пробирно-ААС	Критический попутный компонент
Ag	3,60 г/т	Атомно-абсорбционный	Попутный компонент
SiO ₂	62,40 %	Гравиметрия	Абразивность и твердость
Al ₂ O ₃	14,80 %	Комплексонометрия	Шламообразование
Fe	5,10 %	Титриметрия	Связано с пиритом и магнетитом
S	4,25 %	Гравиметрия	Расход коллектора и регулирование pH
CaO	1,90 %	Атомно-эмиссионный	Влияние на расход извести
As	0,003 %	Атомно-эмиссионный	Экологический фактор
Sb	<0,001 %	Атомно-эмиссионный	—

Таблица 2.
Модальный минеральный состав исследуемой пробы

Группа	Минерал	Формула	Массовая доля, %	Примечание
Сульфиды	Пирит		6,50	Основной концентрат упорного Au
	Халькопирит		1,72	Основной минерал меди (90 % Cu)
	Борнит		0,08	Вторичный минерал
	Халькозин/Ковеллин		0,05	Зона окисления
	Молибденит		0,02	Чешуйчатые агрегаты
Нерудные	Магнетит/Гематит		1,50	Оксидные фазы железа
	Кварц		45,30	Основная масса породы
	Полевые шпаты	(K,Na) AlSi ₃ O ₈	26,10	Ортоклаз, плагиоклаз
	Слюды (серицит)		12,50	Источник вторичных шламов
	Карбонаты		2,80	Доломит
	Глинистые (каолинит)		3,43	Сорбенты реагентов
	Итого		100,0	

Согласно данным таблицы 2, основным

сульфидным минералом является пирит, содержание которого составляет 6,50%. Пирит представлен двумя генерациями:

Крупнокристаллический (0,5–2,0 мм) — трещиноватый, представляет собой благоприятную основу для нарастания халькопирита [2-4].

Мелкозернистый (менее 0,05 мм) — часто содержит эмульсионную вкрапленность золота и халькопирита и трудно раскрывается в процессе измельчения.

Основным носителем меди является халькопирит, содержание которого составляет 1,72%. Он образует плотные сростания с пиритом, поэтому для получения кондиционного концентрата требуется тонкое измельчение (до 80–90 % класса –0,074 мм). Молибденит встречается в виде изогнутых чешуек размером 0,01–0,1 мм и часто связан с трещинами в кварце. Это облегчает его раскрытие, однако из-за мягкости создает риск переизмельчения («намазывания») [2].

Такое взаимосвязанное нахождение минералов, особенно распределение золота в различных минеральных ассоциациях, имеет важное значение при выборе схемы обогащения. Поэтому необходимо отдельно рассмотреть формы нахождения золота. В медно-порфировых рудах золото распределено по следующим основным ассоциациям [5-6]:

Свободное золото — около 35 %;

Сростания с халькопиритом — 25 %;

Включения в пирите (упорное золото) — 30 %;

Включения в кварце — 10 %.

Приведенные минералогические особенности показывают, что для данного типа сырья характерна крайне неравномерная и тонкая вкрапленность. Размер сульфидных зерен часто составляет менее 10–20 мкм, поэтому для их полного раскрытия требуется тонкое измельчение руды. Как показано технологическими зависимостями, при увеличении содержания класса –0,074 мм в питании флотации до 80–90 % достигается максимальное извлечение меди (около 89 %) и золота (около 78 %) [6].

Вместе с тем при оценке технологических свойств руды необходимо учитывать, с какими минералами ассоциированы благородные метал-

лы. В медно-порфировых рудах золото и серебро могут находиться как в свободной форме (самородное золото, электрум), так и в «упорной», связанной форме (тонкодисперсные включения в сульфидах). Исследования месторождений Центральной Азии, включая Алмалыкский регион, показывают тесную связь благородных металлов с пиритом и халькопиритом.

Минеральный состав типичной медно-порфировой руды, характерной для месторождений медно-порфирового типа, приведен на рисунке 1.



Рис.1. Средний минеральный состав сульфидной медно-порфировой руды.

Технологические свойства руды непосредственно связаны с описанной выше минералогической структурой и характером вкрапленности ценных компонентов. Для полиметаллических руд, содержащих благородные металлы, характерна крайне неравномерная и тонкая вкрапленность. Размер сульфидных зерен часто изменяется от десятых долей миллиметра до микроскопических включений размером менее 10–20 мкм. Это требует применения сложных схем рудоподготовки для достижения необходимой степени раскрытия минералов перед флотацией.

Анализ форм нахождения золота показывает, что его значительная часть связана с сульфидными минералами. На рисунке 2 приведена диаграмма распределения форм нахождения золота в зависимости от минерал-носителя, что является важным фактором при выборе схемы обогащения.

Как видно из диаграммы, значительная доля золота связана с пиритом. Это создает технологические трудности при получении

кондиционного медного концентрата. Если в процессе флотации не применять специальные реагентные режимы или дополнительные схемы извлечения, часть золота, связанного с пиритом, будет теряться с хвостами.




Рис.2. Распределение форм нахождения золота по минеральным ассоциациям в полиметаллических рудах.

Анализ ограничений базовых схем обогащения. В современной практике переработки медно-порфировых руд доминирует метод коллективно-селективной флотации. При базовом режиме обогащения показатели распределения металлов выглядят следующим образом:

Таблица 3.

Базовые технологические показатели обогащения медно-порфировой руды

Продукт обогащения	Выход, %	Содержание Cu , %	Содержание Au , г/т	Извлечение Cu , %	Извлечение Au , %
Медный концентрат	2,8	24,5	18,4	85,1	62,3
Молибденовый промпродукт	0,45	1,2	5,6	0,65	3,1
Пиритный концентрат	6,5	0,35	2,1	2,8	16,5
Отвальные хвосты	90,25	0,1	0,1	11,45	18,1
Исходная руда	100	0,81	0,83	100	100

Данные таблицы свидетельствуют о невысоком сквозном извлечении золота (всего 62,3%). Основные потери благородного металла происходят с пиритным концентратом (16,5%) и отвальными хвостами (18,1%). Ключевой причиной этого является депрессия пирита известью (CaO) при повышении pH среды до 11–12, что необходимо для получения кондиционного медного концентрата, но неизбежно уводит ассоциированное с пиритом золото в хвосты. Кроме того, чрезмерное повышение щелочности ($\text{pH} > 10,5$) негативно сказывается на флотируемости самого золота.

Потери на стадии обогащения

(отвальные хвосты). Общие потери золота в хвостах флотации классифицируются по трем направлениям:

Инкапсулированное в силикатах золото (38%): механические потери, обусловленные микронными включениями ценного компонента в кварцевой матрице, которые не раскрываются при стандартном помоле.

Связанное с пиритом упорное золото (32%): физико-химические потери, вызванные тонкодисперсной вкрапленностью или твердым раствором золота в депрессируемом железистом сульфиде.

Свободное тонкое золото и шламы менее 20 мкм (20%): гидродинамические потери мелких частиц, обладающих низкой кинетикой флотации. Ситуация усугубляется «эффектом натирания» в мельницах, когда поверхность золотин покрывается гидрофильными пленками шламов и оксидов, пассивируя их активность.

Пассивированное золото, покрытое оксидными пленками (10%).

Потери при металлургическом переделе. На этапе пирометаллургической плавки медных концентратов (в печах Ванюкова или взвешенной плавки) благородные металлы переходят в штейн, однако часть из них безвозвратно теряется с отвальными шлаками.

Установлено, что растворимость золота в силикатных расплавах крайне низка. Коэффициент распределения золота между штейном и шлаком при промышленных параметрах плавки достигает значений 25. Следовательно, потери носят преимущественно механический характер и вызваны захватом мельчайших капель (корольков) богатого штейна вязкой шлаковой средой. Существует прямая линейная корреляция между остаточным содержанием меди и золота в отвальных шлаках, что позволяет использовать содержание меди в качестве индикатора потерь благородных металлов.

Интеграция комбинированных технологических решений. Для преодоления физических ограничений флотации и минимизации сквозных потерь рекомендуется переход к разветвленной комбинированной схеме, интегрирующей гравитационные, флотационные и гидрометаллургические циклы.

Основные элементы концептуальной схемы:

Центробежная концентрация в цикле измельчения: Использование высокоэффективных центробежных концентраторов (типа Knelson или Falcon) при факторе разделения 60–100 G позволяет извлекать свободное крупное золото на ранних стадиях («в голове процесса»). Это предотвращает его переизмельчение, деформацию и ошламование.

Скоростная флотация (Flash Flotation): Установка флотомашин на песках гидроциклонов позволяет оперативно выводить крупные, уже раскрытые зерна халькопирита и ассоциированного золота, снижая циркуляционную нагрузку на мельницы.

Химико-металлургическая переработка упорного пиритного продукта: Выделенный в отдельный поток золотосодержащий пиритный концентрат должен подвергаться деструкции одним из современных методов: биоокислением (BIOX), автоклавным окислением (POX) или ультратонким помолом (Albion Process) с последующим интенсивным выщелачиванием.

Модификация реагентного режима: Замена чистых ксантогенатов на сочетания дитиофосфатов и тионокарбаматов повышает селективность флотации золота в присутствии пирита.

Закключение. Медно-порфировые руды месторождения «Ёшлик I» представляют собой сложную многокомпонентную систему, где золото имеет полигенный характер и тесно ассоциировано как со свободными фракциями, так и с сульфидами железа и меди [5-10].

Базовые флотационные схемы, нацеленные исключительно на извлечение меди, приводят к потере до 35–40% золота с отвальными хвостами и шлаками металлургического передела.

Единственным экономически и технологически оправданным направлением модернизации производства является внедрение комбинированных схем. Включение центробежной гравитации в замкнутый цикл измельчения позволяет вывести 15–25% золота в товарный продукт до начала флотации, а гидрометаллургическое вскрытие пиритного промпродукта обеспечивает извлечение

упорных субмикроскопических форм золота. Согласно мировому опыту, внедрение подобного разветвленного подхода обеспе-

чивает прирост сквозного извлечения металлов на 4–8%.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

- [1] Стратегия развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы: Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60. (2022).
- [2] Постановление Президента Республики Узбекистан «О мерах по расширению производственных мощностей АО «Алмалыкский ГМК» на базе месторождения «Ёшлик I» от 1 марта 2017 года № ПП-2807. (2017).
- [3] ГОСТ 14180-80. Руды и концентраты цветных металлов. Методы отбора и подготовки проб для химического анализа и определения влаги. (2010). Москва: Стандартинформ.
- [4] ГОСТ 32221-2013. Концентраты медные. Методы анализа. (2014). Москва: Стандартинформ.
- [5] Национальный исследовательский технологический университет «МИСиС». (2018). СТП НИТУ МИСиС 02-2018. Общие требования к построению, изложению и оформлению диссертаций и авторефератов диссертаций. Москва: НИТУ «МИСиС».
- [6] Абрамов, А. А. (2008). Флотационные методы обогащения: Учебник для вузов (3-е изд., перераб. и доп., Т. 4). Москва: Изд-во МГГУ.
- [7] Абрамов, А. А. (2010). Собрание сочинений. Т. 8: Флотация. Физико-химическое моделирование процессов. Москва: Горная книга.
- [8] Андреев, Е. Е., & Тихонов, О. Н. (2007). Дробление, измельчение и подготовка сырья к обогащению: Учебник. Санкт-Петербург: СПГГИ.
- [9] Бочаров, В. А., Игнаткина, В. А., & Абдрахимова, И. Р. (2011). Технология переработки золотосодержащего сырья. Москва: Издательский дом МИСиС.
- [10] Бочаров, В. А., & Игнаткина, В. А. (2007). Технология обогащения полезных ископаемых. Том 1: Обогащение руд цветных металлов. Москва: Издательский дом «Руда и Металлы».

Maqolaga iqtibos keltirish | Как цитировать статью | How to cite this article

Аскаров, А. М., & Мамайсакова, З. Б. (2026). Технологические основы снижения потерь благородных металлов при комплексной переработке медно-порфировых руд. Цифровые технологии в промышленности, 4(3). <https://doi.org/10.70769/3030-3214.SRT.4.3.2026.35>

GEOLOGIYA VA NEFT-GAZ SANOATI
ГЕОЛОГИЯ И НЕФТЕГАЗОВАЯ ПРОМЫШЛЕННОСТЬ
GEOLOGY AND OIL-GAS INDUSTRY

UO‘K: 622.276.5:622.692.23

 10.70769/3030-3214.SRT.4.3.2026.5

© 2026 Authors. Licensed under CC BY 4.0

<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

KO‘KDUMALOQ KONIDA TOVAR NEFTINI REZERVUARLARDA
SAQLASHDA BUG‘LANISH YO‘QOTISHLARINI KAMAYTIRISHNING
TEXNIK-IQTISODIY SAMARADORLIGI



Norqulov Shohbozbek Samandar o'g'li

Katta o'qituvchi, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: shaxbozbeknorqulov@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-5112-3500

Science ID: MQD-0726-0406

Annotatsiya. Maqolada Ko 'kdumaloq neftni tayyorlash qurilmasining RVS-4000 №3 tovar rezervuarida yengil uglevodorod fraksiyalarining bug 'lanishidan yuzaga keladigan yo 'qotishlar baholangan. "Kichik nafaslar", "katta nafaslar" va "teskari nafas chiqarish" bo 'yicha yillik yo 'qotishlar tarkibi aniqlanib, rezervuarni to 'ldirish-bo 'shatish sikllari chastotasining ta'siri tahlil qilingan. Ochiq rangli qoplama, disk-qaytargich, zichlovchi zatvorli ponton va azot yostiqchasi variantlari taqqoslangan. Texnologik va ekspluatatsion mezonlar bo 'yicha zichlovchi ponton maqbul yechim sifatida asoslangan. Neftning texnologik rezervuarda bo 'lish vaqtini 3 sutkadan 2 sutkagacha qisqartirish va 4000 m³ rezervuar o 'rniga 2000 m³ pontonli rezervuardan foydalanish bilan birga kompleks tadbirlar yiliga 121 tonna neftni saqlab qolishi, yillik iqtisodiy samara esa 56 102 AQSH dollari yoki 718,106 mln so 'mni tashkil etishi ko 'rsatilgan.

Kalit so 'zlar: neft rezervuari, bug 'lanish yo 'qotishlari, katta nafas, kichik nafas, ponton, texnologik maqbullashtirish, iqtisodiy samaradorlik.

Received: 25.07.2026

Accepted: 01.08.2026

Issue publication: 28.09.2026

ТЕХНИКО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ СНИЖЕНИЯ
ПОТЕРЬ НЕФТИ ОТ ИСПАРЕНИЯ ПРИ РЕЗЕРВУАРНОМ ХРАНЕНИИ
НА МЕСТОРОЖДЕНИИ КОКДУМАЛАК

Норкулов Шохбозбек Самандар угли

Старший преподаватель, Ташкентский государственный технический университет имени Ислама Каримова, Ташкент, Узбекистан

Аннотация. В статье оценены потери лёгких фракций нефти от испарения в товарном резервуаре РВС-4000 №3 установки подготовки нефти месторождения Кокдумалак. Определена

структура годовых потерь от «малых дыханий», «больших дыханий» и обратного выдоха, а также проанализировано влияние числа циклов заполнения и опорожнения. Сопоставлены светлое покрытие резервуара, диск-отражатель, герметизирующий понтон и хранение под избыточным давлением азота. По совокупности технических и эксплуатационных критериев обосновано применение герметизирующего понтона. Комплексная оптимизация позволяет сохранить 121 т нефти в год и получить экономический эффект 56 102 долл. США или 718,106 млн сум в год.

Ключевые слова: нефтяной резервуар, потери от испарения, большие дыхания, малые дыхания, понтон, технологическая оптимизация, экономическая эффективность.

TECHNICAL AND ECONOMIC EFFICIENCY OF REDUCING EVAPORATION LOSSES DURING TANK STORAGE OF CRUDE OIL AT THE KOKDUMALAK FIELD

Norkulov Shokhbozbek Samandar ugli

Senior Lecturer, Islam Karimov Tashkent State Technical University, Tashkent, Uzbekistan

Abstract. The paper evaluates evaporation losses of light hydrocarbon fractions from crude oil stored in the RVS-4000 No. 3 product tank at the Kokdumalak oil treatment facility. Annual losses caused by standing breathing, working breathing and reverse breathing were quantified, and the effect of tank filling–emptying frequency was examined. Reflective coating, reflector disk, a sealed internal floating pontoon and nitrogen blanketing were compared. Considering both technical performance and operational feasibility, the sealed pontoon was selected as the preferred option. Combined process optimization can retain 121 tonnes of oil per year and provide an annual economic benefit of USD 56,102, equivalent to UZS 718.106 million.

Keywords: oil storage tank, evaporation loss, working breathing, standing breathing, floating pontoon, process optimization, economic efficiency.

Kirish. Neftni qazib olish, yig'ish, tayyorlash, saqlash va iste'molchiga yetkazib berish bosqichlarini qamrab oluvchi texnologik jarayon davomida mahsulotning ma'lum ulushi bug'lanish, gaz fazasiga o'tishi, oqova suv tarkibi bilan chiqib ketishi hamda texnologik uskunalar va quvurlarning hermetikligi buzilishi oqibatida yo'qotiladi. Saqlash bosqichida ayniqsa yengil uglevodorod fraksiyalari rezervuar gaz bo'shlig'iga o'tadi va nafas olish armaturasi orqali atmosferaga chiqariladi. Mazkur yo'qotishlar nafaqat mahsulot massasining kamayishiga olib keladi, balki yengil uglevodorod fraksiyalarining bug'lanishi natijasida neftning fraksion tarkibida ham o'zgarishlar yuz berib, uning tarkibi nisbatan og'irlashadi, to'yingan bug' bosimi pasayadi, tovar sifati yomonlashadi va atmosfera havosiga uchuvchan organik birikmalar tashlamasi ortadi [1–3].

Vertikal po'lat rezervuarlarda bug'lanish natijasida yuzaga keladigan yo'qotishlar bir necha turga ajratiladi. Ularning asosiy qismi rezervuar gaz

bo'shlig'idagi harorat va bosimning kun davomida o'zgarishi sababli sodir bo'ladigan "kichik nafas olish", rezervuar mahsulot bilan to'ldirilganda bug'-havo aralashmasining tashqariga siqib chiqarilishi bilan bog'liq «katta nafas olish» hamda rezervuar bo'shatilgandan so'ng ichki gaz fazasining qayta to'yinishi natijasida kuzatiladigan teskari nafas jarayonlari hisobiga yuz beradi [4–6]. Bug'lanish yo'qotishlarining miqdori rezervuarining foydali sig'imi, mahsulot bilan to'ldirish darajasi, aylanish intensivligi, hududning iqlim sharoiti, neftning to'yingan bug' bosimi hamda rezervuarining konstruktiv xususiyatlari va texnik jihozlanishiga bevosita bog'liq [7–9].

Mazkur tadqiqotning maqsadi Ko'kdumaloq neftni tayyorlash qurilmasidagi RVS-4000 №3 tovar rezervuari misolida bug'lanish yo'qotishlarining tarkibini aniqlash, to'ldirish-bo'shatish rejimining ta'sirini baholash, yo'qotishlarni kamaytiruvchi texnik vositalarni taqqoslash hamda kompleks chora-tadbirlarning

texnik-iqtisodiy samaradorligini asoslashdan iborat.

Hisob-kitoblar uchun Ko'kdumaloq konida ekspluatatsiya qilinayotgan nominal sig'imi 4000 m³ bo'lgan RVS-4000 №3 tovar rezervuari tanlandi. Mazkur rezervuar tayyorlangan tovar neftini qabul qilish, vaqtinchalik saqlash va keyingi transport tizimiga uzatish jarayonlarida foydalaniladi. Hisoblash ishlari kon sharoitida olingan ekspluatatsion ma'lumotlar, laboratoriyada aniqlangan neftning to'yingan bug' bosimi ko'rsatkichlari, rezervuar parkining texnik tavsiflari hamda yillik mahsulot aylanish hajmlariga asoslandi. Bug'lanish natijasidagi yo'qotishlarni baholashda moddiy balans usuli bilan bir qatorda rezervuarlarning "nafas olish" jarayonlarini hisobga oluvchi N.N. Konstantinov va V.I. Chernikin tomonidan ishlab chiqilgan hisoblash tamoyillaridan foydalanildi [4–6].

Yillik umumiy bug'lanish yo'qotishi uch tarkibiy qism yig'indisi sifatida baholandi:

$$M_y = M_{kn} + M_{ka} + M_{tn}, \quad (1)$$

bu yerda M_y - yillik umumiy bug'lanish yo'qotishi; M_{kn} - "kichik nafaslar"dan; M_{ka} - "katta nafaslar"dan; M_{tn} - teskari nafas chiqarishdan yo'qotishlar. "Katta nafaslar" va teskari nafas chiqarish bo'yicha yillik miqdor bir sikldagi yo'qotishning yillik sikllar soniga ko'paytmasi orqali aniqlandi. Hisoblashlarda rezervuarining ekspluatatsiya rejimi sifatida yil davomida 21 marta mahsulotni to'ldirish va bo'shatish sikli amalga oshirilishi qabul qilindi.

1-jadval

RVS-4000 №3 rezervuarida yillik bug'lanish yo'qotishlarining tarkibi

Yo'qotish turi	Bir davrdagi miqdor, kg	Yillik yo'qotish, t/yil
«Kichik nafaslar»	13,45 (sutka)	4,91
«Katta nafaslar»	659,34 (sikl)	13,85
Teskari nafas chiqarish	21,11 (sikl)	0,44

Texnik yechimlarni baholash jarayonida faqat bug'lanish yo'qotishlarini kamaytirish darajasi emas, balki ularni amaldagi rezervuar sharoitida joriy etish imkoniyati, qo'shimcha energiya va kimyoviy reagentlar sarfi, tizimning germetikligini ta'minlash murakkabligi, texnik xizmat ko'rsatish xarajatlari hamda sanoat xavfsizligi talablariga muvofiqligi ham kompleks ravishda inobatga

olindi. Bunday ko'p mezonli yondashuv resurslarni tejovchi va amaliy jihatdan samarali saqlash texnologiyasini tanlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi [8–11].

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Hisoblash natijalariga ko'ra, Ko'kdumaloq konidagi RVS-4000 №3 rezervuarida bug'lanish tufayli yuzaga keladigan yillik neft yo'qotishlari 19,20 t/yilni tashkil etdi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, umumiy yo'qotishlarning eng katta ulushi rezervuarni mahsulot bilan to'ldirish jarayonida sodir bo'ladigan "katta nafas olish" hodisasi hissasiga to'g'ri kelib, uning miqdori 13,85 t/yil yoki jami yo'qotishlarning 72,14 foizini tashkil etdi. «Kichik nafaslar»dan yo'qotishlar 4,91 t/yil yoki 25,57 foiz, teskari nafas chiqarishdan yo'qotishlar esa 0,44 t/yil yoki 2,29 foiz bo'ldi.

Natijalar. Olingan natijalar bug'lanish natijasidagi yo'qotishlarni kamaytirishda asosiy omil sutkalik harorat tebranishlaridan ko'ra rezervuar mahsulot aylanishi va uni to'ldirish rejimi ekanligini ko'rsatdi. Har bir to'ldirish jarayonida rezervuar gaz bo'shlig'ida to'plangan bug'-havo aralashmasining ma'lum qismi atmosferaga chiqarib yuboriladi. Shu bois mahsulotni qabul qilish va bo'shatish sikllari sonining ortishi bug'lanish yo'qotishlarining deyarli proporsional ravishda ko'payishiga sabab bo'ladi.

Hisoblashlar natijasida yiliga 4 ta ekspluatatsion sikl amalga oshirilganda davriy bug'lanish yo'qotishlari 2,72 t/yilni, 21 ta siklda 14,29 t/yilni, 36 ta siklda esa 24,50 t/yilni tashkil etishi aniqlandi. Bu esa rezervuarni ko'p marotaba kichik hajmdagi mahsulot bilan to'ldirishdan ko'ra, ishlab chiqarishning uzluksizligi va texnologik xavfsizlik talablarini saqlagan holda yirikroq partiyalar bilan ishlatish maqsadga muvofiq ekanligini tasdiqlaydi. Biroq rezervuarining ishchi hajmidan 95% dan ortiq darajada foydalanish tavsiya etilmaydi, chunki harorat ta'sirida mahsulot hajmining kengayishi rezervuarining toshib ketishi va avariya holatlarining yuzaga kelish xavfini oshiradi [3, 9].


Bug'lanish yo'qotishlarini kamaytirish maqsadida to'rtta muqobil texnik yechim tahlil qilindi. Birinchi usul rezervuarining tashqi sirtiga quyosh nurlarini qaytaruvchi och rangli himoya qoplamasini qo'llash bo'lib, u devorlarning qizishini kamaytirish orqali asosan «kichik nafas

olish» yo‘qotishlarini qisqartirishga xizmat qiladi. Ikkinchi variant sifatida disk-qaytargichdan foydalanish ko‘rib chiqildi, bunda bug‘-havo aralashmasining atmosferaga chiqishi qisman cheklanadi. Uchinchi yechim — zichlovchi zatvor bilan jihozlangan pontonni o‘rnatish bo‘lib, u neft yuzasi va gaz fazasi orasidagi erkin bo‘shliq hajmini sezilarli darajada kamaytiradi. To‘rtinchi usul esa rezervuar ichida ortiqcha bosim ostida azot muhitini hosil qilishga asoslangan bo‘lib, inert gaz qatlamining shakllanishi bug‘lanish intensivligini pasaytiradi va mahsulotning atmosfera bilan bevosita aloqasini cheklaydi [10–13].

2-jadval

Bug‘lanish yo‘qotishlarini kamaytirish variantlarining taqqoslanishi

Variant	Kamaytirish samaradorligi, %	Kamaygan yo‘qotish, t/yil	Qoldiq yo‘qotish, t/yil
Tadbirsiz holat	—	—	19,20
Ochiq rangli qoplama	—	2,95	16,25
Disk-qaytargich	27	5,18	14,02
Zichlovchi zatvorli ponton	90	17,28	1,92
Azot yostiqchasi	96	18,43	0,77



1-rasm. Texnik chora-tadbirlar qo‘llangandan keyingi qoldiq yo‘qotishlar.

Muhokama. Hisoblash natijalari shuni ko‘rsatdiki, bug‘lanish yo‘qotishlarini kamaytirish bo‘yicha eng yuqori nazariy samaradorlik azot yostiqchasi qo‘llanilganda kuzatiladi. Ushbu usulda yillik qoldiq yo‘qotish 0,77 t/yilgacha kamayadi. Biroq texnologiyani amaliyotga joriy etish azotni ishlab chiqarish yoki tashqi manbadan uzatish tizimini tashkil etish, rezervuardagi ortiqcha bosimni avtomatik boshqarish vositalarini o‘rnatish,

germetiklikni doimiy nazorat qilish hamda qo‘shimcha ekspluatatsion xarajatlarni talab qiladi. Shu sababli mavjud RVS-4000 rezervuarini modernizatsiya qilish nuqtai nazaridan zichlovchi zatvor bilan jihozlangan ponton texnik va iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqroq yechim hisoblanadi. Mazkur usul energiya sarfini talab qilmaydi, konstruktiv jihatdan sodda va ishonchli bo‘lib, bug‘lanish natijasidagi yillik yo‘qotishlarni 19,20 t dan 1,92 t gacha, ya’ni qariyb 90% ga kamaytirish imkonini beradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, rezervuar tashqi yuzasini och rangli qaytaruvchi qoplama bilan qoplash hamda disk-qaytargichdan foydalanish alohida qo‘llanilganda yetarli darajada yuqori samaradorlikni ta’minlamaydi. Buning asosiy sababi ushbu usullar «katta nafas olish» jarayonida yuzaga keladigan bug‘-havo aralashmasining chiqarilishini to‘liq bartaraf eta olmasligidir. Shunga qaramay, ularni ponton bilan birgalikda qo‘llash rezervuarining issiqlik yuklanishini kamaytiradi va umumiy texnologik samaradorlikni oshiradi. Pontondan samarali foydalanish uchun zichlovchi elementlarning texnik holatini muntazam tekshirish, rezervuar tubida cho‘kma va korroziya jarayonlarini nazorat qilish hamda nafas olish armaturasining me’yoriy ish rejimini saqlash zarur [3, 8, 12].

Mahalliy texnik tadbirlarning maksimal samarasi ularni neftni tayyorlash va saqlash tizimi-ning umumiy texnologik rejimi bilan uyg‘unlashtirish orqali ta’minlanadi. Tadqiqot davomida neftning texnologik rezervuarda saqlanish muddatini 3 sutkadan 2 sutkagacha qisqartirish tavsiya etildi. Bunday yondashuv mahsulotning yuqori harorat ta’sirida qolish vaqtini qisqartiradi, gaz fazasining yengil uglevodorodlar bilan to‘yinish darajasini pasaytiradi hamda oraliq rezervuarlarda bajariladigan texnologik operatsiyalar sonini kamaytiradi. Natijada bug‘lanish bilan bog‘liq yo‘qotishlarni qo‘shimcha ravishda taxminan 0,1 % ga qisqartirish imkoniyati yuzaga keladi. Tovar neftini saqlashda 4000 m³ hajmli oddiy rezervuar o‘rniga 2000 m³ hajmli pontonli rezervuardan foydalanish ham taklif etildi. Kichikroq ishchi hajm mahsulot aylanmasiga mos tanlanganda rezervuar-ning ortiqcha gaz bo‘shlig‘i kamayadi, neftning uzoq turib qolishi bartaraf etiladi va operatsion boshqaruv soddalashadi. Hisoblash natijalariga

ko'ra, ushbu yechim texnologik yo'qotishlarni 0,3 foizgacha kamaytirishi mumkin.

Hisoblash natijalari shuni ko'rsatdiki, zichlovchi pontonni qo'llash, rezervuar sig'imini ishlab chiqarish oqimiga maqbullashtirish hamda neftni saqlash muddatini qisqartirishga asoslangan kompleks texnik tadbirlarni amalga oshirish orqali yiliga 121 tonna neftning yo'qotilishini oldini olish mumkin. Joriy etish dalolatnomasida qabul qilingan konversiya koeffitsiyentiga muvofiq ushbu hajm 758,1 barrel neft mahsulotiga mos keladi. Hisob-kitoblarda bir barrel neftning qiymati 74 AQSH dollari deb qabul qilinganda, mazkur tadbirlarni joriy etishdan olinadigan yillik iqtisodiy samara quyidagicha aniqlanadi:

$$E = 758,1 \times 74 = 56\,102 \text{ AQSH dollari/yil.}$$

Hisob-kitoblarda 1 AQSH dollari kursi 12 800 so'm deb qabul qilinganda, tavsiya etilgan texnik tadbirlarni amalga oshirishdan olinadigan yillik iqtisodiy samara 718,106 mln so'mni tashkil etadi. Uglevodorod bug'larining atmosferaga chiqarilishi kamayishi natijasida ekologik to'lovlar ham qisqaradi, biroq ularning ulushi mahsulotni saqlab qolish hisobiga olinadigan iqtisodiy foydaga nisbatan ancha kichikdir. Demak, taklif etilgan yechimlarning asosiy iqtisodiy afzalligi qo'shimcha neft qazib olish bilan emas, balki qazib olinib, tayyorlangan mahsulotning texnologik yo'qotilishining oldini olish bilan izohlanadi.

Tahlillar shuningdek, alohida rezervuar bo'yicha olingan natijalarni korxona miqyosidagi umumiy samaradorlik bilan aralashtirmaslik zarurligini ko'rsatdi. Jumladan, RVS-4000 №3 rezervuarida pontondan foydalanish hisobiga bug'lanish yo'qotishlari 17,28 t/yilga kamayadi. Yiliga 121 t neftni saqlab qolish ko'rsatkichi esa faqat bitta rezervuarga emas, balki neftni tayyorlash va saqlash tizimida amalga oshiriladigan bir nechta texnologik tadbirlarning kompleks natijasiga tegishlidir. Bunday yondashuv iqtisodiy hisob-kitoblarning aniqligi, shaffofligi va ularni qayta tekshirish imkoniyatini ta'minlaydi.

Tavsiya etilgan texnik yechimlarni amaliyotga joriy etish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Dastlab rezervuar korpusining, tom qismining, nafas olish klapanlari, o'lchash lyuklari va quvur ulanishlarining germetikligi texnik diagnostika orqali baholanadi. Shu bilan birga, kamida 30 sutka davomida neft sathi,

gaz bo'shlig'i harorati va bosimining monitoringi olib boriladi. Olingan ma'lumotlar hisobiy natijalarni haqiqiy ekspluatatsiya sharoitlari bilan taqqoslash hamda pontonning optimal konstruktiv parametrlarini tanlash imkonini beradi.

Keyingi bosqichda rejali ta'mirlash ishlari davomida rezervuar zichlovchi zatvor bilan jihozlangan ponton bilan ta'minlanadi, nafas olish armaturasi me'yoriy holatga keltiriladi va tashqi sirtning quyosh nurlarini qaytarish xususiyati tiklanadi. Ponton materiali neftning fizik-kimyoviy xossalari, korroziya muhiti hamda yong'in xavfsizligi talablarini hisobga olgan holda tanlanishi lozim. Jihozlash ishlari yakunlangach, mahsulot sathi, gaz fazasi bosimi va uglevodorod bug'lari konsentratsiyasi muntazam kuzatilib, hisob-kitoblarda belgilangan taxminan 90% samaradorlik amaliy ma'lumotlar bilan tasdiqlanishi zarur.

Uchinchi bosqichda rezervuarlar parkining ekspluatatsiya rejimi optimallashtiriladi. Bunda texnologik tindirish muddati 2 sutka atrofida barqarorlashtiriladi, mahsulot oqimi 2000 m³ hajmli pontonli rezervuarlarning ishchi sig'imiga mos ravishda taqsimlanadi hamda ortiqcha to'ldirish va bo'shatish operatsiyalari imkon qadar kamaytiriladi. Har oy yakunida moddiy balans asosida saqlab qolingani mahsulot hajmi, qoldiq bug'lanish yo'qotishlari va ekspluatatsiya xarajatlari alohida tahlil qilinishi tavsiya etiladi. Bunday monitoring tizimi texnik tadbirlarning uzoq muddatli samaradorligini baholash va ularni boshqa rezervuarlarda qo'llash imkoniyatini asoslashga xizmat qiladi.

Mazkur texnologiyani boshqa obyektlarda joriy etishda har bir rezervuarining o'ziga xos ekspluatatsion sharoitlari hisobga olinishi zarur. Xususan, rezervuar sig'imi, yillik mahsulot aylanish hajmi, neftning to'yingan bug' bosimi hamda hududning iqlim xususiyatlari qayta baholanishi lozim. Shu sababli RVS-4000 №3 rezervuari uchun aniqlangan 19,20 t/yil bug'lanish yo'qotishlarini boshqa obyektlarga to'g'ridan-to'g'ri qo'llash ilmiy jihatdan asosli hisoblanmaydi. Chunki yo'qotishlar miqdori gaz bo'shlig'i hajmi, mahsulot aylanish intensivligi va to'ldirish sikllari soniga bevosita bog'liq. Har bir obyekt uchun boshlang'ich monitoringni tashkil etish, individual moddiy balansni yuritish hamda rezervuarining ish rejimini raqamli jurnal orqali qayd etish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, yoz oylarida sutkalik harorat tebranishlari

va rezervuarni to'ldirish tezligini muntazam qayd etish hisoblash modelining ishonchliligini oshiradi.

Texnik tadbirlarning samaradorligini baholashda uchta asosiy ko'rsatkichdan foydalanish tavsiya etiladi. Birinchi ko'rsatkich – tayyorlangan neftning har bir tonnasiga to'g'ri keladigan texnologik yo'qotish ulushi, ikkinchisi – rezervuar bo'yicha yil davomida qayd etilgan qoldiq bug'lanish yo'qotishlari massasi, uchinchisi esa saqlab qolingani mahsulot qiymatining qo'shimcha ekspluatatsiya xarajatlariga nisbati hisoblanadi. Pontonning zichlovchi elementlari eskirganda yoki rezervuar ish rejimi o'zgarganda bug'lanish yo'qotishlari yana ortishi mumkin. Shu sababli texnik yechimlarning samaradorligi faqat dastlabki hisob-kitoblar bilan emas, balki kamida har chorakda o'tkaziladigan monitoring natijalari orqali muntazam tasdiqlanib borilishi lozim. Mazkur yondashuv resurslarni tejashga qaratilgan texnik tadbirlarni formal choralar darajasida emas, balki amaliy boshqaruv vositasi sifatida samarali qo'llash imkonini beradi.

Xulosa.

– Ko'kdumaloq NTQdagi RVS-4000 №3 tovar rezervuarida bug'lanishdan umumiy yo'qotish 19,20 t/yil bo'lib, uning 72,14 foizi «katta nafaslar» hisobiga shakllanadi.

– To'ldirish-bo'shatish sikllari soni oshishi bilan davriy yo'qotishlar deyarli chiziqli ko'payadi; shu sababli rezervuar aylanmasini barqarorlashtirish

va ortiqcha operatsiyalarni kamaytirish zarur.

– Azotli himoya muhitidan foydalanish bug'lanish yo'qotishlarini kamaytirishda qariyb 96 % gacha bo'lgan yuqori nazariy samaradorlikni ta'minlashi mumkin. Biroq amaldagi ishlab chiqarish sharoitlari, ekspluatatsiya qulayligi, qo'shimcha energiya talab qilinmasligi va texnik xizmat ko'rsatishning soddaligi hisobga olinganda, zichlovchi zatvorli pontondan foydalanish 90 % lik kamaytirish samarasi bilan eng maqbul texnik yechim sifatida baholandi.

– RVS-4000 №3 rezervuarida zichlovchi ponton o'rnatilishi natijasida bug'lanish bilan bog'liq yillik yo'qotishlar miqdori 19,20 t/yildan 1,92 t/yilgacha kamayishi aniqlandi.

– Neftning texnologik rezervuarda saqlanish muddatini 3 sutkadan 2 sutkagacha qisqartirish hamda katta sig'imli rezervuar o'rniga ishlab chiqarish oqimiga moslashtirilgan 2000 m³ hajmli pontonli rezervuardan foydalanish neftni tayyorlash va saqlash tizimining umumiy samaradorligini oshirish imkonini beradi.

– Taklif etilgan kompleks texnologik tadbirlarni amalga oshirish natijasida yiliga 121 tonna neft mahsulotini saqlab qolish imkoniyati yaratiladi. Ushbu natija iqtisodiy jihatdan 56 102 AQSH dollari yoki 718,106 mln so'm miqdoridagi yillik samaraga teng.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1] NGH 39.0-033:2013. (2013). O'zbekiston Respublikasi neft-gaz qazib chiqarish korxonalarida neftning texnologik yo'qotishlarini aniqlash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar.
- [2] ГОСТ 1756-2000. (2000). Нефтепродукты. Определение давления насыщенных паров.
- [3] ГОСТ 31385-2008. (2010). Резервуары вертикальные цилиндрические стальные для нефти и нефтепродуктов. Общие технические условия. Стандартинформ.
- [4] Константинов, Н. Н. (1961). Борьба с потерями от испарения нефти и нефтепродуктов. ГНТИ нефтяной и горно-топливной литературы.
- [5] Абузова, Ф. Ф., & Черников, В. И. (1966). Потери нефтепродуктов и нефти при испарении из подземных резервуаров. Недра.
- [6] Лутошкина, Г. С. (1977). Сбор и подготовка нефти, газа и воды. Недра.
- [7] Аренистер, В. В. (1975). Техничко-экономический анализ потерь нефти и нефтепродуктов. Химия.
- [8] Коршак, А. А., Блинов, И. Г., & Новосёлов, В. Ф. (1991). Системы улавливания лёгких фракций нефти и нефтепродуктов из резервуаров. Уфимский нефтяной институт.
- [9] Земенков, Ю. Д., Малюнин, Н. А., Маркова, Л. М., и др. (1998). Резервуары для хранения нефти и нефтепродуктов: Курс лекций. ТюмГНГУ.

- [10] Попова, З. А., Ржавский, Е. Л., & Романова, Л. П. (1972). Борьба с потерями нефти и нефтепродуктов. Недра.
- [11] Блинов, И. Г., Герасимов, В. В., Коршак, А. А., Новосёлов, В. Ф., & Седелев, Ю. А. (1990). Перспективные методы сокращения потерь нефтепродуктов от испарения в резервуарах. ЦНИИТЭнефтехим.
- [12] Бешагина, Е. В., Будовая, Е. А., & Гавриков, А. А. (2013). Повышение эффективности промысловой подготовки нефти с целью сокращения потерь лёгких углеводородов на месторождении Западной Сибири. Фундаментальные исследования, (8), 545–550.
- [13] РД 39-0147103-298-88. (1988). Методика расчёта эффективности применения средств сокращения естественной убыли нефти на магистральных нефтепроводах. ВНИИСПТнефть.

Maqolaga iqtibos keltirish | Как цитировать статью | How to cite this article

Norqulov, S. S. (2026). Ko'kdumaloq konida tovar neftini rezervuarlarda saqlashda bug'lanish yo'qotishlarini kamaytirishning texnik-iqtisodiy samaradorligi. Sanoatda raqamli texnologiyalar, 4(3). <https://doi.org/10.70769/3030-3214.SRT.4.3.2026.5>

UO'K: 533.3/9:553.078

 10.70769/3030-3214.SRT.4.3.2026.17

© 2026 Authors. Licensed under CC BY 4.0

<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

BOKALI INTRUZIVI PETROGRAFIYASI VA MA'DANDORLIGI (SHIMOLIY BUKANTOV)



Rahmatullayev Ilhom Farmonqul o'g'li

Magistrant, Geologiya Fanlari universiteti, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: rahmatullayevilhom587@gmail.com

ORCID: 0009-0006-1306-0442

Science ID: BSR-0525-0012



Ashirbekov Akabir Botirovich

Magistrant, Geologiya Fanlari universiteti, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: ashirbekovakabir@gmail.com

ORCID: 0009-0005-8021-9572

Science ID: MSN-0826-0169

Annotatsiya. Maqolada Shimoliy Bukantov struktura-formatsion zonasida joylashgan Bokali granitoid intruzivining petrografik, mineralogik va geokimyoviy xususiyatlari umumlashtirilgan. Massivda kvarsli dioritdan mayda donador trond'yemit, plagiogranit va aplitsimon granitgacha bo'lgan to'rtta intruziv faza hamda to'rtta impulsdan iborat dayka majmuasi ajratilgan. Rogoviklarning keng rivojlangani, kaliyli metasomatoz belgilarining kuzatilmagani va yuqori magnitlanuvchanlik massivning gipabissal darajasini tasdiqlaydi. 116 ta namunaning ICP-MS tahlili keskin kontrastli geokimyoviy maydonni ko'rsatdi: Cu — 3062 g/t, Mo — 536 g/t, W — 249 g/t va Au — 0,104 g/t gacha. Eng ishonchli mahsulдор assotsiatsiya Cu–Mo–Au–As bo'lib, Mo–W–Re majmuasi yuqori haroratli intruziv-kontakt bosqichini ifodalaydi. Janubi-g'arbiy ekzokontaktning chuqur joylashgan, oksidlanmagan shtokverk zonalari birinchi navbatdagi qidiruv obyekti sifatida ajratildi.

Kalit so'zlar: Bokali intruzivlari, Shimoliy Bukantov, tonalit, trond'yemit, skarn, mis-molibdenli ma'danlashuv, ICP-MS, geokimyoviy zonallik, litogeokimyoviy oreol, ma'dandorlik.

Received: 28.07.2026

Accepted: 30.08.2026

Issue publication: 28.09.2026

ПЕТРОГРАФИЯ И РУДОНОСНОСТЬ БОКАЛИНСКОГО ИНТРУЗИВА (СЕВЕРНЫЙ БУКАНТАУ)

Рахматуллаев Илхом Фармонкул угли

Магистрант, Университет геологических наук, Ташкент,
Узбекистан

Аширбеков Акабир Ботирович

Магистрант, Университет геологических наук, Ташкент,
Узбекистан

Аннотация. В статье обобщены петрографические, минералогические и геохимические особенности Бокалинского гранитоидного интрузива, расположенного в пределах Северо-Букантауской структурно-формационной зоны (Центральные Кызылкумы, Узбекистан). Выделены четыре интрузивные фазы — от кварцевых диоритов до мелкозернистых трондьемитов, плагиогранитов и аплитовидных гранитов, с четырьмя импульсами даек. Гипабиссальный уровень становления массива подтверждается широким развитием роговиков, отсутствием калиевого метасоматоза и высокой магнитной восприимчивостью. По результатам ICP-MS-анализа 116 проб установлено резко контрастное геохимическое поле: Си до 3062 г/т, Мо до 536 г/т, W до 249 г/т, Au до 0,104 г/т. Наиболее надёжной продуктивной ассоциацией является Си–Мо–Au–As, тогда как Мо–W–Re отвечает высокотемпературной интрузивно-контактной стадии. Глубокие неокисленные штокверковые зоны юго-западного

экзоконтакта выделены как первоочередной объект поисков.

Ключевые слова: Бокалинский интрузив, Северный Букантау, тоналит, трондьемит, скарн, медно-молибденовое оруденение, ICP-MS, геохимическая зональность, литогеохимический ореол, рудоносность.

PETROGRAPHY AND ORE POTENTIAL OF THE BOKALI INTRUSION (NORTHERN BUKANTAU)

Rahmatullayev Ilhom Farmonqul ugli

Master's Student, University of Geological Sciences, Tashkent,
Uzbekistan

Ashirbekov Akabir Botirovich

Master's Student, University of Geological Sciences, Tashkent,
Uzbekistan

Abstract. The article summarizes the petrographic, mineralogical and geochemical features of the Bokali granitoid intrusion situated within the Northern Bukantau structural-formational zone (Central Kyzylkum, Uzbekistan). Four intrusive phases were distinguished, from quartz diorite to fine-grained trondhjemite, plagiogranite and aplitic granite, with a four-impulse dyke complex. The hypabyssal level is confirmed by widespread hornfels development, the absence of potassic metasomatism and high magnetic susceptibility. ICP-MS analysis of 116 samples revealed a strongly contrasting geochemical field: Cu up to 3062 g/t, Mo up to 536 g/t, W up to 249 g/t and Au up to 0.104 g/t. The most reliable productive association is Cu-Mo-Au-As, whereas Mo-W-Re characterizes the high-temperature intrusive-contact stage. The deep, unoxidized stockwork zones of the south-western exocontact are identified as a priority exploration target.

Keywords: Bokali intrusion, Northern Bukantau, tonalite, trondhjemite, skarn, copper-molybdenum mineralization, ICP-MS, geochemical zoning, lithogeochemical halo, ore potential.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi "Ma'muriy islohotlar doirasida tog'-kon sanoati va geologiya sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-116-son Farmoni hamda 2024-yil 19-fevraldagi "Respublikada mis xomashyosini chuqur qayta ishlashni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-77-son qarorida istiqbolli maydonlarni kompleks geologik o'rganish va mis xomashyosi resurslarini ko'paytirish vazifalari belgilangan. Bu vazifalar Markaziy Qizilqum mintaqasidagi granitoid massivlar va ular bilan bog'liq endogen ma'danlashuvni zamonaviy analitik usullar asosida qayta baholashni dolzarb qilmoqda. Jahon amaliyotida gipabissal intruziyalar hamda dayka majmualarining mis-molibdenli va oltinli ma'danlashuv bilan genetik bog'liqligini asoslash muhim yo'nalishga aylandi [5; 9; 10].

